

O'quvchi va yoshlar uchun

**MUZAFFAR TURSUN**

# **QUYOSH SOTILMAYDI**



«Buxoro» nashriyoti, 2001 yil.



10 3 1988  
2

Muzaffar Jursunov 1942 yil 2 yanvarda Jondoz tumanidagi Doqqi (Toqli) qishlog'ida, dehqon oilasida tavallud topgan. 1964 yilda Buxoro Davlat pedagogika institutini, 1973 yilda Toshkent Oliy partiya maktabini bitirgan. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist.

Muallifning «Oddiy kun», «Pochcham ozmoqchilaz», «Jondoz va jondozliklazi», «Hikmatga to'la olam», «Kuling, dunyo yozishsin», «Oqar suv» kabi ondan oshiq kitoblari chop etilgan.

1992 yilda muqaddas haj safarida bo'lgan. 1968 yildan buyon «Jondoz ovozi» gazetasida muharrir bo'lib ishlaydi.

2016  
4474

Alisher Naz  
nomi:  
O'zbekiston

## CHASHMA

Bunga ko'p yillar bo'ldi. Soddafe'l bir raisimiz bo'lardi. (Chunki, kolxozimiz bor edi). U kishi hoshliqman degan zotki bor, ortidan bo'lsayam, sizlab gapirardi bechora. O'sha paytlar boshliqlarning obro'si tog'dek baland edi, chamamda. Balki, kattalarda unchalik obro' bo'lmasayam, kichiklarda andisha kuchli edi.

Oltmishlarni urib qolgan Rais boboning bunday deganlarini eshitganman: «Ijrokom bobo (aslida o'g'liga barobar) kelib ketdilar. Moshinalariga moy quyib uzatdik, ko'p kamtar odam-da, qo'llariga suv quysam unamadilare». «Bugun Brejnev bobomizning nevaralarini televizorda ko'rsatdi. Qoshlari qalin, o'zlariga o'xsharkan»...

Biz, zumrasha bolalar bo'lsa, ularni laganbardorlikka chiqarib, piq-piq kulardik.

Shu yillar xo'jaligimizda bir shumroq «Yoshkamol» (asli yosh komsomol) yigitcha ham ishlardi. Texnikumda o'qigan, shahar ko'rgan bola. Lekin, azamat bir ko'tarilib, bir tushib, uzoq vaqt ishladi. Raisning soddaligidan rosa foydalanardi. U paytlar «Yoshlarga madaniy-maishiy sharoit qanday?» deb so'rab keluvchilar topilib turardi. Nimadir turtki bo'ldi-yu, shu Yoshkamol ukamiz haddiy havaskorlik dastasi tuzishga kirishdi. Qani, Rais bobo jon hersa deng/. Nihoyat:

-Hammasi bo'lib, ikki yuz so'm o'tkazib beraman, ortig'iga bankayim ruxsat qilmaydi. Bir juftdan doira, nay bilan tanbur olsalaring yetarli! Shuyam katta ansambil bo'ladi, -deb rozi bo'libdi Rais bobomiz.

To'g'ri-da, Nima, Bizning kolxozdan Ortiqxo'ja chiqarmidi?...

Harqalay, ish boshlandi. Klubning bir xonasida har kuni tig'ir-tig'ir deng...

Shundan so'ng «Yoshkamol» ukamizni u yer, bu yerda maqtay boshladilar. Hatto, tuman ro'znomasida suratiyam chiqdi. Emish, jamoa yoshlariga munosib madaniy-maishiy sharoit yaratilgan. Ular hosh paytlarda sanoifisa bilan mashg'ullanib turadilar.

Keyinroq asli shum bo'lgan Yoshkamolning yana bir shumligi tutib, raisga kirdi. Holahvol so'rashadilar.

-Nayni yaxshiroq o'rgat, zo'r narsa! Saidjon Kalon chalsa, odam erib ketadi-ya! -deb maslahat berib qoladi kutilmaganda Rais. Yoshkamol bu imkoniyatni qo'ldan bermadi.

-SSSR Davlat Gimni-chi?-deydi yuziga jiddiy tus berib. Biroz quti o'chgan Raisning salqi qovoqlari ko'tarilib, ko'zlari katta-katta ochildi.

-Nima bo'libdi unga-Gimnimizga?

Yoshkamol so'ziga yanada urg'u beradi.

-SSSR Davlat Gimnini nayda chalib bo'lmaydiku. Rais bobo! Bunga maxsus pionina kerak! Ana bunday, harmoqlarini o'ynatib chalinadigan. Bir kuni raykom bobo ko'rsalar nima deyдилar? Bilasiz, konsertlarni Gimn-siz ochib bo'lmaydi. Butun gavdasini harakatga solib tushuntiradi u.

-E, shundaymi? Rais katta bir masalaning mohiyatini bira-to la tushunib yetganday bo'ladi. Hatto qo'l ostida shunday o'tkir yigit ishlab turganidan mamnun bo'lib ham ketadi.

-SSSR Gimni uchun bo'lsa, olamiz, uka! Olamiz! Qani, hisobchini aytib kel, huyoqqa. Tez kelsin. Gimni biladimi u?

Rais uchun hozir bundan ortiq ish yo'q edi, go'yo. Xonaga qiyshayib kirgan hisobchi ham o'rtada nimadir bo'lganini darhol anglaydi.

-Gimnga deb chek yozing, bankadan bugunoq o'tkazing. Aytganini olib bering.

Odati bo'yicha hisobchi bir oz tixirlik qiladi.

-Bonka o'tkazmaydi, -deydi taysallab. Qattiq inventardan boshqasi uchun ellik so'mdan ortiqchasini o'tkazmaydi.

Rais qat'iy buyruq beradi.

-Gapni cho'zmang. Gimn uchun deng, ha, Davlat Gimni uchun! Qani o'tkazmay ko'rsin. Bo'lmasa, raykompartiyaga, shaxsan Jahhorovga javob beradi.

Ko'p o'tmay, qishloq tomoshaxonasida pianina ovozi gumburlay boshladi. Onda-sonda unga jo'r bo'lgan hoshqa musiqa ovozlari ham eshitilib turdi.

Yoshkamol bu bilan ham tinmadi. O'sha kunlardan birida qaysidir masala bo'yicha raykomga hisob berish uchun chaqirilgan Raisning oldiga dadil kirib, yana masala qo'ydi. «Partiya haqida qo'shiq»ni faqat va faqat akkardion yordamida ijro etish mumkin.

Rais peshonasini ushladi. «Partiya haqida qo'shiq?»...

Hali shunday qo'shiq ham hormi? Uning xayolidan shu gap o'tdi. Lekin, bildirmadi.

-To'g'ri aytasan, uka, -dedi keyin bosiqlik bilan. -O'zim ham o'zmoz bilaman, uni nayda chalib bo'lmaydi. Naychi bola tuzukmi? Lekin g'ayrat qil, kolxozimiz yoshlarning dam olishi masalasi yaqinda raykom partiyada ko'rildi. O'rtoq Jahhorovdan gapga qolmaylik.

Lekin, Rais nay ohanglarini yaxshi ko'rardi. Buni yana eslatib qo'ydi.

-Anavi nay puflab yurgan bolaning oti Jamolmi? Yaxshilab o'rgat, xo'jalik hisobidan o'shani o'qitamiz. Qunti borga o'xshaydi. U kuni klubga kirsam, quloqqa yoqadigan qilib chalib turgan ekan...

Keyinchalik, Yoshkamol tashabhusi bilan yana bir qator cholg'u asboblari sotib olish uchun ham Rais bobo qiyshaytirib imzo chekdi. Tez kunda klubga kirib, havaskorlar mashqini ko'risga va'da ham berdi.

-Albatta, naychi bola ham bo'lsin. O'shani alohida eshitaman. Ayt, o'qishga hozirlik ko'raversin. Hali oti Jamolmidi? alohida e'tibor bilan so'radi Rais.

Haqiqatda o'sha kuni, tomoshadan so'ng naychining qo'lini alohida siqdi.

-Yasha! -dedi. Avjini yaxshi olding.

Yillar o'tib ketdi. Rais ham munkayib qoldi. Yoshkamol ukamiz

bo'lsa hir ko'tarilib, bir tushib, uzoq yillar ishladi. Keyinchalik uning musiqa bilan umuman ishi bo'lmadi.

Lekin: qishloqdan nomdor bir naychi yetishib chiqdi.

«SSSR Gimni», «Partiya haqida qo'shiq»ni nayda sira ijro etmagan hir naychi yetishib chiqdi...

Ha, kekxa Rais mitillab turgan chasmaning ko'zini ochib ketgan ekan chamamda...

26 noyabr 1991 yil.



*Qush uyasida ko'rganini qiladi*  
(maqol).

**MITTI «TO'RA»**  
(hajviya)

Jasurcha (kelgusida albatta, Jasur bo'ladi) endi to'rt yoshga kirgan, do'mboqqina bola. Silliq, qop-qora sochlari qoshiga baravar qilib kesilgan. «R»ni goh o'ziday, bo'lmasa «Y» deb, talaffuz qiladi. Bugun Jasur uyda yolg'iz qoldi. Ota-onasi ishda, opasi maktabda. U o'tiraverib, juda zerikib ketdi. Lekin, o'tgan ikki kun biram mazza bo'ldiki... Bu mazaning ta'mi eng shirin shokoladday uning quloqchakkasidan hali-beri ketmaydi endi. «Bog'chaga hormayman!» deb, ko'p xarxasha qiladi. Uydagilar oxiri ko'nishdi. «Qiziq, dumalab yig'layversang, majburan ko'nisharkan-da» deb, o'ylaydi u. Keyin dadasining oppoq, daroz, ikki antenali mashinasida hashamatli ishxonaga borishdi. Yana qanday deng: U, Jasurcha, oldin-da-yu, dadasi orqada. Bolakay mana, bunday qilib, qulochini kergancha ystanib oldi. Mazza! Keyin bir-ikki soat dadasining isxonasidayam bo'ldi. Juda zo'r ketdi, ishlar!...

O'shalarini eslab, birdan Jasurchaning nimadir qegisi kelib ketdi. O'tganlarni o'ylab o'tirgandan-nima foyda? Undan ko'ra o'ynagani ma'qul emasmi? Masalan, dadasining salohatli ish joyida ko'rganlarini bemalol o'yin qilib o'tirsa bo'ladi-ku!

U ichkaridagi alohida uyga-dadasining ishxonasiga otib, uning yumshoq kursisiga o'tirib oldi. Aytganiday chiqmadi, bo'yi pastlik qildi. Darhaqiqat, eshik tomonidan qaragan kishiga uning dumaloq boshi stolning u tomon qirrasiga qo'yilgan koptokdek ko'rinardi. Jasurcha kallasini ishlatdi: qalin yostiq topib, tagiga qo'yib oldi. Ana, endi ancha durust bo'ldi, ko'kragi ham ko'rinib qoldi. O'zini yanada ulug'vor, jiddiy ko'satishga urinardi u. Keyin dadasining bir ko'zi sinib tushgan qora

ko'zoynagini topib, hurnining ustiga omonat qo'ndirib oldi. Chiqib, dahlizdagi o'zidan ikki baravar baland uch tabaqali toshoyna oldiga o'tdi. Yuzlariga jiddiy tus berib, qovoqlarini osganca oynaga razm soldi. Ko'ziga kap-katta Jasur (keyinroq, albatta, Jasur aka bo'ladi) ko'rinib ketdi-ku!. Borib, eshikni qiya ochib qo'ydi-yu, yana yugurib kelib, o'rniga o'tirib oldi. Stolga egilgan hoshini savlat bilan ko'tarib, ko'kragini g'oz tutgancha, eshik tomon mag'rur tikildi. Shu turishda yuzi o'ychan, qarashlari tantanavor edi, Jasurvoyning (Kelgusida, albatta, Jasur Botirovich bo'ladi). Xayolan eshikning og'zida kimnidir ko'rib, unga:

-Yopib qo'ying, men bandman!-dedi dimog'ida. Keyin tasodifan kimgadir telefon qilgisi kelib alanglab, allanimani qidirib qoldi. Afsus, stolda telefon apparati faqat bitta edi. O'rnidan iring'ib turib, o'yinchoqlari qalashib yotgan jovondan nimkosaday keladigan telefoncani qidirib topdi-yu, keltirib, stolning chetiga-haqiqiy telefonning yonboshiga qo'ydi. Mana, endi ular ikkita bo'ldi. Lekin, yana bitta kerak! (Axir, dadasining ish stolida ular uchta edi-da!) So'ng, paxta gulli kosani to'ntarib, ustiga yog'och qosiqni ko'ndalang qo'yib qo'ydi. Juda soz! Mana, endi telefon apparati roppa-rosa uchta bo'ldi. Xuddi dadasining yop-yorug' ish joyidagidek...

U dadasining ishxonasida ko'rganlarini bir-bir takrorlay ketdi. Juda qiziq o'yinlar topdi. Avval, jovondan bir-ikkita katta-katta qo'g'irchoq topib, eshikning og'zida «bosh-larini osiltirib qo'ydi. Bittasini ichkari kiritib, qo'lini qulluqqa moslashtirib ko'ksiga keltirib qo'ydi. Ularni shu tartibda tikka qo'yib, yugurgilab orqaga qaytdi-da, kursiga chiqib, yana savlat to'kiib o'tirdi.

-Aytдим-ku, handman deb!-do'q urdi u eshik oldida «navbat» kutayo'tgan qo'g'irchoqlardan biriga. O'zbekchani tushunadimi bular! Nima-nima? Bu dunyoda faqat siz ishligu hosqalar bekorchimi? Yo, qudratingdan!-dedi eshik tomon qattiq tikilib. Keyin xatosini anglab «r» ni zo'r berib, to'g'ri aytishga harakat qildi.

-Bor-ring, chiqib tur-ring, chaqirganda kir-rasiz!

Qo'g'irchoqlar bo'lsa, hoshlarini solintirgancha miq etmay, bir zayl o'tirishardi. Keyin o'zidiki sapchib o'rnidan turdida, ularni eshikning orqasiga qo'yib qaytdi. So'ng otasining haqiqiy telefonini olib, chambaragini gir aylantirdi. Xuddi otasining ovozigacha taqlid qilib buyurgan bo'ldi:

-Mayli, tushlikni sizda qilamiz. Menyumi? Doimgiday qo'zi go'shtidan dimlama bo'laversin? No'q, osh keyakmas. Kanyak (bir oz tabassum bilan, tortinib) o'ziz bilasiz. Ha, ha, shotut kampoti, albatta bo'lsin! Keyin dadasi aytmagan bir-ikki gaplariniyam o'zidan qo'shib qattiq «buyurdi»-Shakalotdan ko'proq bo'lsin. Qovun ham...

U tupug'ini yutdi. Keyin go'shakni taraqlatib o'rniga qo'ydi. Xayol surganicha yana allanimalarini esladi. Ha, ha, hexosdan Bog'cha opasining bir kuni to'polinchisan deb, urishgani yodiga tushib ketdi.

O'zicha yon tomondagi tugmachani bosgan bo'ldi. So'ng eshikka qarab:

-Tez Bog'cha opamni buyoqqa chaqiring! Qaysi bo'laydi, novchasini-da!-deb buyurdi. So'ng iring'ishlab o'rindan tushdi-yu, zippillab borib, eshikning orqasida boshi egib qo'yilgan qo'g'irchoqlardan eng darozini darhol keltirib, xonaning qoq o'rtasiga to'q ettirib, tikka qo'ydi. «Essiz, sochi sariq ekan-da»-deb o'yladi. So'ng o'zini baland tutib, dumog'dorlik bilan uni «so'roqqa» tutdi. «Opa»ning oldida o'z mas'uliyatini ham unutmay «r»ni juda-juda to'g'ri aytishga harakat qildi.

-Qani, gapiring, kim to'polonchi?-dedi «Opa»ga tepadan mensimay qarab.

«Opa»dan sado chiqmadi. Jasurvoy bir ko'zi siniq qora kuzoynakni olib qo'yib, unga yana qattiqroq tikildi. Kichik kaftlarini shap ettirib, stolga quydi-da, tahdidli ovoz bilan so'radi.

-Kim to'polonchi deyapman sizga! Kim she'r yo'dolmaydi? Kim tarelkani sindiydi? A?! Hali menmi? Mana, kelarkansiz-ku bosh egib. Chiqing, Chiqing, bu yerdan deyapman. Endi bog'changizga boyibam bo'pman! Yig'lamang, nima keyagi boy?

Bog'cha «Opa»sini yig'layotgan holda tasavvur qilib, o'zining ham ko'ngli to'lib ketdi. Lekin ixtiyorini tezda qo'lga oldi. Bunday payt yig'lab bo'ladimi, axir? O'zini bosib olarkan ovozi ni biroz ko'tardi.

-Qani, chiqing! Zarif bo'lsa, ertaga kirarsiz. Asli sunaqa bo'ladi, faqat ishi tushganda bosh egib keladi bular! Chiqing, hoziroq chiqing dedim-ku!...

Jasurvoy shunaqa deb, qovoqlarini uygancha, qo'lini paxsa qilib, keskin-keskin gapirib turgan edi. Ishdan ertaroq qaytgan onasi eshikni qattiq itarib ochdi-yu, o'g'lini birdan katta odamday bo'lib qolganini, bu xil g'ayri-tabiiy qiyofaga kirganini ko'rib, hang-mang bo'lib qoldi. Onaning rangi quv o'chib, bir o'g'liga, bir xona o'rtasidagi «qo'lini» ko'kragiga qo'ygancha boshi egik turgan ko'k ko'z katta qo'g'irchoqqa alpang-jalpang tikilardi. Kutilmaganda bo'g'ziga nimadir tiqildi. Nima gap o'zi? Jasurvoy bo'lsa qo'qisdan unga:

-Qani, eshikni yoping, men bandman,-dedi vahimali ovozda. Kapalagi uchgan Ona, ikki qo'llab, yoqasini ushladi.

-Yo qudratingdan, Yo, tovba! Nima gap o'zi? U hayajon bilan o'g'li tomon intildi. -Jasurjon, senga nima bo'ldi, bolaginam?-dedi ovozi titrab.

Mitti «to'ra» bo'lsa, hamon o'sha taqlidiy ohang, o'sha jiddiy qiyofada xotirjam o'tirganicha bosiq ovozda takrorlardi.

-Eshikni yoping, men bandman!...

1981 yil, iyul.

## XIJOLAT

-Tur, To'lg'in turl-deb uyg'otdilar bobom. Salqin tushib qoldi, bolam, qo'y'laringga bir oz o't yig'aylik.

Ko'zimni yumib ochdim. Bobom o'siq qoshlarini chimirgancha teppamda kulimsirab turardilar. U kishini ko'rishim bilan kechagi qilmishimni o'ylab dovdirab, qoldim.

«Behuda bo'ldi-da shu ish»...

-Biron ering og'riyotgan emasmi? Ranging birdan oqarib ketdi?- dedilar bobom sochimni siypalab.

«Behuda bo'ldi-da shu ish?-ko'nglimdan o'tdi yana.

Kalavalanib, dudmal javob berdim.

-Mana, bu yerim,-dedim chap oyog'im tizasini paypaslab. Bobom bo'lsa, peshonamga g'adir-budir kaftlarini ancha bosib turdilar-da.

-Isitmang yo'q, hozir o'ynoqlab ketasan, bolam. Qani, oyog'igniyam bir ko'ray. Shish-pishi yo'q, yaxshi uxlamagan bo'lsang kerak-da! Qani, yur, men o't chopaman, san to'playsan. Ko'ribsanki, bir pasda bir eshak o't yig'amiz, keyin keta-amiz-boramiz.

Holsizlik bilan eshikdan chiqdim.

Bobom tig'i yiltillab turgan, naq sandalcha keladigan ketmonlarini kiftlariga tashlab, orqamdan yur, deganday ishora qildilar. Borsammi, bormasammi deb, ikkilanar, oyog'im sira tortmasdi. Dala tomon izma-iz ketarkanmiz yuragim nimanidir sezganday gurs-gurs urar, sezdirmay, orqaga burilib, juftakni rostlashim kelardi. Bobom xuddi niyatimni anglaganday orqaga o'girilib, menga g'alati ko'z tashladilar.

-Kelayapsanmi, bolam? Ko'rgandirsan, chetdagi jo'yakni rosa o't bosgan. O'ziyam naq tizzaga chiqadi. O'shani tozalaymiz, keyin keta-amiz, bo-oramiz.

«Chetdagi jo'yakni tozalaymiz?»

O'yoqlarim qiyshayib, jon-ponim chiqib ketdi. Bir zum tikka qotib qoldim. Hozir orqaga burilaman-da, urra qochaman. Mana, bobom qomatlarini tik tutib, xuddi o'zlariga -o'zlari gapirayotganday, xush bir kayfiyatda, yakka-yakka qadam tashlagancha, so'zlab borardilar.

-Erta-indin qovunlar ham pishadi, bolam. Urug'ini o'zim tanlaganman. Kallabo'ri, sherozi, ko'kcha, gulobi, qoraqand, qirmizi, Eh-he... O'rtoqlaringgayam keragicha uzib herasan. Ortiqchasini sotib, senga «uch oyoq» olib beraman. Bozorgayam birga boramiz. Keyin To'lg'inboy(men) velosipedining orqasiga mittigina aravacha taqadi-da, qo'zichoqqa o't, qovun po'choq tashiydi. Shunday emasmi, o'g'lim?

U kishi orqaga burilib hayratlanib qoldilar.

-Ha,? Qolib ketayotibsan-ku, bolam! Nima bo'ldi senga, ko'zlaring ham bunaqa? Uyqungda biror narsadan qo'rqdingmi-yo?

«Negayam shu ishni qildim? Mana endi»...



-Uyga qaytaman. -dedim bu gal qovog'imni solib, qat'iy ohangda. Oyog'im og'riyapti. Bobomning ko'zlariga birdan tashvish cho'kdi.

-Yo'g'-e, bolam! Seni yakka yuborib bo'lmaydi. Qishloqqacha ikki shaqirimdan ko'proq yo'l. Ana u Sotikalning kuchugiyam yomon. Badbax, boylab ham qoymaydi. Zormondasi faqat xotin-xalaju, bola-chaqaga akillab yuguradi. O'ziga yana bir aytay, tergamasa, taraqlatib o'tib tashlayman savilqolgurni. Yur endi, bu yog'i oz qoldi. Eshak ham o'sha yoqda, qaytishda minib kelasan.

Bobomning gaplari qulog'imga arang kiradi.

Polizga etib keldik.

-Mazang bo'lmasa, mana bu pushtaga oyog'ingni osiltirib o'tirib ol. Man bir zumda bir eshak o't chopaman. Keyin shalponquloqqa ortamizu seni mingashtiraman. Maza qilib, O'tning O'rtasida o'tirib ketaverasan. Qani mana bu joyga o'tirib ol. Bobom shunday deb, oyoqlarining uchi bilan yerdagi kesaklarni nari-beri surdilar. Ha, ha harakalla! Oyog'ingni cho'zib ol, mana shunday.

Tuprog'i mayin pushtaga o'tirib, oyog'imni joyakdagi maysalar orasiga uzatdim. Tizzamgacha ko'm-ko'k o'tlarga ko'milib ketdim. Bobom bo'lsa, o'sha oxirgi jo'yakda «ix-ix!» qilib, gursulatib ketmon ura boshladilar. Har zamon o'tlarni yig'ishtirib, ketmondastaga tap-tap urib, tuprog'dan tozalab bordilar. Ketmon gurs-gurs etib, bir tekis tusha boshlaydi. Xayolimda o'sha gap: Hali zamon sharmanda bo'lmasam edi. Har zamon jo'yak chetiga-o'zimga tanish joyiga o'g'rincha qarab-qarab qo'yaman. Hali ungacha ancha bor! Tezroq ish bitsa edi! «Lekin shu ish behuda bo'ldi». Agar shu kun sharmandam chiqmasa, bunday ishini minbad qilmayman. Gap-shu! Mobodo... Yo'g'-e! Keyin nima degan odam bo'laman bobomning qoshlarida. Shunday yaxshi, mehrihon bobomni xafa qilib qo'ysam-a! Keyin «Uch oyoq» nima bo'ladi? Olib berarmikanlar? O'roqvoy. Odil, Qo'chqor sariqlarga kelgusi hafta polizga boshlab kelib sizlarni qovunga bo'ktiraman, deb va'da ham berib qo'yanman. Buyog'i nima bo'ladi endi?...

Qishlog'imiz tomon o'girilib qaradim. Huv o'sha, barglari yalt-yult etib turgan baland-baland teraklar bizning darvoza oldida bo'y cho'zgan. Hozir o'yim ana shu teraklar tagidan loyqalanib oqadigan ariqdan suv olayotgan bo'lsalar kerak. Singlim Zarifa tuproqqa bo'lg'ani, burnini osiltirib, yig'lab o'tirgandir. Hali u qovun nimaligini bilmaydi.

Bobom ajoyib odam-da. Ko'zlari xira bo'lsayam muloyim, yoqimli. Meni hammadan yaxsi ko'radilar. «A'lo bolam, peshonasi keng buni, zo'r odam bo'ladi», -deb maqtab yuradilar. Qolaversa, mana shu polizgayam bobomdan keyingi asosiy xo'jayin ana shu akangiz, ya'ni biz bo'lamiz.

Adoqsiz paxtazorlar tugagan jo'yda, qirning etagida bir parcha yerimiz bor. Bobom uni o'z qo'llari bilan tizzagacha ag'darib,

o'zlashtirganlar. Shu yerga har yili qovun ekamiz. Qumloq, emasmi, biram bitadiki, sovuq tushganga qadar na yeb, na sotib tugatamiz. Qish bo'yi qovun yeymiz. Erta-indin g'arq pishadi. Keyin mazza. Oyim ko'ylagimni har kuni yuvadilar. Men bo'lsa, kun sayin shiraga botib, tarashaday qotirib boraveraman. Qovun ko'p yaxshi-da! Har qaysining mazasi boshqacha. Oh-oh!...

Chap tomondagi do'nglik ustida shamol gohda chaylamiz bor. Biz uni «koza» deymiz. Bobom bilan ikkovlashib tiklaganmiz. Mana og'zi qorayib turibdi. Uchi nayzaday ingichkalashib borgan. Oldida bir enlik sholcha «eshik» o'rnida osilib turibdi. Aytdim-ku, shuni bobom bilan tiklaganmiz. Bu juda oson ish. Uchta xarining «boshi» bitta qilib bog'lanadi. Bobom uni «sepoya» deydilar. So'ng chuqur qazib, «oyoqlari» yerga qadaladi. Atrofiga eski shol tortiladi-da, tegrasidan tikanmi, so'rami, yumshoq supurgi yok ajriq-mirriq xullas, xashak bo'lsa bo'ldi, qalab chiqiladi. Chim bosilsa, yana yaxshi, salqinroq bo'ladi. Kechqurunlari uning oldidagi taqir supada yotishdan rohat olamda y'o'q. Osmonga tikilasan, xuddi yulduzlar og'ushida yotganday osmonda suzib yurganday mazza qilasan. Tumlari biram salqin bo'lib ketadi-ki...

-To'lqin! Ho, To'lqin!

Bobomning tovushlaridan bir gaz sapchib tushdim. Yuragim bezovtalik bilan gurs-gurs ura boshladi. Qarasam, u kishi xuddi o'sha yerda-men o'z aybimni «ko'mib», yashirgan joyda tikka turibdilar! Hamma yerim dag'-dag' titray boshladi. Ko'zlarim tikib ketdi. Bobom qo'llarini ikki yoqqa kergancha, jimgina kulimsirab turibdilar. Changallarining birida loyga belangan qovun po'chog'i, ikkinchisida endi sarg'aya boshlagan, echkning tiliday yapaloq qovun urug'i...

Rangim quv oqarib, dong qotib qoldim. Bobom esa, hech narsa bo'maganday xira ko'zlari mendan uzmay, hamon kulimsirab turar edilar.

-To'lqin oyog'ing yaxshimi, holam? Mana, men ham bo'ldim, hozir o'tni eshakka ortamiz-da, ketaa-miz hoora-a-miz...

Hamma yerim lattaday ho'shashib ketdi. Xuddi quyoshda muzday erib, asta-sekin tuproqqa singib ketayotganday edim...

4-5-6 mart, 1982 yil.

## ULG'AYISH

(hikoya)

Kamollarning sinfi darsdan keyin paxtaga chiqdi. Muallima Salomat Bozorovnaning o'zi boshlab bordi. Qoramig'dan kelgan, xush-fe'l bu o'qituvchini butun sinf behud sevib, hurmat qiladi. U yashil durrachasini

tomog' ostidan o'tkazib, yuzini quyoshdan to'sib olgandi. Shiyponga yaqinlashganlari hamon brigadir-tiqmachoq, o'rta-ho'y, shalponquloq kishi ochiq chehra bilan ularning istiqboliga xursand chiqdi.

-Mana, keldik, Akbarjon! -dedi Salomat Bozorovna tizilib turgan o'quvcilarga ishora qilib: -Endi planingizni to'ldirmasak, qaytmaymiz. Sinfning qarori shunday, to'g'rimi bolalar?

-To'g'ri.

-To'g'ri.

Brigadir avval xursand bo'ldi. Keyin bu qochirimning tagida biron gap bo'lsa kerak deb qizarin-qiradi. Biroz hayajonlanib:

-E, malim, dedi xijolatpazlik bilan, -omon bo'lsin shu paxtayam. Sizlarniyam tinch qo'ymaydi. Bo'lmasa, hozir mana bu ukalarimning miritib o'ynab, to'p tepish payti. Noshukurlik bo'lmasin, o'zi oq bo'lsayam... Nima qilamiz endi, ko'pga kelgani-to'yda!

Salomat Bozorovna unga samimiy tikilib, tasalli berdi.

-Hech hoqisi yo'q, Akbarjon. Bu-xalqning mulki, davlatning katta boyligi. Vaqtida terilgani yxshida! Hamma ko'z tikib turibdi shunga. Mehnatdan ziyon ko'rgan odam hormi hu dunyoda. Ko'pdan quyon qocholmas dehdilar. Shunday emasmi, bolalar? To'g'rimi, Kamol?

O'quvcilar qiy-chuv bilan tasdiqlashdi.

-Shunday.

-To'g'ri.

Ko'plar Kamolga tikildi. Uning ovozi alohida ajralib chiqdi.

-Teramiz! -ko'kragini kerib, bir qadam oldinga chiqdi u. Brigadirning yuzi yorishib ketdi.

-Yashang, ukajonlarim, -dedi ovozi xi'yo'lovlanib, Kamol tarafga qarab davom etdi. -Hammalaringizga rahmat, Salomat Bozorovna boshchiliklarida manam ko'p paxta terganman. Ana, endi paxtakor bo'lib ketdik. Hali sizlardan ham zo'r traktorchilar, bilimdon agronomu obro'li raislar yetishib chiqadi. Paxta to'ylandi, birga-birga quvnashamiz, birgalashib ishlaymiz, to'y-tamoshalar qilamiz.

Brigadir shunday deb sodda, samimiy gaplarni aytib, yoshlarning g'ayratini yanayam jo'shtirib yubordi. Hammaning vujudida bir olov gurkirar, ko'zlar porlab turar, bolalar: «Qani hoshladik!» degan birgina ishoraga nihoyat mahtal edilar. Akhar aka bo'lsa, tomdan tarasha tushganday, tamoman boshqa narsani so'rab qoldi.

-Salomat Bozorovna, baribir, bu ukalarim maktahdan to'g'ri buyoqqa kelayotgan bo'lishsa kerak?

-Barakalla.

-Bo'lmasa, tezgina choy ichib olaylik. Sizlar anavi katta tolning soyasidagi brezentga davra quringlar, men hozir bu yog'ini darrov tashkil qilaman.

Brigadir shiypon tomon gurs-gurs yurib ketdi. Bolalar hovuz bo'yidagi qalin soyda davra olishdi. Shiyponchi aya bir quchoq issiq

non o'ralgan katta dasturxonni keltirib yoydi. Izma-iz kelgan brigadir ikki qo'llab bir yashik g'arq pishgan, yuvilmagan uzumni keltirib, o'rtaga qo'ydi.

-Bay-bay,-dedi u hoshini chayqab,-issiq nonga o'rah-o'rah ursangiz, uzum rosa ketadi-da. U tilini tanglayida taqillatdi.

-Q'zi shivirg'onidan bir to'ygan odam yuz kilo paxtani o'ynah-o'ynah teradi.

Salomat Bozorovna uzumga ishora qilib:

-Akbarjon, bir chelak tiniq suv kerag-da,-dedi.

-Hozir-hozir. Brigadir chaqqonlik bilan o'rnidan turdi va gursillab yurib ketdi. Choyxo'rak quvnoq o'tdi. Hamma xursand edi.

Terimga tushish oldidan brigadir muhim bir nimani eslaganday muallimaga yuzlandi.

-Salomat Bozorovna,-dedi ta'kidlab,-ukalarimga aytib qo'ying, pullarini tarozi boshidayoq olishadi. Kilosiga-hesh tiyin! Kimki yigirma kilo tersa, bir so'm olib ketaveradi.

O'qituvchi huni kutmagan ekan, birdan jiddiy tortdi.

-Nimalar deypsiz, Akbarjon? Bizlar pul ishlashga emas, yordamga kelganmiz, axir! Har yilgi gap-da...

Brigadir ham gapida turib oldi.

-Hozir zakun hoshqacha, domla. Yuqoridan shunaqa buyruq bo'lgan. Bizniyam har kuni kov-kov qilishadi. Brigadir o'quvchilarga o'g'rilib, qo'lini paxsa qilib, qat'iy gapirdi.

-Gap shu, ukalarim. Paxta pulini tarozi boshida olasiz. Yigirma kilosiga-bir so'm! Har kim u'z qo'lidin minnatdor.

Tog'risi bu gap ko'pchilikda qiziqish uyg'otdi. Kamolning g'ayrati yanada oshib, ko'zlari charaqlab ketdi. Xuddi kopdan beri yo'qotib yurgan narsasini tasodifan topganday bo'ldi. Paxta tergan kishi pul olsa-nimasi yomon? Salomat Bozorovna behuda tortishyapti deb o'ylardi u. Hammadan hurun o'zini paxta-zorga urdi. Burni yerga tekkuday bo'lib, chaqqon-chaqqon harakat qilib, ikki qo'llab tera ketdi. Tikkaga kelgan quyosh yelkani jazillatib kuydiradi, hoshing qaynah ketay deydi. Terimchi qizlar behuda oq ro'mol bog'lashmaskan,-o'ylaydi Kamol. Oq mato quyoshni qaytaradi deyдилar dadam...

Jo'yak orasidagi havo dim, nafasini bo'g'adi. Har zamon-har zamon rostanmasang, o'qchiging kelaveradi. Hazil ish emas ekan bu. Bir pasda bellaring uvisib qoladi.

Kamol ko'p o'tmay jiqqa terga botdi. Barmoqlari uchini chanoqlar tildi. Lekin u bo'shashmadi. Avval ham paxta tergan, onasiga ko'maklashib ko'p tergan. Lekin, bugun hoshqacha. Terganing tarozidan o'tadi. Joying ma'lum bo'ladi. Kimning birinchiligi bilinadi. Salomat Bozorovna doim: «Kimki yaxshi o'qisa, O'sha yaxshi ishlaydiyam» deydi. Ko'ramiz, bugun hammasi ma'lum bo'ladi. Sarvar O'qishda birinci. Qani o'zi? Voy, belim! Huv, ana, hoshi zo'rg'a ko'rinyapti. Ie, etagi to'lib qolibdi-

ku! G'ayrat qilish kerak! Yana hali uvushadi, yana tiklanadi. Anavi qaqqayib turgan Turg'un emasmi? Xuddi o'zi. Voy, ikkichi-ey, qo'lini kissaga tiqib turishini! Salomat Bozorovna haqqa o'xshaydi. Turg'un xuddi uning ko'nglidagini bilganday bu yoqqa bir qarab, keyin orqasini o'girib oldi. Tayoqday qotib turaveradi. Kamol fartukni bo'shatadi. «Bir,- deydi ichida. -Bir! Qancha kelarkina... shu? Ikki kilo chiqsa, yana to'qqiz fartuk terib bo'ladimi? Bir...»

U zavq bilan ishlar, shirin-shirin xayollar surardi. Paxtaning shunisi yaxshi. Teraverasan, o'ylayverasan. Paxtayam tugamaydi, xayollaring ham. Paxta, paxta... Xayol-xayol... Uniyam chek-qarog'i yo'q, buniyam...

Har kuni paxtaga chiqarishsa yaxshi edi, -deb o'ylardi u. Bir so'mdan ishlasang, qirq besh kunda velosiped olsa bo'ladi. Ha, olish kerak. Dadasi olib bermadi, endi o'zi olishi kerak. Dadasi undan, Kamoldan qirq besh so'mni qizg'andi. Endi o'zi ishlab olishi kerak. Olimga bir maslahat solsa nima derkin? Qani O'zi? Voy, belim. Huv ana, chaqqon-chaqqon terib yotibdi azamat. Boshini ko'tarmaydi, hech qayoqqa alanglamaydi. A'loch-da, kaptarboz. Velosiped olmoqchi emasmikan? Balki ikki somdan ishlasa ham bo'lar. Qirq kilo, unda yigirma ikki kunda...

Otasi va da qildi, faqat beshinchi sinfni bitirganda. Yozgi ta'tilda. Ungacha sal kam ikki yilcha bor. Bir kuni illovelosiped olib berasiz deb, oyoq tirab oldi. Xarxasha qilib ham ko'rdi. Dadasi avrash o'rniga keskin gapirdi.

-Gap shu! Beshinchini bitirganingda olasan. Akang- shaharda, talaba, onangning tobi yo'q. Bir o'zim ishlayman. Qirq besh so'm ham pul-da, o'g'lim. Sen yosh emassan, tushunasan. Aytchi, hambo'yinsalaringdan nechasida velosiped bor? Sanga olib bersam, jo'ralaring ham ota-onasiga g'ingillayverib bezdirmaydimi? Butun qishloq tashvishga tusmaydimi? Mana, maktab-bir qadam. Qaytib bu gapni aytib o'tirma.

-Shohida bor-ku!-dedi Kamol hurnini tortgancha ming'illab.

-Magazinchining o'g'lini aytasanmi? Xo'p, o'shaning o'qishi qalay?

...  
-Ana, ko'rdingmi? O'zing xulosa qil. Kap-katta yigitsan.

Shu gaplar yodiga tushib, Kamol tobora g'ayrat qilaveradi. Quyoshning issig'iyam unutildi, paxtazor havosigayam ko'nikdi. Peshonasidan chaqillab ter oqayotganiga parvo qilmas, nigohlari izidan qo'llari quvib, canoqdan-canoqqa, to'pdan -to'pga o'tar edi. Shu tola chanoqda uzulib, bir chigit qolishi yomon-da. Ishning endi avjiga chiqqanda bir chigit qolib, jig'inga tegadi. Shu sabab Kamol besh panjasini barobar besh chanoqqa cho'zib, bir zarb bilan paxtani sug'urib olishni o'zlashtirdi. Shunday qilsa hosil toza teriladigan bo'ldi. Lekin shaxd bilan qo'l cho'zganida momiq tola ichida ko'rinmay yotgan chanoqning ignaday o'tkir uchi tirnoqlar ostigami, barmoqlar uchigami pirt-pirt sanchiladi. Oppoq paxta hol-hol qizaradi...

«Sarvar, a lochi Sarvar qani?-o'yladi u. Uff! Voy, belim! Huv ana, yana etagi to'libdi. Salomat Bozorovna ming marta haq. Endi g'ayrat qilish kerak. Sarvardan o'tmasa bo'lmaydi. Kecha arifmetikadan «besh» oldi-ku! Sarvar «to'rt» olib yig'ildi. Demak, undan o'tsa bo'ladi. Lekin balo bu qiz. Ham chiroyli, ham chaqqon, ham gapdon...

Paxta, paxta... Xa'yol-xa'yol... Uning ham, huning ham adogi yo'q.

Qu'yosh cho'ka hoshlaganda tarozi oldi gavjumlashib qoldi. O'quvchilarning paxtasini birinchi bo'lib tortishdi. Hisobchi Subhiddin akaning bir qo'li tarozida, bir qo'lida daftar-qalam. Uzun tasmali charm sumkadan jaranglatib bolalarga yap-yangi tangalarni berayapti. Bir so'mliklarning taxi buzilmagan, hali qo'l ham tegmagan. Ulardan deyarli hechkim ololmayapti. Ana, Sarvar taroziga fartugini ildi. Subhiddin aka jilmayib bosh chayqadi. Cho't urib avalgi paxtalarini qoshdi. Bitta bir so'mlik yana necha chaqa cho'zdi. Sarvarning kulcha yuzi qizarib ketdi. Sarosimaga tushib, nima qilishini bilmay qoldi.

-Ol, qizim, ol,-dedi brigadir. -Bolalarning haqini to'g'ri beringlar deb bizlarga tayin -hartayin qilishgan. Ol.

Sarvar tortinchoqlik bilan pulni oldi. Oldi-yu, hisobchining qo'l qo'y deb, hay-haylashiga qaramay, yuzini changallagancha o'qday otilib tushib ketdi. Baribir yig'layapti, deb o'yladi Kamol. Qiziqda, bu qiz. Hech tushunib bo'lmaydi...

Birinchilikni Sarvar olibdi-yigirma besh kilo! Kamol ham yomon emas. Subhiddin aka paxtani o'lday turib:

-Malades! To'qiz kilo. Besh tiyin kam yarim so'm, Kamolvoy,- dedi.

Kamol allanechuk xayolchan tirjaydi. U uyiga juda horg'in qaytdi. Jildi o'ng elkasini uzib tushay deydi. Oyog'iga tosh osilganday zo'rg'a uzib hosadi. Shimining pochalarini oppoq chang. Kiyimlarida paxta gardi. Yana xayoli velosipedga ketadi. Shunday ishlasa, har kuni shunchadan paxta tersa, yuz kunda...

Sarvar nega bunday qildi? Ellik kun chidash mumkinmi?

Juda horgan bo'lishga qaramay Kamol bu kecha uzoq vaqtgacha uxlolmadi. Tashqaridagi pastak so'rda cho'zilib, yulduzlar chamanday sochilib yotgan tubsiz osmonga ko'zlarini tikib, xayol surib yotdi. Mehnat haqida o'yladi. Yodiga velosiped tushdi. Yuz kun... Kattagina ro'zg'orni birovdan sira kam qilmay tebratib turgan, mehnatkash dadajoni haqida ko'proq o'yladi. Xayollarining bu yog'i yaxshi tushlarga ulanib ketdi...

Bir kunda-yoq o'zi sira anglamagan holda ancha ulg'ayib qolgan edi...

1980 yil

## RASM CHIZISHNI QANDAŷ ORGANDIM?...

Men, bir amallab, rasm chizishning juda antiqa, osongina yoʻlini oʻrganib olganman. Endi huni sir saqlashning hojati yoʻq. Shuning uchun sizga ham aytсам boʻlaveradi. Koʻzimga yaxshi koʻringan suratning tagiga albomning oppoq varagʻini yoyib qoʻyaman-da, ustidan koʻchirma qogʻozni ohista yoyaman. Ana shundan keyin rasmning ustidan yoʻnilgan gugurt choʻpini yoki ignaning dum tomonini asta-sekin yurgizaman. Koʻribsizki, shakl-shamoyillar aynan oppoq qogʻozga shundoqqina koʻchadi-qoladi. Qop-qora shiqildoq koʻchirgich qogʻozni esa, uyimizda har doim topiladi. U dadamning ishxonalaridagi (yozuv mashinkasi oldida qatlab quyilgan boʻladi. Men «chizgan» rasmlarga qarab ayrim sintdoshlarim, ayniqsa ukalarimning ogʻzi ochilib qoladi. Buvim boʻlsa, sochimni silab:

-Rasmchi bolaginamdan oʻrgilay, Buni qaranglar, gijinglagan toychoqning xuddi oʻzini chizipti-ya! Hali katta boʻlsa, mani suvratimni butun boʻyi-bastim bilan chizadi,-deb maqtaydilar. Bir kuni u kishiga kattakon sigirning rasmini «chizib» koʻrsatdim. Chunda buvim yanada shodlanib ketdilar.

-Xuddi oʻzini chizibdi-ya, Toychoqimdan oʻrgilay.

Ertasi kuni qoʻzichoqning rasmini albomga oʻtkazdim-da, dadamga koʻrsatdim.

-Koʻrib qoʻying dadaboy, qoyilmisiz?

Dadam rasmga koʻzlarini qisib, uzoq tikilib qoldilar. Soʻng mugʻombirona kulib:

-Oʻ-hu, zoʻrku! Tansiqhoyev boʻlib ket-e!-dedilar.

-Rasm muallimimiz Tansiqhoyev emas, Tangrihoyev,-dedim u kishini tuzatib. Dadam dab-durustdan xoxolab kuldilar.

-Hmm... shundaymi? Tangrihoyev de...

Men dadamdan hamon maqtov kutib, bir rasmga, bir u kishiga jovdirah tikildirdim. Shunda dadam rasmdan koʻzlarini olib, menga allanechuk maʼnoli tikilib turdilar-da;

-Lekin, qoʻzichoqni albomingda bu ahvolda yolgʻiz qoldirish yaxshi emas,-dedilar keyin.-Bu kech jonivor juda ochiqib qoladi, axir. Toʻgʻrimi? Shuning uchun oldiga biron quchoq beda ham boʻlsa, durust boʻlardi.

Xayriyat, yaxshi oʻtdi. Sal boʻlmasa, tumshugimdan ilinay deb qoldim-a!

-Xoʻp,-deb uydan chiqdim. Qu yosh endi koʻtarilayotgan edi. Oʻylay-oʻylay bir xulosaga keldim. Darhol tomorqamizga oʻtib qulf urib oʻsib yotgan shudringli, barglari quyoshda yiltillab turgan bedazorga uzoq qarab turdim. Uning tanasi barglari, shox, gullarini eslab qolishga urindim. Bir tor hedani qogʻozga yopishtirib, atrofidan qalam aylantirgan vaqtim ham boʻldi. Kun boyi bir necha hor qayta-qayta chizib, qayta-qayta oʻchirdim. Nihoyat, albomdagi qoʻzichoq oldida bir bogʻ beda

rasmi paydo bo'ldi. Dadam kechqurun mening ishimga boqib, ancha vaqt indamay turdilar. Toqatim bitib, «qalay?» deb so'ramoqchi edim.

-Bir navi, dedilar ko'zingga qarab. Ishqilib, yomon emas. U kishining, ishimdan qittay bo'lsa ham, manunliklari sezilib turardi.

-Endi yana bir urinib ko'r, dedilar u kishi o'siq qoshlarini harmoqlari bilan silab-faqat qo'zichoq bedadan achiqlanganday teskari qarab o'tirmasin-da! Bo'lmasa, och qoladi, jonivor. Tushundingmi? Bedaga bo'y cho'zib turgan holatini bir chizib ko'r-chi. Ko'zichog'ingga o't tashlasang dikirlab keladi, quvnaib bo'yinini cho'zadi. Ana shularga diqqat qil.

Shu kundan hoshlab bogloqli qo'ziga tez-tez o't o'rib tashlab, uning kurtillatib yeyishini uzoq kuzatadigan bo'ldim. Uning har bir harakatiga diqqat bilan qarab, so'ng ko'zimni yumib, ko'rganlarimni miyamda qayta tiklashga urindim. So'ng qo'zichoq oldida uzoq o'tirib, o'tga bo'y cho'zayotgan holatini yerga qayta-qayta chizib o'tiraverdim. Xullas, butun kun qo'ziga tikillish, tuproqqa rasm chizish bilan o'tdi.

Oradan ikki haftacha o'tganda alhomda bu holatni aks ettirdim. Lekin, qo'zichoq ko'proq katta qo'yga o'xshab ketdi. Oyoqlari ham itnikidek hakajak edi. Ishim haror olmagach, shu kunlari dadamning ko'zlariga ham ko'rinmaslikka harakat qildim. U kishi ham menga atayin indamay qo'ygan edilar. Bu indamaslikning uzoqroq cho'zilisini, rasm puxtarok chiqishini istardim.

-Rasmni ko'rsatmading ham, dedilar dadam bir kuni kutilmaganda, ovqat mahali, -Olib kel-chi!

Rezinka bilan o'chiraverib, xilvirah qolgan qog'ozda shakli bo'yali ketgan rasmni ikkilanib olib keldim. Dadam ishimga juda jiddiy tikilib qoldilar. Rasmdan ko'z uzmay turib:

-Yaxshi-yaxshi. Mana bu boshqa gap, dedilar hech kutilmaganda. «Nimasi yaxshi huning?»-derdim. Ko'chirma qog'oz bilan alhomga o'tkazganlarim bundan ming marta chiroyli edi-ku! Yaxshi emish al! Balki, ko'nglimni kotarish uchun shunday deyayotgan bo'lsalar kerak.

-Ko'zi bedadan to'ygandan keyin suv ham ishadi-da, shundaymi?-dedilar dadam menga yangi ish topib. Bu gal ko'zining suv to'la paqirga intilayotgan holatini chizib ko'r. Oldida hiroz nushxurt beda ham bo'lsin. Bu ish oson bo'ldi deysizmi! Qo'zini o'tga to'yg'izib har kuni oldiga suv qo'yaman yugurib orqaga qaytib, uning chelakka intilishini kuzataman. Suvga tumshug'ini tiqqan zahoti yana chopib horib chelakni oldidan olaman-da, beriroqqa keltirib qo'yaman. Yana o'zimni orqaga olib, uning suvga intilishini kuzataman. Bu hol ha deb takrorlanavergach, jonidan hezor bo'lgan qo'zichoq, suvga intilishdan oldin meni hamla qilib quvadigan bo'ldi.

Aytib qo'yay, bu payt qo'lim qo'zining rasmini chizishga hemalol yopishadigan bo'lib qolgan edi. Lekin, uning bo'yinini sho'zgancha suvga shoshilinch intilayotganini aks ettirish ko'p muskul kechdi. Bu holatni



yuz martalab tuproqqa cho'p bilan chizib, kaftim bilan o'chirardim. Suv to'la chelakni qayta-qayta nari-beriga qo'yib, uning o'ynoqlab borishini tomosha qilardim. Ko'pincha ko'zimni yumib, bularning hammasini tasavvurimda qayta-qayta tiklashga urinardim. Baribir, shundoqqina ko'z oldimda turgan narsalarni oq qog'ozga tushirish juda-juda qiyin edi. Men ham, hech erinmay, qayta-qayta chizib o'chiraverardim. Nihoyat, suratga sinchiklab qaragan kishi rasmning ma'nisini, mening niyatimni, oz bo'lsada tushunadigan bo'ldi. Qo'zining boshi bu marta ancha noo'xshov chiqdi. Chekada bir uyum nishxurd beda. Qo'zi bo'lsa, suvga to'la chelak tomon intilayapti. Bir oyog'i yerdan uzilgan. Dadam rasmga uzoq tikilib turdilar. Bu gal sochimni silab kaftimga qoqib qo'yidilar-da:

-Gap bu-da, o'rtoq rassom-dedilar xursandlik bilan. Ancha durust bo'libdi. Lekin, beda eb, suvdan to'ygan qo'zi o'ynoqlab, tomorqaning polizini payxon qilib qo'yishi ham mumkin-da! To'g'rimi? Endi uning bo'yni-da ipi ham bo'lsin, ayvonning tagidagi qoziqqa bog'loqli tursin. Ana shu holatniyam chizishga bir urin-ib, ko'r-chi.

Bu rasmni chizish uchun men oydan koproq urindim. Har qalay, shu tasvir oq qog'ozda o'z aksini topganday bo'ldi. Ishimni o'qituvchim ham ko'rib, xursand bo'ldilar. Bolalarga uni namuna qilib ko'rsatdilar.

-Ana shunday mashq qilaversa Tolibjon katta rassom bo'lib ketadi, ishlari jurnallarda bosiladi,-deb maqtadilar.

Men hozir bermalol rasm chizadigan bo'lganman.

dekabr 1981 yil.

## G'ALABA KUNI

G'alaba kuni edi.

Urush qatnashchilarini tuman markaziga yig'ishdi. Ko'pchiligi nogiron, majruh bo'lgan odamlar, to'p-to'p bo'lib, ko'kraklariga nishonlari sig'may, faxr bilan sayr qilib yuribdi. Hamma yoqdan nishonlarning jiring-jiring ovozi eshitilib turardi. Keyin ularga kazo-kazolar, o'quvchi-yoshlar qo'shilib urush, qurbonlar xotirasiga tiklangan haykal poyiga gulchambarlar qo'yildi. Oxirida sobiq quraldoshlar xiyobonning bir chekkasida uzun tizilgan stollarga taklif qilinadilar. Deyarli hammaga sovg'a-salom ulashildi. Harqalay, dasturxon serobgina edi. Osh tortildi. Aftidan, uyer-bu yerga aroq ham qoyildi.

Qo'shiq, o'yin-kulgi bo'lib turgan edi.

Birdan!...

Birdan, chekkaroq bir stol yonida g'ala-g'ovur bo'lib ketdi. Kalta

soqolli chol dadil o'rnidan turdi. Uzun hassasini ko'kragiga tirab, osmonga qarab «o'q» uzdi.

-Paq!-paq!!!

Uning yonida o'tirgan bir mushtdakkina kekxa boshini changallab, g'ujanak bo'lib oldi.

-Boshlandi-dedi kimdir. -Vos-vos bo'lgan bu. Samolyotdan qo'rqadi. Nimagayam olib kelishibdi?

-Ichirmaslik kerak edi.

-Qo'ying, gapirib olsin, -dedi kimdir beparvolik bilan, tinchiydi.

\* \* \*

Osmonga qarab «o'q uzgan» nogiron jangchi qo'ltiq hassasini yonboshiga suwab qo'ydi. U ro'parasida o'tirgan, ancha toza kiyingan, soch-soqolli kirtishlab olingan ko'zoynakli bir kishiga qattiq tikilib qoldi. Ko'zlari to'la dahshat.

-Hoy, nemis!-dedi u ko'zoynakli kishiga yomon qarab. U bechora bo'lsa, ko'ngli buzilib, bir ahvolga tushdi. Boshqa tomonga qiyshayib, ma'yus tikilib qoldi.

-Hoy nemis!-takrorladi nogiron, -Qo'lingni ko'tarma. Ana, men ham miltiqni tashladim. -U hassasini itqitib yubordi. -Ko'rdingmi, qani, kel endi quchoqlashamiz. Men seni kechirdim. Mendan o'tgan bo'lsa, sen ham kechir jo'ra. Yodingdami, o'shandayam seni urmagan edim. Okopda menga go'sht bilan non herding. O'zi hu urush degani qiziq bo'ldi. Avval sen bostirib kelding, keyin men.

-Davrada gap oralab qoldi. Aytishlaricha haligi odam urushga o'n olti yoshida, ko'nglli bo'lib ketgan ekan. U gapidan sira to'xtamasdi.

Lekin yomon bo'ldi, sharmandalik bo'ldi. O'zi nima uchun kelgan edinglar bu yoqlarga? Aytmoqchi, o'zimiz nima uchun borgan edik? Sening ham, mening ham yerim emas edi bu joylar. Eh, Vatan bepoyon!

Qo'y nima bo'lsa bo'ldi, qo'lingni ber, nemis ogayni. Lekin yurtning ohod ekan, jo'ra. Tavba-ku, goh shayton yo'ldan ozdirib, xayriyat deymen, shu urush bahona ne-ne yurtu, manzillarni ko'rdik. Maskavdan-Berlingacha! O'shandan keyin uydan chiqolmadim, jo'ra. Mana, bir qadam Toshkentniyam ko'rganimcha yo'q. Metrosi bor deydi.

Sobiq jangchi bu yerda uzoq nutq so'zlagani yo'q, albatta. Uning armonlari ko'p edi. Okopda tasodifan uchratgan nemis jangchisiga xayolan aytadigan gaplari ko'p edi:

Eh, nimasini so'raysan, faqat kalxo'zda ishladim. Lekin, rosa ter to'kdim-da, jo'ra! Mana, pastki qatordagi yettita nishonni keyingi ellik yil ishlaganim uchun berdi. Kalxo'z nima deysanmi? Buyam bir front, jo'ra. Ha, jangovor mehnat qildik. Paxta dalasi frontdan hech qolishmaydi. Men o'shandan buyon ham hozir jangdan chiqqanim yo'q, og'ayni. Paxtazorni jang maydonidan farqi shuki, o'ylab o'lmayсан, bo'lib

bo'lmaysan. Urushda-ku, uch mahal issiq ovqat yeb» yuzta-yuzta» otib yurardik. Bu yerda o'shayam yo'q. Kecha-kunduz betinim ketmon chopasan, dalada yeb, dalada yotasan. Shu yerda kasal bo'lasan, sal narida ko'mishadi. Xuddi jangdagiday. Shuning uchun uni «jangovor mehnat» deydi, «paxta fronti» deydi. Men hali jangdan chiqqanim yo'q, nemis jo'ra. Lekin, sening yurtning ko'p obod ekan-da... Nogiron chol turmushidan ko'p nolimaydi.

-Men hali kesaki uyda yashayman, shukur, bola-chaqa bir etak, jo'ra. O'shalarni deb, tishni-tishga qo'yadi-da odam. O'shalarni deb, do'zzax azoblariga ham chidaysan.

Nemis bo'lsang ham seni yaxshi ko'rib qolganman, jo'ra. O'sha kun non-tuzingni yedim, go'shtdan to'ydim. Tushimga ko'p kiradi og'ayni.

\*\*\*

Voqea bunday bo'lgandi:

Qahraton qish. Osmondan ham, yerdan ham gumburlab o'q yog'lladi. O'zbek jangchisi pisib yotgan xandaqqa ko'zlari dahshatga to'la bir nemis o'zini guppa otdi. Oltivoy otmoqchi bo'lib, miltig'ini shayladi. Nemisning qo'lida qurol yo'q edi. Bechora nemis, Oltivoyning bo'yniga osilib, bag riga bosib, ha deb yig'ladi. Ko'zlari to'la iltijo, miltiqni ko'rsatib, otma-otma deydi. Juda kichik bolasi borligini bir amallab tushuntirdi. Barmog'ini kindigi ustida likkillatib uni o'g'il bola ekanligini, juda sog'inganligini tushuntiradi. O'zbekchadan boshqasiga tishi o'tmasada Oltivoy uni tushunadi. O'qlar tinib, hamma yoq tinchib qoldi. Nemis xaltasini ochib, juda mazzali laxm go'sht chiqardi. Oltivoy spirt qo'ydi. Shu payt pastlab, vangillab samolyot o'tdi. Shundoqqina yonginalarida bomba pertladi. Ular qoratalash qora tuproqqa ko'milib qolishdi. Shu qolganча qolib ketganlar ham kam emas.

\*\*\*

-Aniq ko'rdim o'zimizning samolyot edi,-deb eslaydi nogiron jangchi osmonga hassasini tiklab. Shukur qil, tirik ekansan, kiyimlaring ham tuzuk. Menga qara, nima uchun nishonlaring yo'q? yo sizlarga bermadimi? Mana ana shu kastumni yigirma yildan buyon kiyaman, jo'ra. Rais mukofotga bergan. Hamma nishonlarimni qadab qo'rganman, unga ko'rdingmi, yigirma yettita! Shu yerdan borib uni dokaga o'rab, bo'xhaga solaman. Qishloqdagi to'ylarigayam kiyib chiqaman. Yurganda jiring-jiring qilishidan huzur topaman. Bolalar atrofimni o'rab tomosha qiladi. Zumrashalar, urushni bilmaydi-da, masxara qiladiganiam ko'p. Mayli, bari-bir, taqib yuraveraman. Lekin, o'sha samolyot o'zimizniki edi. Stalin bunday buyurmagan, o'zimizniki o'ldir, demagan. Bo'lmasa,

onasini ko'rsatadi. Shukur qil, sog' ekansan. Nimaga yuzingni burasan? Qo'y-a, qizil askar ham yig'laydimi? Seni kechirdim, dedim-ku! O'sha samolyot... Qancha tirik odam bor edi-ya! Hamma o'lgandir. Mana, men bilan sen tirik ekanmiz, lekin go'shtdan bir mazza qildim-da, nemis jo'ra. Bizning spirt ham zo'r narsa, edi. Yashasin, Stalin! «Katyusha»ni o'qiyimizmi? Bilasan. Kim bilmaydi, uni? Qani, boshladik, ras, dva!...

\*\*\*

Hikoya tamom. Ozgina to'qidim, xolos. O'sha kuni Olti aka degan bir nogiron odam shunday holga tushdi. Tugmasi solinmagan, nimdosh kostyumining nishonlar to'la tomoni bir tomonga osilib turar, xayolini yig'ishtirib ololmas edi. Uning alamzada ko'zlaridan, g'oldiragan ovozidan bularni o'qib oldim. Bechora, keyin o'ksib-o'ksib yig'ladi. Stakandagi mo'lgina aroqni bir qultum qilib yutdida, boshini stolga chalmashtirib qo'yilgan bilaklari ustiga qo'ydi. Uning nogiron o'ng oyog'i stol tagida, yerga tegar-tegmas salanglab turardi. Shunaqa bo'ldi!

«Buning nimasi GALABA?» deyman g'oliblarga ma'yus qarab.

9 may, 1992 yil.

## MIRSHABLIK SINOVI

(Hikoyat.)

Qadimda podshohlik xizmatiga kirish, ayniqsa, mirshablik martabasini olish nihoyatda mushkul ish ekan. O'sha paytlarda bu ishga xoxish bildirib kelgan kishilar turli sinovlardan o'tkazilib, so'ng ular maxsus kiyim-bosh, qurol-aslaha, bir xillarga ot-ulov berilar ekan. Bir kuni Mirshabboshi huzuriga juda baquvvat, qat-qomati kelishgan, bo'ydor bir yigit kirib ish so'rabdi. Uni sinab ko'rish uchun shaxsan Mirshabboshining o'zi bozorga boshlab chiqibdi. Qishloqdan kelgan, ushoqqina bir cholni ko'rsatib, Mirshabboshi g'azab bilan debdi.

-Hayda uni?

-Bu juldurvoqi shaharda nima qiladi? Hozir bozorga mulozimlar kelishadi.

Bo'lajak noib dovdirab qolibdi. Boshliqqa iltijo bilan qaragan ekan, u buyruqni takrorlabdi:

-Tep dedim!

-Yigitning yuragi ezilib, cholni andisha bilan sekingina turtib qo'yibdi. Mirshabboshi bundan qanoat hosil qilmay, uni yana odamlar orasiga boshlabdi. Bozorda bir bola garangsib yurgan ekan.

-Ur, bu bitliqini!-debdi Mirshabboshi qo'lini bigiz qilib, nari ketsin.

Hali zamon bu yo'ldan Qozikalon o'tadilar.

Bo'lajak Mirshab, garchi o'zi istamasa-da, sal dadil tortib, vazifani bajaribdi. Mirshabboshi yana undagi jur'atsizlikdan qanoat hosil qilmabdi. U yig'lab turgan bir qizchani ko'rsatibdi.

-Yo'qot bu isliqini. Hali zamon bu yerdan mufti o'tadilar. Bo'lajak Mirshab endi dadillanib, qizchani ayamay, qo'lidan ko'tarib, chetga otibdi.

Shuzayl ular ancha paytgacha bozor aylanishibdi. Mirshabboshi «Buni tep!» «Buni turt!», «Buni sur!» deb buyruq beraveribdi. Bo'lajak Mirshab esa shu kundayoq hamma buyruqlarini so'zsiz, sadosiz, a'lo darajada, bajaradigan bo'libdi. U endi sira tortinmas, yana nima qilay deb, ko'zlari yonib, boshliqdan vazifa kutarkan.

Ular bozorning bir chekkasida dildirab turgan tarashafurush bir cho'lga yaqinlashibdilar.

-Tep!-debdi Mirshabboshi yana zarda bilan. Hali zamon bu yerdan Devonbegi o'tadilar. Qara bozorni iflos qilib o'tiribdi. Yo'q qil. Ittifoqo bo'lajak Mirshabni titroq bosib, rangi oqaribdi. U yerga tikilib, peshonasidan ter urib chiqibdi.

-Tep deyapman senga!-darg'azab bo'libdi Mirshabboshi. Nima, karmisan. Buyruqni, darhol bajarmasang, qanaqa Mirshab bo'lasan?

Bo'lajak Mirshab boshini ko'tarolmay, titroq ovozda debdi:

-Bu kishi... dadam bo'ladilar.

-Tep,-dedim!-debdi Mirshabboshi g'azab bilan. Dada-padangni bilmayman. Bizda tartib shunaqa. Qani, bajar! Bo'lajak Mirshab otasini tepish uchun oldingga ikki qadam tashlagan ekan., Mirshabboshi uni to'xtatibdi.

-To'xta! Bo'ldi! Sinovdan yaxshi o'tding. Yur endi, senga qamchi bilan qilich beraman...

Kim biladi deysiz, bu hikoyat balki yolg'ondir. Lekin, uni o'zimdanda to'qiganim yo'q, kimdandir eshitganman...

Ot mingan otasini tanimas degan maqol o'sha voqeadan so'ng paydo bo'lgan deyishadi. Qolaversa, bu hozirgi Mirshablarga tariqcha daxldor emas...

22 noyabr 1999 yil.



## G U L G U N A

Gulgunani bizning qishloqda birov «rekyetchik» desa, boshqasi «boksyor» deydi. U bo'lsa, o'zini «Yangi o'zbekman» dermish. Bo'lsa, bordir. Lekin, bularning hammasi ko'z ko'rib, quloq eshitmagan gaplar. Ayniqsa, qiz bola sha'niga...

Qad-qomati kelishgan, qora ko'z, bodomqovoq bu qiz ismi jismiga

monand darajada juda jozibali bo'lib, ko'pincha sport kiyimida, qomati tirsillab yuradi. Kalta kesilgan, tillarang sochlari yelkasida silkinib-silkinib boradi. Lekin, «Yangi o'zbek» likka shular kifoyamikin? Qolaversa, «Yangi o'zbek»likning bundan boshqa yana qanday nishonalari bor, o'zi? U oddiygina qishloq qizi bo'lsa...

Taqdirni ko'ring, bizning qishloq Buyuk Ipak yo'li ustida joylashgan. Yurtimizni Qo'qoz tomonlar bilan bog'lovchi yagona avtoyo'l naq ana shu qishloq kaftidan o'tadi. Mabodo shu katta yo'l orqali biron gal u yoq-bu yoqqa o'tgan bo'lsangiz, ko'zingiz «Mulla Hikmat» degan yozuvga ham, bu yerdagi ixchamgina bekatu kunalgaga ham tushgan bo'lishi kerak. Balki, xayol surib, etiborsiz o'tib ketgan bo'lishingiz ham ehtimoldan xoli emas. Lekin, oqshomlar bu joy judayam gavjum bo'lib ketadi-da! Har xil mashinalar qatorlashib, tizilib qoladi. Ular orasida hatto chet ellarning poezd vagoni kabi uzun-uzun yuk mashinalari ham bo'ladi. Sokin kechalarda bu yerdan ko'tariladigan turfa xil sershovqin musiqalarga ko'nikib ham ketganmiz. Aytmoqchi, bu musiqalar barra kabobning yoqimli hidi bilan qo'shilib butun qishloq bo'ylab taraladi. Tabiiyki, bu yerda vaqt, bevaqt ichkilibozlik, hamma yoq jimib qolganda, qimorbozliklar ham bo'lib turadi. Xullas, bu yemakxona (balki ermakxona) tun bo'yi ochiqbo'ladi.

Qishloq ahli orasida esa qo'nalg'a haqida ham, Gulguna qiz haqida ham har xil gap-so'zlar yuradi. Odamlar keyingi paytlarda bu yerda tez-tez bo'lib turadigan, mushtlashuv, qiy-chuvlarni eshitaverib, axir-oqibat e'tibor ham qilmay qo'ydilar. O'sha tomondan biron dod-faryod eshitilsa, ayollar kulib, «Gulguna kimnidir»iya! «qildi-da» deb qo'yishadi. Ayrim payt bu qiz ko'zi qishloq ko'chalarida qovoqlari ko'kargan ahvolda ham ko'rinib qoladi. Harchand upa-elik bosmasin, haribir, bilinadi. Umuman bu janjallarni asosan Gulgunaning o'zi bosdi-bosdi qilib yuradi. Hamma joyda kerakli tanishlari bor.

Biz «ko'nalga» degan joy aslida oshxonaga mo'ljallab qurilgan. Hozir oshxonami, qovoqxonami, gazakxonami yoki boshqa biron balomibadtarmi- bilib bo'lmaydi. Qolaversa hammasidan jinjay-jinday bor. Ish qilib, ichgulik ham topiladi, yegulik ham. Chekkilik va «tort» gulik ham. Chekkadagi bir xonada shu yerda xizmat qiladiganlarning yotib-turishi uchun sharoit ham qilingan. Tartib-intizom bilan shug'ullanadigan e'tiborli mahkamaning bu yoqlarga mutasaddi qilib tayinlangan, shapkasini yarimta qo'yib yuradigan olifta, navqiron noziri ham tungi ovqatni ko'pincha shu yerda qiladi. Hozir bunday ishlar katta yo'l yoqasidagi hamma qishloqlarda, saharlarda esa har qadamda uchrab turibdi. Afsuski, odamlar tobora bu ishlarga befarq bo'lib borayaptilar

Och qulog'im, tinch qulog'im...

Qishlog'imizda mulla Hikmat ismli ilmi kishi o'tgan edilar. Gulgunaxon ana shu muborak odamning nevarasi bo'ladi. U bobosini tirikligida mutlaqo ko'rmagan ham. Rahmatli mulla Hikmat bandalikni

bajo qilganlarida qizcha hali dunyoga kelmagandi. Tangri yoriqagur mulla Hikmat esa, Gulguna singari «yangi o'zbek» bo'lib ketgan ayrim yoshlar aqli bovar qilmas darajada sofdil va xudojo'y bir odam edilar. Chiroyli mosh-guruch soqollari o'zlariga yarashib, mudom top-toza kiyinib, qo'ltiqlariga muqovasi titilib ketgan kitoblarni avaylab qistirgancha, juda sipoyurar edilar. Ulamoliklari bois, elliginchi yillarda «o'tirib» ham chiqdilar. Rahmatli, qamalishdan oldin uydagi jamiki kitoblarni qalin matolarga o'rab chirmab bir tepalikka ko'mib ketgan ekanlar. Dehqonlar ekish mavsumida tuproq ko'tarib, yer tekislash payti, uni topib olishdi. Mulla boboning qarindoshlari bundan xabardor bo'lsalar ham o'zlarini bilmaganga solib, jimgina yuraverdilar. O'sha kuni har kim kitoblardan bir qo'ltiq-bir qo'ltiq ko'tarib, uy-uyiga tarqaldi. Keyinchalik birov o'ziga tegishlisini arzon-garovga sotib yuborgan bo'lsa, kimdir asrab qo'ydi. Mulla bobo qamoqdan qaytgach, qo'rqib, bu haqda birovga lom-mim demadilar. Lekin, bir kun juda qorong'u tunda, tekislangan tepachani mo'ljalga olib, uzoq vaqt xayol surib, yum-yum yig'lab o'tirganlarini Tilak suvci ko'rgan ekan. Suvchi mushtiga asta yo'talib, asta yaqinlashsa, mulla bobo bir narsalarni bahona qilib, o'rnidan xomush turib ketgan ekanlar.

Keyinchalik bilsam, Mulla Hikmat bir olim odam bo'lganlar. Chunki, bizning Shaxri Islom mavzesida u kishining oldiga tushadigan savodxon odam bo'lmagan ekan. Buni katta yoshdagi barcha kishilar hamon e'tirof etishadi. Mullaning taqdirlari ham qiziq. Buxoroga qizil qo'shinlar bostirib kirgan, hayoti baroy bilan bog'liq mulozim va ulamolarga qarshi yalpi zug'um boshlangan yillarda u kishi biz tomonlarga qochib kelgan ekanlar. Davr taqozosi bilan bir necha yil yashash joylarini tez-tez o'zgartirib yurganlar. Keyinchalik zamin tinchigach shu yerda muqim turib qolganlar. Faqat o'zlariga yaqin, ishonchli kishilargagina madrasada mudarris bo'lganliklarini sirli qilib aytgan ekanlar.

Yodimda qolgan, urushdan keyingi og'ir yillarda Mulla boboni odamlar galma-gal uylariga taklif qilib, kitobxonliklar bo'lardi. Dadam rahmatli, meni ham qolimdan yetaklab, shu davralarga boslab borardilar. Shu o'tirishlarda «kitobxonlikni asli Mulla Hikmatga chiqargan o'zi» degan gaplarni ko'p eshitganman. Yoshlik ekanmi, bu o'tirishlar qiziq bo'lardi. Ko'pincha, ochiq havoda, top-toza ko'rpachalar yozilib, top-toza dasturxonlar solinardi. Yoshlar qulluq qilib, keksalar bo'lsa, hurmat bilan Mulla boboni to'rga o'tkazishardi. Mulla bobo istagan kitobni ochib, to'g'ri kelgan betidan, ko'z qiri tushsa bo'ldi, yoddan qiroat qilib ketaverardi. Shunda hammamiz, butun olamni unutib, kitob sehriga tushib qolardik. Mullaning boshlari bir tekis tebranib turar, shirali ovozlari goh ko'tarilib, goh pasayar, tovushlari har xil ohanglarga liq to'la, juda tabiiy va samimiy edi. Mulla bobo sabab, men ham Yassaviy hikmatlari, Mashrab g'azallaridan, turli-tuman doston va hikmatlardan juda erta bahramand bo'lganman. U kishi Qur'oni Karim va boshqa tariqat

kítoqlarini shunaqayam ta'sirli o'qib, mag'zini chaqib, odamlarni lol qoldirar ediki, bunday paytlarda yig'lamagan odam qolmasdi.

Ana shunaqa. Rahmatli oltmishinchi yillarda olamdan o'tib ketdilar. Gulguna dunyoga kelganda Mulla Hikmatning qabristondagi do'ppidagi bo'lib turgan tuproqlari ham tep-tekis bo'lib ketgan edi...

Yana qiziq zamonlar bo'ldi. Hatto it egasini tanimagan kunlarni ham boshdan kechirdik. Keyin bozor iqtisodiyoti davri boshlandi. Bir xil oilalarda erlar qolib, ayollar ko'chaga chiqishdi. Tijorat asosan ularning qo'liga o'tdi. Bizning Gulguna ham «bizneschi» bo'lib bizning qishloqni Mashxadu Istanbul bilan bog'lab yurdi. Bora-bora, savdosi bororidan kelib, ish bilan ko'milib qoldi chog'i qizgina er qilishni ham unitib qo'ydi.

Dugonalaridan biri:

-Gulguna oila ko'rmay o'taverasanmi? Yoshing o'tayapti, axir. Jon er, jon olov degan ekan bittasi, -desa u. Er, bola-chaqa, oila haqida ham o'ylash kerak.

-Men avval o'zim haqimda o'ylab olay. Sizlardan farqim ham ana shunda, -deb javob qilibdi.

Keyinchalik Gulguna qiz soya-salqinda, ko'rkam bir imorat tiklab, uni mulla bobosining nomi bilan atay boshladi. Tunlari ko'k, qizil chiroqlar har gal yonib-o'chganda «Mulla Hikmat-Mulla Hikmat» degan yozuv lop-lop etib, uzoq-uzoqlardan ko'zga yaqqol tashlanadigan bo'ldi. Yoqorida aytganimizdek, bu yerda turli mashinalar tizilib turadigan bo'ldi. Voy, Gulguna-ey! Bugun o'zini «yangi o'zbek» deb atovchi qishloqi qiz yo'l bo'yini ana shu tartibda «obod» qilib turibdi. Yashirmaslik kerak, Gulgunaning yo'rig'i bilan balki, to'qlikka sho'xlik qilib, bir xil suyuq oyoq qiz-juvonlar «Mulla Hikmat» qo'nalg'asiga kelib ketadigan, hatto yotib qoladigan ham bo'lishgan. Anavi shapkasini yarimta qo'yib yuradigan olifta noib ham bu yerga behuda tanda qo'ygan emasda.

Gulguna bo'lsa, hamon gulday ochilib, osmonlarda uchib yuribdi. Maskur «oromgoh»ni u bobosining shundoq ham sof nomini yanada ulug'lash niyatida ochgan bo'lsa ajab emas. Bir kun kelib, xuddi ana shu joyda «Mulla Hikmat» qo'nalg'asida mudarris boboning uyg'oq ruhi tun bo'yi chiqqirab chiqayotganini tushunib ham yetar. Ammo «Yangi o'zbek»lar buni qalban mulohaza qila oladigan kunlar qachon keladi, o'zi? Bu hozircha bizga ham qorong'u...

1999 yil oktyabr.





## **MENING YOLGONLARIM**

Ayrim suhbatlarda, uchrasuvlarda mendan «Yolg'on ham gapirganmisiz?» deb so'rashadi.

-Judayam ko'p gapirganman, -deb yashirib o'tirmay javob qilaman, men.

Savol berganlar buni kutishmagan shekilli, taajjublanishadi.

-Nahotki?

-Ha, mana, ilgari har kuni yoki kunaro tongotar yig'ilishlar bo'lardi. Borolmay qolganimda sal betob edim deb, bahona qilganman. Aslida buni «yolg'on» demasayam bo'ladi. Chunki, har bir odamni aslida» sal nosog» desayam bo'laveradi. Otday sog'lom kim ham bor? Lekin, majlisga borolmaydigan darajada kasal ham emasman...

Qolaversa, o'sha yig'inga qatnashganimdan birov naf kormaganidek, qatnashmaganimdan hech kim ziyon ham ko'rgan emas. Endi xulosani o'zingiz chiqaravering...

To'g'risi, hozir ham yolg'on gapirib turishga to'g'ri keladi. Ishdan qaytishim bilan nevaram Nilufar chopib chiqib, tizzalarimdan quchoqlaydi.

-Shirin saqich keltirdingizmi, bobojon?...

Boboning esidan chiqqan, lekin bahona bor.

-Yo'q, qizim, saqichfurush opa hali paxtadan qaytmabdi...

Xosh, bu so'z rostmi-yolg'on?...

Paxta deb, do'konlarning yopib qo'yilgani rost-ku! Lekin saqich topsa bo'ladi. Men esa, yolg'on gapirib turipman. Endi xotin oladi.

-Yana go'sht keltirmabsiz-ku?

-O'zimizning do'konga qaradim, go'shti ta'bimga o'tirmadi.

To'g'risini aytib g'alva chiqargandan bu yaxshi emasmi?...

Ana shunaqa yolg'onlar...

Har qalay saqich keltirish kerak edi...

---

## **JAVOBSIZ QOLGAN SAVOL**

Bir kuni idoraga Baxtiyor kirib keldi. Odatdagidan o'ychan, tushkun bir kayfiyatda edi. U menga ukaday bo'lib ketgan, o'sha paytlar tuman «Matlubotsavdo» korxonasida ishlar edi. Salom-alikdan so'ng muhim bir gap aytmoqchiday yuzimga parisonxotirlik bilan qadalib turdi. Aytmoqchi, u turk millatiga mansub bo'lib, shu kunlarda Farg'ona, Bo'ka tomonlarda allaqanday nizolar chiqib turgan kunlar edi.

-Ha, Baxtiyor?-dedim mendan ko'z olmay turganini his qilib,

-Mulohaza qila-qila Sizdan bir gapni so'rashga keldim, aka,- dedi u mendan ko'm-ko'k ko'zlarini sira uzmay.

-Marhamat, uka.

-A-ka,-dedi u juda chuqur so'lish olarkan, juda bosiqlik bilan,- Men-ku shu yerda Jondorda tug'ilib o'sganman. Kattalarni gapidayam jon bor. Shu sho'ro siyosati qursin, oliy ma'lumotim bo'la turib o'z tilimniyam, xalqim tarixiniyam deyarli bilmayman-da. Hatto, sen o'zbek emassan, desalar qonim qaynab ketadi-ya! Shunda o'zimni haqoratlangan hisoblayman.

Uning gapini bo'ldim.

-Hali, biron kishi sizga shu gapni aytdimi?

-Yo'q,-dedi Baxtiyor qat'iy, Meni boshqa bir gap qiynaydi. Mana, biznikilar yana Kavkaz tomonlarga ko'chib ketayapti. Taqdirimiz nima bo'ladi-bilmayman. Endi ota-onamni bu niyatdan qaytarish qiyin. Ular sho'ro siyosatiga umuman ishonmaydi. Mening esa bu yerlardan umuman ketgim yo'q. Hovli-joy allaqachon sotuvga qo'yilgan. Lekin, savolim bu emas...

-Xo'sh, uka-dedim unga savol nazari bilan qarab,-nima gap?

-Meni bir narsa qiynaydi,-dedi u yana mulohaza yiritib.-Bilaman, o'zbeklar juda odamdo'st. Mana o'ris, totor, koreyslar o'z uyiday yurishibdi. Hatto lo'lilar ham muqim qolishdi. Nega endi biznikilar bunaqa qilishyapti-a? Shuni o'ylab-o'ylab, bir yoqqa chiqolmadim. Siz nima deysiz deb, oldingizga keldim...

Savol juda qaltis va nozik edi. Javob uchun vaqt ham ziq. Beixtiyor o'ygatdim.

-Baxtiyor uka!-dedim nihoyat o'zimni og'ir yuk tagida qolganday his etib, shu savolni hech uydagilarga berib ko'rganmisiz? Balki, ular to'g'riroq javob berisar...

Baxtiyor shiftga tikilganча jim qoldi. Yonimda bir pas o'tirib, qanday u o'ychan holda kirib kelgan bo'lsa, shunday xayrlashib chiqib ketdi.

Men ularni butunlay ketib qoladi deb o'ylamagan edim. Oradan biron yil o'tib, Baxtiyordan xat keldi.

«Aka, turmushimiz yaxshi deyolmayman,-deb yozardi u. O'sha savolni hozir yaqinlarimizga ko'p-ko'p beraman. Aniқ javob yo'q, hamma yerga qaraydi... Vatanni, Sizlarni ko'p sog'inaman. Ko'rishguncha xayr...»

Demak, bu savolga hamon javob topilmabdi-da, deb o'ylayman men.



## BIZNING PAXTA

Rahmatli dadam katta dehqon, haqiqiy paxtakor edilar. Dasturxon boshida gaplarimiz ko'pincha paxtadan boshlanib, paxta bilan tugardi.

Bir kuni televizor paxta ma'lumotini ko'rsatayotgan edi.

-Sakson bo'libdi, dada. Ko'pi ketib ozi qoldi!-dedim u kishini quvontirmoqchi bo'lib.

-Yo'q,-dedilar dadam boshlarini ma'nodor tebratib. Teskarisini hisoblayver. Paxtaning yigirma foizi qolgan bo'lsa, azobning saksoni oldida tog'day turibdi.

Hayot ekan, mening ham dehqonchilikda ko'zim ancha pishib qoldi. Bugun tumanda paxta rejasi sakson foiz bo'lganda shularni esladim. Haqiqatda ham oldinda topshirilmagan yigirma foizli paxta o'zining sakson foizli azob-uqubati bilan dalalarda sochilib yotibdi...

\*\*\*

## **NOZIK MEHMONLAR KELGANDA**

Bir joyda ishlaydigan ikki kishi o'zaro suhbatlashar edilar.

-Kecha uyga-nozik mehmonlar kelgan edi. Shoshib qoldik, ularning oldiga sizni aytolmaganimdan juda pusha ymonman,-dedi ulardan biri.

-Aslo pushaymon bo'lmang,-dedi uni yupatgan bo'lib, hamkasbi,-aytsangiz ham sira borolmas edim.

-Nega?

-Uyga juda nozik mehmonlar kelgan edi...

Ular soxta jilmayishdi...

\*\*\*

## **SUDXO'RLIK OQIBATI**

Bozor iqtisodiyoti bizga ko'p narsani o'rgatdi. To'qsoninchi yillarning boshida naqd pul muammosi juda chigallashib ketdi. Bir kunda narxlar keskin o'zgarar, ertalab qarzga pul yoki mol berganlar kechga borib boshini changallab qolishardi. Asta-sekin odamlar bu ishlarni «ko'kiga» chog'ishtirib, yoki pulning qimmati pasayishini hisobga olib, amalga oshiradigan bo'ldilar.

Sarmoyasini qo'shimcha daromad keltiradigan qarzga beradigan sudxo'rlar esa, mo'may pul topadigan bo'lishdi. Bundan boyib ketganlar ham, kasodga uchraganlar ham bo'ldi.

Uchib-qo'nib yurgan yaqin tanishimiz «dollarchi» tanish bir puldordan, oyiga yigirma foizli ustama bilan uch ming qarz ko'taribdi. Buni qarangki, uning o'ziyam bu pulni qo'shnisiga, ikki oyda qaytarish sharti bilan, ellik foizlik ustama qo'yib, qarzga berib yuboripti. Qo'shni esa, pulni cho'ntakka urib, bozori caqqon mollarni qidirib, shimol taraflarga ketganicha, uzoq vaqt dom-daraksiz yo'qolibdi.

Tanishimiz uning yo'liga bir yil qaraydi. Bu borada ustma-ustiga minib, uning qarzi o'n ming dollordan oshadi. Oxiri nima bo'ldi deng? Ular hovli-jo'lari, mashinalari, opa-singillarining tilla taqinchoqlarigacha sotib, qarzdan zo'rg'a qutilishdi. Hammalari bosh changallab qolishdi.

Nihoyat bir kuni qarz ko'targan qo'shni u tomonlardan qaytib keldi. Uning holi olgan qarzini qaytaish tugul oddiy tirikchilik o'tkazishga ham yetmasdi.

Keyin arizabozlik, sudhazlik boshlandi. Lekin u sarmoya uchun oddiy tilxat yozib bergan ekan. Buni sud hujjat o'rnida qabul ham qilmadi.

Orada ikki oila xonavayron bo'ldi. Qarindoshlar orasida mehr-oqibat ko'tarildi. Qishloqdagi inoqlikka putur yetdi.

Sudxo'rlikni oqibati mana shunday tugadi...

\*\*\*

## DONO JAVOB

Bir to'da davrani olib boruvchi «Hozir tabrik so'zi O'zbekiston Xalq yozuvchisi falonchiga!» deb, hech qanday unvoni bo'lmagan mahalliy yozuvchiga mikrofon tutdi.

Davra jim bo'lib qoldi. Odamlar qani bunga javoban mahalliy yozuvchi nima derkan deb, u tomonga jim qarab qolgan edilar. «Rais ga tanbeh berishni vaziyat ko'tarmas edi. To'y, axir! Balki, shoshgandir.

Mulohazakor yozuvchi to'ychilarni tabriklash davomida hunday dedi:

-Paxtakor bo'lsak ham o'zbek xalqining paxtakori, o'qituvchi bo'lsak ham xalqning o'qituvchisi, mohodo, olloh inoyati bilan, yozuvchi bo'lib yetishgan bo'lsak ham shu xalqdan chiqqan yozuvchimiz. Bu bilan faxrlansak arziydi...

Odamlar samimiyat bilan qarsak chaldilar.

Nodon qopib aytga ham, dono topib aytadi deb, xalqimiz behuda aytmagan-da...

\*\*\*

## DEHQONLARNI ASRAGIL, TANGRIM!

Tavakkalchilikda bu olamda dehqonga yetari yo'q. Erta bahorda hali sovuqlar o'tib ketmaganini u yaxshi biladi. Lekin, baribir, kutib turmaydi, umid bilan urug' ekadi.

Ko'p o'tmay havolar isib, tuproqda nam qolmaganini, endi urug' tashlash juda xavfli ekanini ham u yaxshi biladi. Baribir, umid bilan yerga urug' ekadi.

Qishda qor-yomg'ir juda kam bo'lganini, bu yil suv juda tanqis bo'lishini dehqon oldindan anglab turadi. U baribir, umid bilan, tangriga tavakkal qilib, urug' ekadi!

O'ychining o'yi bitguncha, tavakkalchining ishi bitadi deb, shuni aytsalar kerak-da...

Aslini olganda dehqon o'zingga tavakkal qiladi, Tangrim! lloyo, bir umr uni o'zing qo'llagil!...

Axir, u sening nazaringga tushay deb, hamisha ochiq osmon ostida ishlaydi-da!...

\*\*\*

## JANNATDAN-JANNATGA

Hazrat odam ato Jannatdan quvilib, Yerga tushganda kop narsa yo'qotgan bo'lsalar kerak. Chunki, u paytlar yer ham Jannatday edi: haromxo'rlik, poraxo'rlik, yolg'on, riyokorlikdan top-toza edi...

Boshqaca aytganda Odam ato Jannatdan quvilib, Janatga tushgan ekanlar-da...

Osiylik qilgan bo'lsam, o'zing kechirgaysan, Qodir egam...

1999 yil, sentyabr, oktyabr.



# TULKISHUNOS

(Intermediya).

**Qatnashadilar:**

**Tulkiboshi.**

**Ona tulki.**

**Bola tulki.**

**Kuyov tulki.**

**Kelin tulki.**

**Tulkushunos.**

O'rmonda tulkilar guruhi to'plangan. Ular mashhur Tulkishunos bilan uchashuvga yig'ilganlar. Tulkiboshi to'rga o'tadi.

**Tulkiboshi:** Tartibni saqlanglar. Gap orasida luqma tashlash bo'lmasin. Hoy, sen, Kelin-Kuyov, yakka-yakka o'tirib ol. Ana shunday. Bo'lmasa, bir-biringni yalab, qitiqlab tinch o'tirmaysan. Ona tulki, bolangni behuda boshlab kelibsan-da.

**Ona tulki:** Nima qilay, uyda hech kim yo'q.

**Tulkiboshi:** (Ko'zlarini o'ynatib). Dadasi qayoqda?

**Ona tulki:** Daydib ketgan. Ro'zg'orga qarashniyam bilmaydi. E, yuzi qursin.

**Tulkiboshi:** Qo'y, xafa bo'lma. (Nimanidir o'ylab) Kechroq biznikiga o't, zeriktirib qo'ymaymiz seni.

**Kuyov tulki.** (Bosh irrib): Qariyaning ishtahasi karnay.

**Kelin tulki:** To'g'ri qiladi, o'ziyam rosa zerikkan.

**Bola tulki:** (g'ingishib). Oyi, oyi deyman! Tagimni ho'l qilib qoydim.

**Ona tulki:** (Unga tanbeh beradi.) «Tagimni ho'l qilib qo'ydim» emas, ho'lning ustiga o'tirib qolibman desang-chi!

**Bola tulki:** Yo'q, o'zim ho'l qilib qo'ydim. Birdan...

**Tulkiboshi:** (Ona tulkiga ko'z qisib): Xijolat bo'lma, hali eplab tulkichasiga gapirishni o'rganmagan-da, shunday emasmi, Kelinposhsha?

**Kelin tulki:** Shunday. Hademay, olib ketadi. Bizlar ham buning yoshida...

**Kuyov tulki:** (Uning gapini kesadi). Buning yoshida sen tomga benarvon chiqar eding.

**Kelin tulki:** Tilingni tiysang-chi, tanbeh berishga juda ustasanda. Doim shunaqa.

Ona tulki: (Tulkiboshiga qarab). Xo'sh qachon boshlanadi? Zerikdim.

**Tulkiboshi:** Hali zamon keladi. O'ziyam juda band ekan. Zo'rg'a ko'ndirdim. Bir joyda rosa maqtovini eshitib, iziga tushdim. «Tulkilarga tulkilikdan dars beradi» deganlaridan buyon paytavamga qurt tushgan.

**Kuyov tulki:** O'zimizni qavmdanmi u?

**Tulki boshi:** Yo'q, ikki oyoqlilardan. Lekin, bizlardan juda o'zib ketgan, emish.

**Kelin tulki:** (O'zini jajji oynachaga solib, tumshug'iga qora lak surkaydi). Tezroq kelsaydi. Bo'y-basti qanaqa ekan?

**Kuyov tulki:** Ha, ko'zing uchayaptimi?

**Kelin tulki:** Yana rashk! O'lar bo'ldim. «O'rmonga yakka chiqma», «Ovga yakka borma...»

**Tulki boshi:** To'g'ri qiladi. Siz yoshlarni tergap turmasa, darhol ipni uzasiz. Mana, Buvilarning gapimga quloq solmay, nafsini tiyolmay, tuzoqqa ilinib ketdi. Ora ichida men bechora beva yuribman. (Ona tulkiga qarab) Sen zerikmay o'tir. Hozir Tulkishunosni ko'rasizlar. Lekin, gapini sira bo'lmang. Yig'ilish biroz cho'zilib, zeriksangiz ham o'zingizni diqqat bilan eshitayotganga soling.

**Kuyov tulki:** Yana tulkichilik ekan-da...

**Tulki boshi:** Bo'lmasa-chi? Hayotimiz shunday qurilgan, Kuyovbola.

**Kelin tulki:** (Qiziqishi ortib): Qachon kelarkan-a? Ikki oyoqlilarning yashashi qanday ekan? Madomiki, bizga tulkilikdan dars bersa, rosa bo'lib ketishgandir?

**Tulki boshi:** Boshqalarni bilmayman, lekin Tulkishunosga havas qilmadim. Uyida deng Eshak, It, Bo'rilarning har xil niqoblari qalashib yotibdi. Ha desam, bari kerakmish. Birisida irjaygan, birsida darg'azab. Ha, qaysi guruhga tushsam, shunga qarab niqob almashaman, deydi bechora.

**Ona tulki:** Bo'lmasa, o'zimizning qavmdan emas ekan-da! Bizku nuqul tulkilik qilamiz, u bechoraga juda qiyin ekan.

**Tulkiboshi:** Aytдим-ku, u Tulki emas, Tulkishunos. Ya'ni, bizlarga tulkilikni o'rgatmoqchi. Ana, kelganda ko'rasiz, behudaga bunday nom olmagan.

**Ona tulki:** Rost, bir balosi bo'lmasa...

**Kelin tulki:** (Havas bilan). Dunyoda ana shunaqalar ham bor-a.  
Zo'r!

**Kuyov tulki:** Sust ketdingmi! Ko'zlaring halitdan suzilayapti-ya!

**Kelin tulki:** Yana rashk! Bezor bo'ldim-e!

**Ona tulki:** (Kelin tulkiga nasihat qilib). Bunday dema, Kelinposhsha, kuyovning qadrini bil. Tashlab ketsa, nima qilasan? Ana, meniki qayoqlarda daydib yuribdi. Hali tumshug'idan ilingan bo'lmasa.

**Tulki boshi:** Xafa bo'laverma dedim-ku. (yonboshiga o'girilib). Ana, Tulkishunos og'amiz keldilar. Marhamat-marhamat, intizor bo'lib qoldik.

**Tulkishunos:** Uzi-uzr, yo'lida ushlanib qoldim. Doim shunaqa bo'ladi, Vaqtim sira yetishmaydi.

**Tulkiboshi:** Niqobingizni olmaysizmi?

**Tulkishunos:** Yoq, bu sira mumkin emas! Axir, men hozir Tulkilar orasidaman. Odamlar orasiga odam, itlar orasiga it, bo'rilar ichiga bo'ri bo'lib kiraman-da. Ko'rding-ku, biznikida hamma xil niqobdan bor...

**Ona tulki:** Ko'rdingizmi? Haqiqiy Tulkishunos! Bizlardan ming marta o'tib ketgan bular.

**Kelin tulki:** (O'zini ko'zguga solib, ko'kragini g'oz ko'tarib o'tiradi). Yaxshilab eshitib olay gaplarini. O'ziyam mendan ko'z uzmayapti.

**Kuyov tulki:** (Unga ola qaraydi). Voy tulki-ey, niyati boshqa huning.

**Kelin tulki:** Yana rashk!

**Tulki boshi:** (hammani tartibga chaqirib): Endi jimgina eshitinglar. Qulog'imiz sizda, janob. Bizga haqiqiy tulkilik qanday bo'lishi haqida bir so'zlab bering.

**Ona tulki:** Yo'q, ikki oyoqlilarning tulkiligi haqida ko'proq gapirsinlar.

**Kelin tulki:** (Nozlanib). Ha, shundoq bo'lsin.

**Tulkishunos:** Maqsad ham shu o'zi. Bo'lmasa, gap bunday, men ma'ruzani kalta qilaman. Bu juda katta saboq. Tulkilarga Tulkilik haqida. Bu mavzuni bir ushra shuvda tugatish qiyin. Qolaversa, hali Boshliqlagingiz bilan oldi-berdi haqida shartnoma ham tuzganimizcha, yo'q. Bizda quruq qoshiq og'iz yirtadi, degan gap bor. Tekinga valaqlash vaqti o'tgan.

**Tulkiboshi:** Boshlayvering, bir yo'lini topib, Sizni rozi qilamiz. Bizga tulkilikdan gapiring.

**Tulkishunos:** Bo'lmasa, boshladik. Tulkilar, hayotda uzoq yashash



uchun, juda tullak bo'lishlari kerak. Misol, bunday dalada bir oyog'idan bog'liq qaqog'lab turgan xo'roz yoki tovuqni ko'rib, u yoq-bu yoqqa qaramay yugurib borish yaramaydi. Pistirmada sizni nishonga olib turgan Ovchi degani bo'ladi. Barmog'i miltiqning tepkisida. Ho, uning nazariga tusha ko'rmang.

**Ona tulki** (yig'lamsirab). Ko'nglim sezayapti. Bizning Chol ana shunaqasiga uchraganda...

**Tulki boshi:** Tartibni saqlanglar demovmidim.

**Tulkishunos:** Ha, ikki oyoqlilar orasida tulkichilik hozir juda avjiga chiqqan payt. Bir xillar katta tovuqxonalarga borib, parrandalarning ovozi magnit lentalariga yozib olishadi: Tug'ib, olamga jar solayotgan tovuqlar biri qo'yib biri olib dambadam qichqirayotgan xo'rozlar, jon holatda don-dunga patirlab otilayotgan parandalarning baland ovozi, kuchaytirgichlar orqali yangrab, dala-tizni bosib ketadi. Siz esa, bu yerda tovuqxona bor deb, bir-biringizdan o'zib, halloslab kelasiz. Ana shunda Ovchi degani bir sochma o'q bilan besh-oltitangizni asfalasofilnga jo'natadi qo'yadi. O'ylash kerak, kimsasiz joyda tovuqxona nima qiladi?

**Kelin tulki:** Xudo saqlasin, hali bu olamda nimani ham ko'rdik.

**Ona tulki:** Bu gaplarni bilgan yaxshi. Bizni Chol bo'lsa haqiqatda tentak edi.

**Bola tulki:** (Chiyillab). Oyi-oyijon! Tagimni iflos qilib qo'ydim.

**Ona tulki:** E, padaringga la'nat! Iflos joyga o'tirib qolibman demaysanmi?

**Bola tulki:** Yo'q, hozir chiqib ketdi.

**Tulkiboshi:** (Ona tulkiga dashnom beradi). Qo'y, indama, hali tulkichasiga gapirishni eplolmaydi-da bola paqir. (Tulkishunosga o'girilib) kechirasiz. Qani, davom eting.

**Tulkishunos:** Hozir ikki oyoqlilarning bari ovchi bo'lib ketgan. Teringiz charimgarlarda, go'shdingiz hayvonot bog'lari uchun juda zarur. Sizlarning izingizdan mo'may pul topib yurganlar kam emas, do'stlarim.

**Ona tulki:** Voy tulkilar-e! Aytdim-ku, bizning daydi ham ana o'shalarning o'qiga uchgan-da.

**Kelin tulki:** Yomon niyat qilmang, Katta yanga. Balki, bironta mallaqosh bilan o'rmonda sayr qilib yurishgandir...

**Kuyov tulki:** Xayoling faqat shunaqa gaplarda, sening.

**Kelin tulki:** Yana rashk! E, o'lib ketdim. Bunaqada tez ajrashib ketsak kerak.

**Tulkiboshi:** Nima degani bu? Nafasingni issiq qil, kelin. Qani, davom eting, janobi oliylari!

**Tulkishunos:** Buguncha asosiy gaplar tamom. Hayo'tda hamma narsa bo'lishi mumkin. Men hozircha sizlarga ikki oyoqlilar qo'llayotgan eng yangi tulkiliklar haqida gapirdim, xolos. Aslini olganda tulkilikning turi juda ko'p. Kelgusi uchrashuvlarda bular haqida batafsilroq gaplashamiz. Sizlar bilan yanada yaqinroq tanishganimdan xursandman. Savollar bo'lsa, marhamat.

**Bola tulki:** (Zo'r qiziqish va hayajon bilan:) Basharangiz bizga tortgan-u, nega dumingiz yo'q?

**Ona tulki:** (Bolasini turtib). Jim bo'l, endi chiqadi. (Tulkishunosga o'giriladi). Bolangiz ham bormi?

**Tulkiboshi:** Bor, juda yosh. Bu gaplarni u hali bilmaydi. Lekin, bo'ladigan bola, naq o'zimga tortgan.

**Kelin tulki:** Nega xotiningizni boshlab kelmadingiz? O'rmonlarni sayr qildirardik.

**Tulkishunos:** Umi? Hozir achchiqlab, onasinikiga ketgan. Meni «Tulkimijoz ekansiz» deb, haqorat qildi. Chidolmay, quvib yubordim.

**Ona tulki:** Ikki oyoqlilar orasida ham gap ko'p ekan-da.

**Tulkiboshi:** Boshqa savollar bo'lmasa, Tulkishunos do'stimizga, foydali maslahatlari uchun samimiy minnatdorchilik e'lon qilamiz. Mana, o'zlarियam bir nechta tulki terisidan uzungina kamzul kiyib olgan ekanlar. Demak, bizning qavmga juda-juda yaqinliklari ko'rinib turibdi. Buning ustiga bir necha marta bizga «Do'stlar!» deb, murojaat ham qildilar. Demak, do'stimiz. Rahmat.

**Ona tulki:** Aytdim-a, bu terilarni qayerda ko'rganman deb. Cholimning po'stiga o'xshab ketadi-ya...

**Tulkishunos:** Bo'lmasa, xayrlashamiz. Bugun bir joyda mening «Quturgan itlardan saqlanish haqida» ma'ruzam bor. So'ngra o'tirib «Itlarga itlik haqida» degan maqola ham yozishim kerak.

**Bola tulki:** Oyi-oyijon! Ho'l narsaning ustida o'tirib qolibman.

**Ona tulki:** (Bolasini boshini siypalab). Yasha, ana endi tulkiligingga tortding.

**Tulkiboshi:** Xuddi shunday! Bu-Tulkishunos og'aynimizning poy-qadami sharofatidan. Axir, u bizga tulkilik haqida saboq berib ketdi-ku! Mana, izi bo'lmay, samarasini ham ko'rdik. Bolakayning tili o'zgardi. Endi tarqalishlaringiz mumkin. (Ona tulkiga qarab). Hoy, Tulkibonu, zerikib o'tirma, dedim Men uyda bo'laman...

**Kuyov tulki:** (Kelin Tulkini turtib). Ha, ko'zingni suzib, uzoqlarga qarab qolding-ku? Ketdik!

**Kelin tulki:** Faqat rashk.

Tulkilar tarqaladilar.

2001 yil, fevral.

## **YANGI YIL INTERYUSI**

**(hajviya)**

**MUXBIR:**

-Mikrafon va magnitafonlarimizni ishga hozirlab, ko'cha kezmoqdamiz. Labihovuz bo'ylarida odam tig'iz. Kechagina yoqqan oppoq qor quyosh nuridan ko'zni qamashtiradi. Mana, biz tomonga qarab sochlari uzun, qotma yigit parishonxotirlik bilan yurib kelmoqda.

-Salomaleykum. Sizni bir minutga mumkinmi, o'rtoq?

-Albatta. (Soatiga qarab olib) Uchrashuvgacha hali bermalol bir sakkizlik bitish mumkin.

-Kim bo'lib ishlaysiz, o'rtoq? Yangi yilni qanday kutmoqchisiz?

Hamsuhbati yelka qisib, taajjublandi.

-Ana xolos! Meni tanimaysizmi hali? Shoir Dovrug'iyini-ya? Intervyu kerak bo'libdi-da a? Yangi yil kechasi biz, albatta, she'r bitamiz. Tanqidchi Kamoniyni bir nishonga olgim bor. Keyin qo'shnimiz Dehqon aka bilan jinday otamlashsak kerak. Ikkovimizning suhbatimiz juda qo'r oladi. Kasbimiz boshqa-boshqa, lekin bir-birimizni nihoyat tushunamiz. Yaxshi odam, qo'li qadog'u dili pok. Ko'p she'rlarni yod biladi. Xush ko'raman shunaqalarni. Bir hisobda ichmaydi ham. Lekin bizni siylaydi. Shunaqa. Bizga ruxsatmi? Lekin Kamoniy bilan Yangi yilda rosa solishaman. So'nggi maqolasini o'qidingizmi? Sira mantiq yo'q. «Dovrug'iyda qaytariq ko'p» emish!... Xo'sh, senda nima bor? Nima dedingiz?

-Xo'p, rahmat. Shuning o'zi yetarli.

-Gap boshlagandan keyin eshitingda endi.

-Yo'-yo'q. Rahmat, o'rtoq. Shu yog'i yetar. Yangi yillarni yaxshi kuting, Hoy-hoy yaxshi qiz! Bir minutga mumkinmi? Kechirasiz, xizmatchilik. Yangi yil kirayotganda siz nima ish qilayotgan bo'lasiz? Kasbingiz?

Qiz duv qizarib ketadi.

-Aytish zarurmi?

-Istamasangiz...

-Mayli, aytsam ayta qolay. Talabaman. Yangi yil kirayotganda nimqorong'i uyda, stol lampasi yorug'ida maktub yozib o'tirgan bo'lasan. Juda u-uzun maktub. Kimga deysizmi? Kop uzoqqa.

Chegarada turgan bir kishiga. Yangi yil kirayotganda u ham menga xuddi shunday xat yozib turgan bo'ladi. Kelishib olganmiz. Faqat orzularimizni yozamiz. Buni «Orzu» maktubi desayam bo'ladi, Hayotimiz davomida asrab qo'yib, keyin birga-bizga o'qiymiz. Bilasizmi qachon? Har gal Yangi yilda. Bu bizning umrlik dostonimiz, orzuga sodiqlik dostonimiz bo'ladi...

-Baxtli bo'ling, singlim.

-Rahmat.

-E-ey, do'ppili aka! Ozigina fursatingizni olamiz-da, maylimi?

-Bemalol. Men shoshayotganim yo'q. Hozir dala ishlari ancha sust. Bir shahar tushgan edik. Paxtayam bu yil oshib-toshib ketdi. Lekin sizni taniyolmayapman.

-Muxbirman, aka. Ismi-sharifingiz? Yangi yilni qanday kutmoqchisiz? Shular haqida ikki og'iz...

-Otim-Dehqonboy. «Paxtaqaynar»likman. Sizga aytsam, bir shoir ukam bor. Laqabi-Dovrug'iy. Qo'shni turamiz. Tushda shu Labihovuzda uchrashishni kelishgandik. Xayolparast, dovdirroq bo'lsayam suhbatlari jonon yigit. Bu gaplarning nima keragi bor dersiz? Xayolparishonlik menga o'shandan yuqqan. Yangi yil kechasi bir yumalab, ko'zga ko'rinmaydigan bo'lib olsam deyman. Keyin hamma xonadonlarga asta-asta kirib borsam-u bezaigan dasturxonlarga sinchiklab tikilsam. Qani ularda nima yetishmaydi, nima taqchil-ana shularni o'z ko'zim bilan ko'rsam. Yangi yilning birinchi kuniyoq belni mahkam bog'lab, mana shu kamchil, taqchil narsalar g'amida bo'lsak. Hamma-bir niyat bilan, bir orzu bilan... Dovrug'iy ukam bilan ozgina o'tirgim ham bor. Tantanavor, maxsus emas. Oddiygina, samimiy... Ulug' odamlarni eslasak...

-Ko'p yashang, Dehqon aka. Yaxshi kunlarda uchrashaylik. Brigadangizga albatta, boraman. Bitta ocherk naq deyavering.

-Durust. Nimaiki yaratilsa-yaxshi! Yaratish bor ekan-mehnat bor. Mehnat bor ekan-tirikchilik yaxshilanaveradi...

-E, qoyil!

Mana, yana bir g'aroyib odam ro'para kelmoqda. Yurishlari biroz g'alati.

-Kechirasiz-da, og'ayni. Shoshib turganga o'xshaysiz. Lekin, nachora? Jinday vaqtingizni olaman, maylimi?

-Men aslo shoshayotganim yo'q. Chunki, har to'rt so'tkada bir smena ishlayman.

-Bay-bay, xo'p yaxshi ish ekan. Nasib qilsin. Xo'sh, siz Yangi yilni qaerda kutmoqchisiz?

-Hushyorxonada.

Hazillashmang, aka. Mana, tuppa-tuzuk odamsiz. Burningiz sal qizargan bo'lsayam ichuvchilarga uncha o'xshamaysiz. Zarurat vajidan so'rayapman. Xo'sh?

-Hecham hazili yo'q, ukam. Qolaversa, men umuman ichmayman. Lekin, Yangi yilni hushyorxonada kutaman, aniq.

-Nima uchun axir?

-Hech nima uchun. O'sha yerda ishlayman-da! Yangi yil kechasi navbatchiman.

-E-haa... bunday demaysizmi? Xo'sh, Yangi yilni qanday kutmoqchisiz?

-Nima desam ekan? Yangi yilda hushyorxona odatda bo'shroq bo'ladi. Azamatlar bu kecha yo ichishmaydi, yo tartib buzishmaydi. Keyingi paytlar karavotlar umuman bo'shab qoldi. Gapning to'g'risi. Yangi yilda bironta hushyorroq piyanista tushsa, gangir-gungir qilib vaqtini o'tkazsam yomon bo'lmasdi. Lekin, shu aroqxo'r deymizu, hushyorxonaga tushgandan keyin bu turfa odamlar shunaqayam aqlli, shunaqayam samimiy gaplar chiqadi-ki... Qani odam yozuvchi bo'lsangu, bularga bir tartib berib, yozsang...

-Umuman Yangi yilda hushyorxonaga hech kim tushmasligiyam mumkinmi?

-Albatta...

-Unda siz nima ish qilasiz?

-To'g'risi, o'sha joydan pensiyaga chiqish niyatim yo'q emas. Yangi yil kechasi bo'lsa, tanish, sobiq aroqxo'rlar haqida o'ylayman. Ularning ko'plari menga telefon qilib turadi...

**MUXBIR:**

-Shu bilan Yangi yil intervyusini tamomlaymiz. Hama-hammalaringizni Yangi yil bilan chin dildan tabriklaymiz. Barcha yaxshi niyatlaringiz Yangi yilda, albatta amalga oshsin...

1988 yil, dekabr

## QOYOYH SOTILMA'YDI

*(Ikki parda, ikki ko'rinishli drama).*

**Qatnashadilar:**

**Quyosh.**

**Yer.**

**Oy.**

**Amaldor janob.**

**Uning yordamchisi.**

**Dehqon.**

**Uning xotini.**

**Bolakay.**

*Parda ochiladi, g'ira-shira qorong'ulik. Sahnada Yer shari-ulkan gulobus asta aylanib turibdi. Uzoqda lovillagan Quyosh. U Yerning bir qismini yoritib turibdi. Qarshi tomonda yaltirab Oy ko'rinadi. Undan Yerning qorong'u qismiga zaif shu'la inib turibdi.*

**Oy:** Assalom, Yer! Assalom BObo Quyosh! Omonmisiz?

**Quyosh:** Salom, Oy qiz. Bu gal ko'rinishing juda chiroyli. Yuzing hozirgina shabnamda yuvilganday tiniq, beg'ubor.

**Yer:** Salom, Oy qiz. Omonmisan yo'ldoshim. Shukur, yana sog' omon yuz ko'rishdik.

**Oy:** (tashvishli ovozda): Senga nima bo'lgan, Ona-Yer. Avozingda horg'inlik, yuzing mudom so'lg'in. Ko'pdan bu gapni aytolmay yurgan edim, kechir meni.

**Quyosh:** juda haqsan, Oy qiz. Hali men Yerdan xuddi shuni so'rayman deb turgan edim. Gapir, Yer. Sening bag'ringdangi odamlar hisob-kitobiga ko'ra to'rt yarim milliard yildan buyon yuzma-yuz turgan ekanmiz. Shuncha vaqtdan buyon seni bir daqiqa tark etmadim. Lekin keyingi paytlar fe'ling ozib qoldi: Yuzing so'lg'in, qovog'ing hamisha soliq, gaplaring ham andak sovuqroq. Gapni Oy qiz boshlab qo'ydi. Xo'sh, nima gap o'zi?

**Yer:** Eh bobo Quyosh! Aziz, Oy! Nimasini ham aytaman? Bu hikoya ko'p uzun.

**Quyosh:** Tortinma, gapir.

**Yer:** Bo'lmasa sizlarga ayta qolay.

Bag'rimda hayot degan bir xilqat yaralgandan buyon mana shunday tashvishu ko'rguliklardan boshim chiqmayapti. Ayniqsa, odamzod paydo bo'lgandan buyon. Shu kunlarda hamma narsa ko'zimga omonat ko'rinadi.

**Oy:** (Titroq tovushda.) Bobojon, bilsangiz men shu odamlardan juda qo'rqib qolganman.

**Quyosh:** Nimalar deyapsiz? Kim u «Odamlar»? Nima uchun undan qo'rqasizlar. Nahotki, shunchalik dahshatli? Ularga biror yomonligingiz o'tgani yo'q-ku!

**Oy:** O'zing aytib ber buni, ona-Yer. Menga qiyin, tushuntirolmasam kerak. Chunki odamlar-sening farzandlaring. Ularni sen yaratgansan. Qolaversa, sening zuriyodlaringni yomonlashga mening haqqim yo'q.

**Yer:** Oy qiz! Odamlar faqat mening emas, asosan Quyosh farzandi. Quyosh bo'lmasa...

**Oy:** Lekin ular sening bag'ringda-ku.

**Yer:** Ha, buning tarixi uzun. Bu, ayniqsa, senga ravshan bobo Quyosh. Sening harorating bag'rimda to'planib-toplanib hozirgi til bilan aytsak, boshimdan million yillik kimyoviy jarayonlar kechdi. Nihoyat, bu tabiiy holatlar tiriklik degan bir mo'jizaga asos bo'ldi. Keyinchalik ana shu jarayonlarning qayta-qayta takrorlanishi odamzod degan ongli bir xilqatning yaralishi bilan intiho topdi. Odamzodning yaralishiga o'zing bosh sababchisan, bobo Quyosh. Sen bo'lmaganda, hayot ham bo'lmasdi.

**Quyosh:** Xo'sh, bundan kim norozi? Kimga ziyon yetgan?

**Yer:** (O'ylanib) Umuman olganda hech bir yomonlik joyi yo'q. Lekin, shu odamzod degani chumoliday ko'payib ketdi. Mening tanamda zarpechakday rivoj topdi. Chirmoviqday o'raldi. Bugun uning fe'l-atvoriga o'zim ham tushunolmay qoldim. Odamzoddek o'ta kichik bir zarraga bugun butun bir koinot torlik qilayapti. Ha, Quyoshlar, Yulduzlar, million-million sayyoralar bemaolol siqqan Koinotga bir hovuch odam sig'may qolayapti. Shu vajdan ular bir-birining payini qirqmoqda. Bir-birini chopib, bog'moqda. Biri-biridan qizg'onib...

**Quyosh:** E, qiziq ekan-ku bo'lmasa, bu odamzod degani!

**Oy:** Ha, juda to'g'ri aytasiz, Bobojon. Men ham keyingi damlar undan qo'rqib qolganman.

**Quyosh:** Nima uchun qo'rqasan? Ular sening bag'ringdayam yashayaptimi?

**Oy:** Yo'q. To'g'risi, hozircha yo'q. Ammo, bir karra bag'rimga tantanavor chiqib kelishdi. Qiziq bo'larkan bu ikki oyoqlilar. Bittasi xuddi yeb qo'ymoqchiday yuzimga juda och ko'zlik bilan tikildi. Keyin kerilib: «Ana, endi Oy ham bizniki bo'ldi!» deb, to'voni bilan betimga do'k-do'k tepdi. Shundan buyon bu ikki oyoqlilardan yurak oldirganman, Bobojon. Meni kechiring, haliyam barakalla Ona-Yerga. Million-million yillardan beri odamzodning kirdikorlariga, qahru g'azabiga bardosh berib keladi. Yana uni ko'ksida ko'tarib, bag'rida asraydi.

**Quyosh:** Xo'sh, haqiqatda odamlardan norozimisan? Gapir, Yer!

**Yer:** Yo'q, men odamlarni sevaman, Boboquyosh. Juda-juda sevaman. Qaysi ona o'z farzandini sevmaydi, axir?

**Quyosh:** Seni tushunolmay qoldim. Bo'lmasa, ulardan nima uchun

nafratlanasan, nega o'z farzandingni la'natlaysan?

**Yer:** (Duduqlanib). Hammasini emas, Bobojon! Lekin, shu kunga kelib mening bag'rim naq ig'vo-yu, fitna, qirg'inbarot janglar, turli mal'unliklar makoni bo'lib qoldi. Ilgari hech ham bunday emas edi. Oxiri nima bo'ladi deb, jonim halak, Bobojon. Bir-birini chopish, yeb turgan oshiga zahar zaqqum solish kabi tubanliklar tobora shiddatga kirmoqda. O'g'il otani, qiz onani ko'ziga qarab aldasa!... Odamzod paydo bo'lgan davrlarda sira bunaqa emasdi. So'nggi asrda xunrezliklar tobora avjiga chiqdi. Hali u burchimda lov etib kuchli yong'in chiqsa, hali bu betimda dahshatli portlashlar ro'y bermoqda. Yuzlarimni tilib-tilib o'qlar vizirllab uchadi. Qaysi bir chekkamda bolalar qaqshab, zor-zor yig'laydi. Bag'rimda tobora qabristonlar ko'payib bormoqda...

**Quyosh:** Ana xolos! Odamzod degani shunaqayam kaltabin, befarosatmi, hali? A, Yer? Axir, sen ularni farzandim deb faxrlanib gapirarding-ku!

**Yer:** (Og'ir xo'rsinadi) Albatta, ularni butunlay kaltabin yoki befarosat deb aytolmayman. Menga chin mehr qo'yib, sevib-ardoqlashayotganlar ham kam emas. Lekin, bag'rimni ilmateshik qilayotganlar, temir panjalar bilan bo'g'izlab, nafasimni qisayotganlar, qizdirilgan po'lat bilan ko'zlarimni uyayotganlar ham bor, Bobojon. Meni bo'lib-bo'lib sotayotganlar, tuproq deb xor qilayotganlar ham ancha.

**Quyosh:** Bo'lmasa, senga juda og'ir bo'libdi, Ona qizim. Juda og'ir!

**Oy:** To'g'ri aytasiz, Bobojon. Kelib-kelib hamma azob Ona-Yerning boshiga tushayapti.

**Quyosh:** Faqat boshiga emas, qalbiga ham.

**Oy:** Men ularni eng yaqin masofadan ko'rib turibman. Hamma-hammasini ko'rib turibman. Shuning uchun ham yurak oldirganman-da. Yerga ko'zim tushdi degunimcha azoyi badanimga qaltiroq tushadi. Men turli og'riqlardan tobora ozurdalanib borayotgan ona-Yerning ko'z yoshlarini har kuni ko'raverib, bezillab qolganman. Ha, ana shulardan juda-juda qo'rqaman.

**Quyosh:** Munchalik vahimaga hojat yo'q. Axir, odamlar sendan juda yiroq ekan-ku. Qolaversa, hammasi bo'lib senga bir marta mehmon bo'lishibdi. Bir martaga shunchami?

**Oy:** (G'amgin tovushda) O'shandan buyon Yerning kuni mening ham boshimga tushsa holim nima kechadi, deb xavfsirayman-da, Bobojon.

**Yer:** (bosiq, tasallo ohangda) Yo'q, Oy qiz, unchalik qo'rqmasa ham bo'ladi. Men juda yaxshi bilaman, sof niyatli, yaxshi odamlar juda ko'p. Odamzod deganing tinimsiz, doim uyg'oq va besaromjon. Ilgariroq sharqiy burchimda umidbaxsh bir tartib yuzaga keldi. «Yer sotilmaydi! degan muqaddas kalimalar haralla aytili. Bu ishga amal qilinayotgan joylar ham bor. O'shanda, birinchi marta, quvonganimdan to'yib-toshib



yig'ladim. Ammo, necha-necha martalab kimoshdi savdolariga tushganda xo'rligim keladi. Hamon menga to'la hokim bo'lish uchun bir-birlarini ayamay qirishadi, bir-birlarini bo'g'izlashadi. Bezori, bezbetlar!...

**Quyosh:** Obbo! Aytmoqchi anavi ustingda past-baland bo'lib uchib yurganlar, ko'tarilib qo'nayotganlar nima? (Yer shari-globusda, elektr nuri bilan raketalarining uchishi aks etadi, portlashlar ko'rinadi). Nega har zamon u yer-bu yerda kuchli alanga ko'tarilib, hamma yoqni osmon bo'yi chang-to'zon qoplaydi. To'da-to'da bo'lib jonsarak qochayotganlar nima?

**Yer:** (Alam bilan «Uf!» tortadi. Hamma yoqni tuman qoplab ketadi.) Bizda buni yadro sinovi, raketa, yo'ldoshlar uchishi, mening bag'rimdan turli boyliklarni to'plab olish uchun bo'ladigan portlatishlar deyiladi, Bobo Quyosh.

**Quyosh:** E, qizalog'im, Yer! Bo'lmasa, bag'ringda hayotning paydo bo'lishiga asos bo'lganim uchun mendan ham darg'azab yurgandirsanday?

**Yer:** Yoq-yo'q, Bobojon. Har qalay hayot degani ko'p qiziq, haqiqiy mo'jiza! Bu olamda yaxshilar ham juda ko'p. Sen bilan mendan behad minnatdorlarning son-sanog'i yo'q. Lekin, oyog'i tagida Yer, boshida Oktob borligini bilmaydigan ko'r basirlar ham oz emas. Balki, bir kun odamlar adolatga kelar. Urushlar tinar, insoniyat: «Yer-hammamizniki, u hech kimga sotilmaydi. Yer bo'linmaydi, chegaralanmaydi!»-degan bir andishaga kelar. Yagona orzuim-ana shu, Bobojon!

**Quyosh:** Aytganlarning kelsin, do'mbog'im. Buni sen yaxshiroq tushunasan. Odamlarni ongli, farosatli deding-ku. Nahotki shunday jo'n sodda bir ishni hal qilish qo'llaridan kelmasa?

**Yer:** Ha, chindan odamlar yuksak ongli, Bobojon. Shuning uchun ham etadan umidim katta. Bizda noumid shayton degan gap bor.

**Quyosh:** Kim u «Shayton?» U ham Yerda yashaydimi?

**Yer:** (Kuladi.) Yo'q, u jonzot emas. Aslida uni senu men qolib, odamlar yaratishgan. O'z ayblaridan qutulish uchun yaratishgan. Gunohni o'zlari qilib qo'yib, «Meni shayton yo'ldan ozdirdi», «Shaytonning vasvasasiga uchdim» degan bir bahona uchun yaratishgan...

**Oy:** Ha, Bobo Quyosh. Siz bilmaysiz, odamlar bunaqa vaj-karson to'qishga ustasi farang bo'lib ketishgan. O'zlaridan gunohni soqit qilish uchun nimalarni o'ylab chiqarishmaydi deysiz? Ana shunday makkorliklarni ko'rib turib, ulardan xavfsiraslikning iloji yo'q-da. Yerda ro'y berib turgan bu voqealarni ko'rsam, tanim sovib ketadi. Ba'zan titroq bosadi. Har gal yangilanib chiqqanimda eson-omon aylanib turganmikan deb, Ona-Yerga xavfsirab qarayman. Meni kechir, Ona-Yer, ha, senga xavfsirab qarayman. Sendagi vahimalik gumbur-gumburlar, chinqiriqlarni eshitaverib, xun bo'lib ketaman ba'zida.

**Yer:** O, dardlarimni qo'zg'ama, Oy qiz. Menga juda og'ir, dedim-

ku! Yhunday gulgun zamonlardayam bir chekamda ochlikdan o'layotgan jigarbandlarimni ko'rib, o'zimni-o'zim qarg'ayman. Axir, men Onaman-ku! Farzandimni boqolmadim, halokatlardan qutqazib qolomadim deb, kuyib yonaman. Aslini olganda menda nima ayb? Men, odamlar hozirgidan yuz karra, hatto ming karra ko'paysa ham boqa olaman. Faqat ular orasida nifoq kuchaymasa bo'lgani.

**Quyosh:** Boqa olsang nima uchun odamlar ochdan o'layapti. Hozirgina o'z tiling bilan shunday demadingmi?

**Yer:** Ha, chindan ham shunday. Bular g'alamaslik oqibati, Bobojon. Bir-birlarining rizq-nasibalarini tortib olib, ochko'zlik qilayotganlar uchun shunaqa bo'layapti. Ba'zan birovlar to'qlikdan paq yorilay deydi, ba'zilar esa axlatxonalardan nasiba qidirishadi. Meni bo'lak-bo'laklarga bo'lib tashlaganlar ham aslida ana shu ochko'z, yebto'ymaslar, Bobojon! Endi menga butunlay hokimlik qilish niyatida yurganlar ham xuddi o'shalar-beyuz, beandishalar!

**Oy:** (G'amgin ohangda). Senga rahmim keladi, Ona-Yer. Qanchalar adolatli, bag'ri keng, saxiysan. Ayni vaqtda bunchalar nohorsan. Xuddi kiprikdagi ko'z yoshdayomonnatsan-a!

**Quyosh:** Boshingda tashvishlaring juda ko'p ekan, Ona Qizim. Men sening bag'ringda ziddiyatlar bunchalikka borgan deb sira o'ylamagan edim.

**Yer:** (O'ksinib.) Shunday, bobojon. Hali bular dengizdan bir tomchi, xolos.

**Quyosh.** Shunaqami?! Bo'lmasa, bardam bo'lishing kerak, do'mbog'im. Lekin, ko'zimga nechukdir juda o'jiz, himoyasiz bo'lib korinasan. Xuddi dovul va quyumlar seni chirpirak qilib, uchirib yurganday...

**Oy:** Ha-ha, ona-Yer, sen bardam bo'lishing kerak. Asablaring kun sayin taranglashib borayotganini ko'rib turibman. Senga bir gap bo'lganday bo'lsa, keyin men nima qilaman? Juda qo'rqaman, Bobo Quyosh, juda qo'rqaman.

**Yer:** Men ham qo'rqaman! Yo'q, men o'zimdan emas, bag'rimda hayot kechirayotganlar taqdiridan xavfdaman. Cheksiz samoda tariqday sochilib ketsam-a! Odamlar-chi? Chumoliday qirilib bitmasa edi. Nahotki, milliard yoshli hayot degan mo'jiza bir zumda nom-nishonsiz yo'qolsa! Nima bo'lganda ham bu tirikchilik degani juda bebaho. Ayniqsa, odamzod uchun. Men odamlarga mo'l-ko'l hayot berish tashvishida bo'lsam...

**Oy:** To'g'ri aytasan, ona Yer! Men odamlarning niyatlaridan oz bo'lsada voqifman. Qancha-qancha kishilar bag'ringda bebaho orzular bilan ishlab, shod-baxtiyor yashab, ko'rkam bog'-rog'lar yaratib, husnigga husn qo'shib yurishibdi. Faqat ertadan emas, million yillardan umidvor odamlar juda ko'p bag'ringda. Nahotki, taqdiringni ularga, ishonmaysan?

**Yer:** Men xuddi o'shalarga, faqat yaxshi kishilarga ishonaman. Xuddi o'shalardan umidvorman.

**Quyosh:** Iloyo, omon bo'l, Ona qizim! Lekin, senga ko'p azob bo'libdi. Aybsiz aybdor bo'lib qolibsan-a, do'mbog'im.

**Oy:** (Yig'lamsirab.) Hali bir kun kelib men ham ana shunday holga tushmayin deb, ich-bag'rimni yeyman-da, Bobojon.

**Yer:** (Chuqur xo'rsinib). Bunday bo'lishini kim bilibdi deysan, Bobo Quyosh? Nahotki, bir kun kelib men cheksiz fazoda chang-g'uborga aylanib ketsam? Vaqtlar o'tib, allaqaysi sayyorada yangidan hayot paydo bo'lsa-yu, keyin: «Bir zamonlar Yer degan sayyora bo'lardi, unda qulfgan hayot bor edi deb, ertak aytib yurishsa? Nahotki, men, nodon, o'z go'rkovimni o'zim tuqqan, o'zim parvarishlab, o'zim voyaga yetkazayotgan bo'lsam?...

**Quyosh:** Ko'p xo'rsinmagin do'ndig'im, qomatingni bardam tut! Onasiga qo'l ko'targan farzand, -farzand emas. Unday noqobillar yetti iqlimdayam xayr-baraka topmaydi. Kim-kim, buni men Quyosh yaxshi bilaman.

**Oy:** Bobojon, tanam sovub, yana titroq bosayapti. Tezroq odamlar ko'zidan o'zimni panaga olgim kelayapti. Ana, pastdan turib betimga yot nazar bilan bot-bot qarayotganlarni ko'rayapman. Panaga o'tish uchun xayriyat, Yerning soyasi bor...

**Quyosh:** Nechun senga yot nazar bilan tikilisharkin? Biron muddaolari bordir? Balki, buni sen bilarsan, Yer?

**Yer:** Ha, Chunki, bunday muddaolar mening bag'rimda etiladi. Aytdim-ku, fisq-fujirning uyasi bo'lib qolganimdan behad noroziman. Lekin, bunchalik qo'rqqanlik kerak, Oyqiz. Hali, xavf-xatar unchalikka borganicha yo'q.

**Quyosh:** Hech narsa tushunmadim.

**Yer:** Hozir hammasini batafsil tushuntiraman, Bobojon. Axir, bizdagi odamlar Oyga ko'chishga astoydil tayyorgarlik ko'rishyapti. Bu Yangi asrning maqsadi-muddaosiga aylanadi.

**Oy:** (Qo'rqib ketadi.) Ana, xolos! Hali ular menga ko'chishadimi? Aytmadimmi, bag'rimga titroq kirdi deb. Ona-Yer hammasidan xabardor. Yerliklar mening bag'rimni ham yadroviy omborlarga aylantirish haqida gap-so'z qilib yurganmish. Oqibati nima bilan tugaydi bularning? Nahot, Yer bilan mening qismatim cheksiz samoda bir hovuch tariqday sochilish bilan nihoya topsa? Nahotki, cheksiz koinotda bizdan nom-nishon qolmasa?

(Quyoshning yuzini qorong'ulik qoplaydi).

**Quyosh:** (Darg'azab ohangda). Bularning bari shu odamzod deganning ishimiz? Bo'lmasa, inson deganiga nima bo'lgan, o'zi? Nahotki, osiylik shu darajaga borib yetsa? Yerga ot qo'yish o'z uyiga o't qo'yish bilan barobar emasmi? Buni eng kaltafahm kishi ham tushunadi-ku?

**Yer:** (Kuyinib): Eh, nimasini aytasiz, Bobojon. Bag'rimdagi dengizu,

okeanlar tubida atom chiqindilarini to'plab saqlashyapti. Suvlar tubiga cho'kkan kemalardan radioaktiv gazlar sizib, jonzo'tlar nurlanmoqda. Butun hayot zaharlanmoqda. Mayib, majruh bo'lmoqda. Ba'zi telbalar o'z farzandlarining taqdiriga ham befarq bo'lib qolishdi.

**Quyosh:** Odamlar, chindan ham ular yuksak darajada ongli bo'lishsa, eng avvalo, sening taqdiringni o'ylashlari kerak, ona qizim! Axir, sen ularga haqiqiy onasan. Aytib qo'yay, sening taqdiringga befarqlik odamlarga juda qimmatga tushadi. Bunday yo'qotishning o'rnini keyin hech narsa bilan to'ldirib bo'lmaydi.

**Yer:** Koshki bu gaplarni hamma birdek tushunsa! Mening bag'rimni o'yib, g'alvirdek teshib, hatto tilib-tilib tashlashdi. Har kuni kotarilayotgan zaharli gazlardan, yog'inlardan, zaharli havodan o'zim ham nafas olmay qolayapman. Bag'rimdan ne-ne duru javohirlarni yig'ib, to'plab olishdi. Butun dunyoni dahshatga solib turgan atom, vodorod, uran deganlari aslida noyob boyliklar edi. Afsuski, endi bu bebaho boyliklar o'ta xavfli qurollarga aylandi. Ular dunyoning hamma burchoklarida allaqaysi telbaning farmoyishini kutib yotibdi. Ana shularni o'ylagandan meni qaltiroq bosib, bag'rimga zilzila kiradi, Bobojon!

**Quyosh:** Senga qanday yordam qilishni ham bilolmay qoldim-ku, momo-Yer.

**Yer:** Ha, sizlar aytganday, kiprikdagi yoshday omonatman, momo Quyosh. Bag'rimda ne-ne ulug' zotlarni yetkazdim. Qancha-qancha mehnat kishilarini o'stirdim. Ular yuzimdagi dog'larni ketkazib, jannatmonand bog'-rog'lar yaratishdi. Avloddan avlodga mo'jizalar qoldirishmoqda. Ana shu ezgu ishlar bilan yonma-yon bo'g'zimga zaharli nayzalar ham sanchilib turibdi. Hammasi bir ishoraga mahtal. Lekin, biz senga sig'inamiz, bobo Quyosh. Xayriyat ko'pchilik odamlarda e'tiqod degan narsayam bor.

**Quyosh:** Yaxshi! E'tiqodli bo'lish yaxshi.

**Yer:** E'tiqodli odamlarning ko'ngli boshqalardan yaxshiroq bo'ladi. Ana o'shalarni o'ylaganda qalbim biroz taskin topib, ertagi kunga umidim oshadi. Ammo, (chuqur, «uf» tortib) Ko'pchilik tiriklikning, hayotning, Quyoshning qadriga yetmaydi. Bo'lmasa mening butun tanamni bo'lib-bo'lib tashlasharmidi?

**Quyosh:** (dahshat bilan): Kim, kim bo'lib tashlagan? Bunaqasini men tasavvur qilolmayman-ku!

**Yer:** Odamlar-da! Meni laxtak-laxtak bo'lib olishgan. Bu yaramaslik hali-beri davom etayapti.

**Quyosh:** Yo, alhazar! Har bir qalang'i-qasang'i o'zini Yerga, Quyosga, butun fazoga xo'jayin deb bilsa-ya!...

**Oy:** Sizga aytdim-ku, Bobojon. Men shuning uchun ham odamlardan qo'rqib qolgan-man. Ularni ko'rganda bir kun kelib mening sahnamniyam bo'lib-bo'lib tashlamasa edi deb, larzaga tushaman.

**Quyosh:** Bu qanday nodonlik? Qanday qabohat?! Yerni, Oyni,

Yulduzlaru Quyoshni bo'lishib bo'larmikan? Axir, bular shaxsiy emas, tiriklik manda-ku! Odamzod o'z hayotini o'zi barbod qilsaya!

**Yer:** Ana shunday bo'linishlar boshimga ko'p falokatlarini boshlab keldi. Ana shu bo'l-keslar hamon tepamda qora ko'lankaday muallaq turibdi.

**Oy:** Hayajonim boisini ana endi puxtaroq anglagandirsiz. Bobojon? Xuddi ana shu falokatlar mening boshimga ham og'ir savdolar solmasa edi.

**Quyosh:** Obbo, shunchalikka borganmi? Men bexabar ekanman, qizalog'im. Kechir meni. Demak, odamzod deganining ko'zi sira to'ymas ekan-da. Bu gaplardan muqarrar kelib chiqadiki, bir kuni ular meni ham bo'lib olish niyatiga tushadi. Shundaymi?

**Yer:** (Umidsizlik bilan). Taraqqiyot shunday davom etaversa, nimalar bo'lmaydi, hali?...

**Quyosh:** Nima-nima? Taraqqiyot degani odamlarning buzilishimi?

**Yer:** Yo'q. Men bir xil g'alamislarning nafsi shutarзда hakalak otib, boraversa, oqibat nima bilan tugaydi degan andishaga gapirdim.

**Quyosh:** (Darg'azab). Xo'sh, aslo o'ylaganmisan, qanday qilib meni bo'lisharkin? Ishqilib, u yoqda birontasi ko'pirib qo'ymadimi? Bilsang, aytaver, mulohaza qilib o'tirma, Yer!

**Oy:** Ha, aytaver, ona-Yer. Odamlar sening bag'ringda-ku. Hamma ezguliklariniyam, kirdikorlarini besh qo'lday bilasan.

**Yer:** Aytaman, Bobo Quyosh, aytaman. Bugun mavridi keldi. Hamma dardlarimni to'kib solaman. Shoyad, biroz yengil tortsam. Aytdim-ku, so'nggi paytlar hatto nafas ololmay bug'iladigan bo'ldim, a!

**Quyosh:** Ha, tepangda turli gaz, tutun, yong'inlar muallaq turibdi. Xo'sh, qulog'im senda.

**Yer:** Mening bag'rimda sening nurlaring har xil tushadi, Bobojon. Tikka, yotiq, yonlama. Shu sababdan nurli mamlakatlar, issiq mintaqalar alohida hisobda turadi. Ana shu unumdor yerlar uchun mening koksimsda uzluksiz talash boradi. Odamlar orasida men ko'proq olay deb, tinimsiz kurash, jangu jadal boradi.

**Quyosh:** (baland ovozda qah-qah urib kuladi) Yaxshi-ku! Bular bari yaxshi, axir! Nur uchun talash bo'lsa, nimasi yomon? Nima, nurli, issiq joylar odamlarga kamlik qilayapti?

**Yer:** (Mulohazakorlik bilan) Kamlik qilmaydi. Lekin... Buni tushuntirish ham qiyin. Mana shunday joylar allaqanchon egalik bo'lganda. Birov-birovni o'z yurtiga osonlikcha kiritmaydi. Ana shu tartibda meni shaxsiy mulkka aylantirib borishmoqda. Bag'rimda kov-kovlar tobora ko'payib, ilig'imni zulukday so'rib olishmoqda. Talash bo'lib ketganman. Xususiy mulkchilik degani bir ofat, bir balo ekan, Bobojon. Birovga tog'day, birovga tariqday... Yer, ko'proq ol! Ye, ko'proq ye! Bu yerdagilarni oliy maqsadi ana shu!

**Quyosh:** Evoh! Odamlar munosabatida tafovutlar shunchaga

borgan bo'lsa, ko'p yomon bo'libdi, Ona qizim. Bunga asosiy aybdor kim, o'zi? Menimcha, o'zing ham qisman ayblisan. Avval boshlab bularga yo'l qo'ymaslik kerak edi. Xo'sh, bag'ringda yaltirab turgan anavilar nima? Kattagina joyni egallabdi. Ilgari unga ko'zim tushmagan ekan.

**Yer:** Ular sening yuzingga tutilgan qabariq oynalar, Bobo Quyosh.

**Quyosh:** Bu nimaga kerak ekan? Menga ko'zguning hojati yo'q. Pardo-andozga o'ch emasman.

**Yer:** To'g'ri. Pardo-angozga bizdagilar o'ch, Bobojon. Ha, odamlar nurlaringni qabariq oynalarda sindirib-sindirib, ma'lum nuqtalarda to'plab, juda katta harorat hosil qilishadi-da, uning yordamida hatto po'lat eritishadi.

**Quyosh:** (Xursand). Yaxshi-ku! Mudom ana shunday xayrli ishlar bilan shug'ullansa bo'lmaydimi? Portlatishlarga nima hojat? Bo'lmasa anavi shotilar nimaga kerak?

**Yer:** Ularning xizmati har xil. Bir xillari yordamida bag'rimdan gaz va suyuqliklarni so'rib olishsa, bir xillari orqali rangli, rangsiz toshlarni, ularning kukunlarini to'playdi. Ularni bizda gaz, neft, oltin, ma'danlar deydi.

Juda qimmatli. Barining bozori chaqqon...

**Quyosh:** demak, hamma narsa sotuvga tushgan, shundaymi?

**Yer:** Xuddi shunday, Bobojon. Lekin, bularning ko'pi odamlarning kunlariga yarayotganini ham aytishim kerak. Bunday xayrli ishlar natijasi odamlar hayoti bilan bog'liq. Bunday uzun-uzun quvurlar chegaralarni buzib, ichkarilarga kirmoqda. Xalqlar-xalqlar bilan bog'lanmoqda.

**Quyosh:** men tushunmadim, chegara deganing nima o'zi? Bugun bu gap qulog'imga bir necha marta chalindi.

**Oy:** Ha, yaxshilab tushuntir, ona Yer. Ana shu chegara deganini men ham uncha tushunmayman.

**Yer:** Bizda shunday qoida, tartiblar bor, Bobo Quyosh. Meni yuzim turli mamlakatlarga, yurtlarga bo'lib-bo'lib tashlangan. Har kim o'z chegarasini qo'riqlaydi. Buning uchun kimning qo'lida qancha-qansha yadroviy\* qurollar mavjud. Vahimaning boisi ham ana shu chegaralar mavjudligida.

**Quyosh:** Xo'sh, sen qo'rqayotgan chegaralaru, qurollardan nahotki odamlar qo'rqmasa?

**Yer:** Qo'rqishadi, ballodan qo'rqqanday qo'rqishadi. Keyin tobora vahimaga tushib, ust-ustiga battar qurollanishadi. Dahshatni o'z qo'llari bilan tayyorlab, keyin uning oldida yelkalarini qisib qaqshab yurishadi. Kechqurunlari ham xuddi qafasga qamalgan sher oldida pinakka ketganday uxlashadi. Men behuda bug'ilayotganim yo'q, Bobo Quyosh. O'tgan asr o'rtalarida ikkita tinch shaharda atom bombasi portladi. (Globusda ilingan oq chodirga kino ko'rsatiladi. Xerosima va Nagasaki shaharlarida atom bombasi portlashi manzarasi ko'rinadi. Dahshatli ovozlari, jon holatidagi qiy-chuvlar, dod-faryodlar eshitiladi). O'sha

kuni mening qalbmida dars ketdi. Hali beri u yara bitadiganga o'xshamaydi, Bobojon.

**Oy:** Ha, bu dahshatning tutun va alangasi qariyb mengacha yetib keldi. Yuzim qora bo'ldi. Hali ham o'sha joylarga tik qarashga uyalaman.

**Quyosh:** Senga ko'p qiyin bo'libdi, jigarporam, ko'p qiyin bo'libdi. Afsuski, bag'ringda hayot boshlanishiga bosh sababchi ekanligim bilan faxrlanib yuraman. Aslida bu qabihliklarga ham oz-ko'p daxldor ekanman-da!...

**Yer:** Sen o'kinma, Bobojon. Bu odamzod deganining fe'l atvori ko'p qiziq. Bir-birini tergashdayam, insof-adolatga chorlashga ham qodir. Shukur, imyon, adolat degan narsalar hali butkul tugamagan. To'g'ri yo'l opoq bo'lib, hammaga ko'rinib turibdi. Hozircha butun insoniyat ko'zini tuman qoplaganicha yo'q. Balki, birin-ketin butun bashariyat, seni o'z boshiga bayroq qilib, hidoyat yoliga tushib olar.

**Oy:** Bu juda oson ish. Faqat yakdillik kerak.

**Quyosh:** Iloyo aytganing kelsin. Odamlar buni bilishadimi, axir?

**Yer:** Hidoyat yo'lini insoniyatning o'zi ochgan, Bobojon. Endi o'zi ochgan ana shu yo'lga, yakdil kirishi ham shart.

**Oy:** To'g'ri, yo'ldan yurganga nima yetsin? O'shanda bizga ham oson bo'ladi.

**Yer:** Rost, hammaga oson bo'ladi.

**Oy:** Sendan bir narsa so'ramoqchman, ona-Yer?

**Yer:** Xo'sh?

**Oy:** Anavi mengacha oyog'i yetganlar sog'-omon yurishibdimi? Endi biz Oyning xo'jayini bo'lib oldik deb, da'vo qilishayotgani yo'qmi?

**Yer:** Aytdimku, odamzodning fe'l-atvorini tushunish juda mushkul ish. Oyog'i yetgan joyni meniki bo'lsin deydi. Bu tog' ekan, bu sahro ekan deb o'tirmaydi. Shu maqsadda dengizu ummonlar qa'riga ham chuqur-chuqur cho'kadi.

**Quyosh:** (Piching aralash). Aytib, qo'y bo'lmasa, men tomonlarga ham dadil-dadil kelaverishsin. Balki oyoqlari yetib...

**Oy:** (Qo'rqib). Hali seni ham olmayay uzib olgilari kelsa-ya!

**Quyosh:** (Kuladi. Lop-lop nurlar toshadi.) Sizlar odamzod har narsaga qodir deb juda qo'rqqoq bo'lib ketibsizlar. Biz u siz butun borligi'mizni dasturxon qilib yozib tashlasagu odamlar bunaqa xudbin, xudparast bo'lishsa, juda yomon ekan. Yerdagi tomoshalar hammasidan o'tib tushibdi.

**Oy:** Telbalik! Haqiqiy telbalik!

**Yer:** Ha, idroksizlik, uzoqni ko'rolmaslik.

**Oy:** Xayr, Bobo Quyosh! Tezda ko'rishguncha. Xayr, ona-Yer. Xotirjam bo'l, Boshimizda Bobo Quyosh bor ekan biz umrbod yashaymiz.

**Yer:** Xayr, Momo qizim, bir oz dam ol.

(Oy yashirinadi. Yer va Quyosh qolishadi. Parda bir yopilib ochiladi. Sahnada o'sha manzara. Faqat Oy yo'q.)

**Quyosh:** Mana, sen bilan yolg'iz qoldik, jafokashib Yer!

**Yer:** Ha, yolg'iz qoldik, Bobojon. Shu cheksiz Koinotda doimo sen bilan yuzma-yuz turganimdan farxlanaman. Meni, hir soniya bo'lsin, tark etmasligingdan quvonaman. Iloyo, boshimizga omon bo'l, Bobo Quyosh! Sendagi har bir o'zgarish menda aks-sado bo'lib qaytadi. Sen tinch bo'lgandagina men xotirjamman.

**Quyosh:** Ko'zimga juda g'arib bo'lib ko'rinasan. Xuddi miltillab turgan kichkina zarra. Qaddingni rostlashing kerak, Yer.

**Yer:** Oramiz juda olisda, Bobojon.

**Quyosh:** Juda omonatsan, yordamga muhtojсан qizalog'im. Nazarimda cheksiz koinotda seni tezkor dovullar, kuchli quyunlar xuddi bir yaproqdek chirpiratib yurganga o'xshaydi.

**Yer:** To'ppa-to'g'ri. Atrofingda yengilgina uchib yuribman, Bobojon.

**Quyosh:** Shunchalik maydamisan, Botalog'im.

**Yer:** Senga nisbatan, albatta, Bobojon. Sen ulug'vorsan. Aytaymi, sahningda mendayin millionta Yer bermalol joylasharkan. Millionta! Sen tog' bo'lsang, men undagi rasmana anorday bitta toshman, xolos.

**Quyosh:** O'-ho', o'xshatishniyam rosa bopladim. bo'lmasa, men juda ulkan ekanman-da! buyog'larda mendan kattalar ham to'lib-toshib yotibdi. O'n sakkiz ming olamning faqat bittasi sizlarga oz-moz ayon, xolos. Xo'p, gapirchi, u yoqlarda yana qanday gaplar bor?

**Yer:** Muhimi shundaki, men sening ajralmas bir bo'lagingman, Bobojon. Sen mensiz ham barhayotsan. Men esa...

**Quyosh:** Sen ham abadiy yashashing kerak, Yer! Umrbod yashashing kerak. Bag'ringdagi har bir mavjudod haqqi, sen yashashing kerak!

**Yer:** Ha, chindan ham shod-xurram yashagim keladi. Mening ham qalbmida sendan ko'chgan ulkan harorat bor, Bobojon. U bag'rimdagi jonzotlarga hali uzoq vaqt yetishadi.

**Quyosh:** Haroratli bo'l, Qizalog'im.

**Yer:** (Faxrlanib). Men ham unchalik kichkina emasman, Bobojon.

**Quyosh:** Xo'sh, xo'sh?

**Yer:** Naq belimdan o'tgan ekvator deb ataluvchi eng uzun yo'l bor. (Globusda Ekvator chizig'i yonadi). Shundan chiqmay, piyoda aylangan odam, hech to'xtovsiz yuraversa, faqat uch yildan keyin o'z manziliga qaytib kelishi mumkin. Ana shunaqa!

**Quyosh:** Tuzuk. (kuladi). Belbog'ing uzungina ekan, Do'mbog'im. Baribir, ko'zimga mittigina ko'rinasan.

**Yer:** Bizdan samoda sochilgan yulduzlar shunaqa korinadi. Oramiz juda olis, Bobojon. Aytaymi qancha? Lekin, shukurki, miltillab nurlaring mengacha bermalol kelib turibdi. Ha, nurlaring xuddi kipriklarday meni siypalab turibdi. O'zimni xuddi ko'zing ichidagi qorachig'iday his qilaman. Oramiz bo'lsa juda uzoq.



**Quyosh:** Ha, sizlar juda hisobdan ketgansiz. Xo'sh, o'ramiz qancha ekan?

**Yer:** Hozir bizda soatiga yuz chaqirim yo'l bosadigan g'aroyib mashinalar bor. Shulardan biriga o'tirib, to'xtovsiz yurib turilsa, baharavar, bir yuz sakson yilda senga yetib borsa bo'ladi, Bobojon. Bir yuz sakson yil! Biz esa, har kun yuz ko'rishamiz.

**Quyosh:** (Kuladi). Fazodan yer tomon o'rkach-o'rkach nur to'liqlari yoyiladi. Juda oson ekan-ku. Bo'lmasa, endi hordi-keldini boshlaymiz, Qizim. Xo'sh, yerliklar bunga tayyormi?

**Er:** Hozircha yo'l ho'lsin. Faqat bizdan mehringni ayamasang bo'lgani, Bobojon.

**Quyosh:** (Nimadir eslab): Lekin, bu yoqqa meni sotib olmoqchi bo'lgan xaridorlardan yuborma. Fazoviy oldi-sotilar boshlanib, sening boshingdagi sho'rliklar bizga ham yuqmasin.

**Yer:** Sening qadringni bilmaganlar, albatta, zavol topadi, Bobojon.

**Quyosh:** Juda aqlisan, Qizalog'im. Sen bilan doimo farxlanaman. Sen hutun-butun falaklarga arziysan. Axir, olamda jonzotki bor, hamma-hammasiga non-nasiba ulashib yuriysan. Yana ularni boshingga ko'tarib, turasan. Qoyil!

**Yer:** Senga rahmat, Bobojon. Mening harcha dardlarimni o'zing davolaysan. Bo'lmasa, keyingi bir asr ichidagi nurlanishlar, zaharlanish, yemirishlar bois butun tanam falaj bo'lib qolardi. Xayriyat, sening nurlaringga sho'ng'ib, bu dardlarga malham topib turibman. Qani edi, bu nobakorliklar tamom to'xtasa!

**Quyosh:** Ha, qor kerak, yomg'ir quyqa yog'sa, bulutdan ko'rmaslik kerak. Seni ko'z qorachig'imday asrashga tayyorman. Mening heminnat nurlarimga cho'lg'anib, uzoq-uzoq yashayver mudom. Faqat bag'ringdagi odamlar huni-o'z qilmishlarini tezroq fahmlab olishsa bo'lgani. Ana shunda o'zlariga yaxshi bo'ladi. Ayt, seni tinch qo'yishsin. Bilaman, bag'ringda katta hadik bor. Tez-tez bo'layotgan zilzilalar ana shunday.

**Yer:** (chuqur uf tortadi. Hamma yoqni tuman qoplaydi): Bobojon, bir hisobdan yaqinda aniq qilib aytdi. Bag'rimni xuddi shu sur'atday so'rib, xuddi shunday kovlab olaverishsa, nari borsa, bir yarim asr ichida men bir g'ovak sharga aylanib qolarkanman. Bag'rimda birov bir boylik qolmas ekan. Holhuki, meni tuganmas xazina deb bilishadi. Axir, olaversa, dengizning suviyam quriydi. Mana, Orol!

**Quyosh:** To'xta, to'xta. Hozir bir gapni esladim. Har bir daraxtni ham o'z qurti eb bitiradi degan gap asli sizlardan chiqmaganmi?

**Yer:** Xuddi shunday, Bobojon. Buni hayotning o'zi ishotladi. Bizda gilar butun bir dengizni ichib bitirishdi. Lekin, hammayam ana shu haqiqatdan to'g'ri xulosa chiqarib ololmayapti.

**Quyosh:** Bo'lmasa, o'zlaridan ko'rishsin.

**Yer:** Bobojon, Sen menga qanchalik shafqat, marhamat

ko'rsatayotgan bo'lsang, men ham bag'rimdagi jamiki jonzotlarga xuddi shuni istayman, ularga rahmim keladi. Axir, umrlari juda qisqa. Odamlar-chi? Guldin ham nozik. Umrlari kapalak umricha emas. Bularga dildan achinaman. Bir kun kelib-bularning holi ne kechadi, Bobojon? Hisoblab ko'rishgan, mening bag'rimda ikki million tur o'simligu jonzotlar bor ekan. Odamzot keyingi uch asrda o'n baravar ko'payibdi. Baybay! Mayli, ko'z tegmasin. Chunki, ular mening farzandlarim axir! Hammasi bag'rimda yetilib, bag'rimda tug'ilgan. Har birining million yillik tadrijiy tarixi, million yillarga tutash ildizlari bor. Bittasining bevaqt o'limi mening ham umrimga zavol. Bir tur jonzodning qirilib bitishi boshqa minglab tur jonzod uchun ne-ne falokatu halokatlarni boshlab keladi. Men o'z bag'rimda tug'ib, o'z bag'rimda ko'maman, Bobojon. Men onalik mas'uliyatini juda yaxshi anglayman. Axir ikki million jonzotning hayot-mamoti mening tasarrufimda!...

**Quyosh:** Uff! (Tuman ko'tariladi, bo'ron turadi). Men esa, qarib falakman. . Bu olamda hamma dan ham senga qiyin ekan, jafokashim. Juda toliqibsan. Seni majruh, muftalo qilib qo'yishlariga juda oz qolibdi.

**Yer:** Darhaqiqat, yordamga juda muhtojman. (bir oz o'ylanib) Bir narsa so'ramoqchiman, Bobojon.

**Quyosh:** marhamat so'ra?

**Yer:** Boshqa biron sayyorada mening bag'rimdagidek hayot bormi o'zi? Bo'lsa, ularning ahvoli qanday? Hamma tinch-totuvmi?

**Quyosh:** (nadomat chekib). O, tentakkinam! Nahotki, shuncha gapdan keyin ham bosqa biron joyda xuddi senikidaqa hayot bo'lishini istasang? Nahotki! Qo'y, endi, loaqal sayyoralar bir-biriga yov bo'lib qolmasin. Unda falakning holi ne kechadi?

**Yer:** To'g'ri, naq, qiyomat bo'ladi. Kechir, meni, Bobojon.

**Quyosh:** Qiyomat?! Nima deganing bu?

**Yer:** Bizda shunday gap bor, Bobo Quyosh. Bu mening umrimning zavoli bilan bog'liq. Balki, haqiqattan ham qiyomat degani o'sha hayotning intihosidir. Bu muqarar mening zavolim demak.

**Quyosh:** Nega zavol topishing kerak? Axir, xaridorlarim ko'p deysan-ku! Xaridoring mo'l bo'lsa, sen tobora ko'proq yashashing kerak emasmi?

**Yer:** Xaridorlar haddan ziyod. lekin hammasi bu yer meniki bo'lsin degan ilinjidagi xudparastlar-da!

**Quyosh:** Sen meni uyaltirib qo'yding-ku, bo'tam. Xo'sh, mening bozorim chaqqon emas ekan-da.

**Yer:** (Qat'iyat bilan). Sen sotilmaysan, Bobo Quyosh! Sen tabiatning bebaho gultojisan. Mening yo'lim bo'lak. Mening narxim arzon.

**Quyosh:** Chin ma'noda sen ham xuddi shunday bebahosan. Xaridoring buni nahotki bilmasa?

**Yer:** Faqat sen sotilmaysan, Bobojon. Bu aslo mumkin emas!

**Quyosh:** Axir, sening farzandlaring...

**Yer:** Ular faqat meni sotishayapti, meni pullashayapti, Bobojon.

**Quyosh:** Axir, ular...

**Yer:** Meni tiriklay ko'mishayapti, Bobojon. O'z bag'rimda menga go'r qazishyapti.

**Quyosh:** Axir, sen-Onasan! Sen mening farzandimsan. Mening haroratim senga ko'chgan, Ona qizim.

**Yer:** Ha, sening bir parchangman, Bobojon Quyosh.

**Quyosh:** Demak, seni ham sotishga hech kimning haqi yo'q!

## **Parda yopiladi.**

### **Ikkinchi parda.**

Parda ochiladi. Sahnada Yer shari, ulkan globus. Uning bir tomonida qishloq manzarasi. Dov-daraxtlar oppoq gullagan. Hamma yoq ko'm-kok. Uzoqda ketmon chopayotgan Dehqon ko'rinadi. U o'z ishidan mamnun, vujudida bardamlik. Dalalarga, dov-daraxtlarga, osmonga zavq bilan qaraydi. Nimalarnidir orzu qiladi.

Globus-Yer sharining chap tomonida yorug' bir xona. Xonaning fonida shahar manzarasi. Baland-baland imoratlar ko'rinadi. Xonada amaldor janob, cho'zilgan oyoqlarini bir-biriga tashlagancha, orom kursida cho'kib o'tiribdi. Basharasi tund, yuzida tashvish alomatlari ko'rinadi. U katta qora oynak taqib olgan. Yonboshida qator telefonlar. O'zicha gapirardi.

**Amaldor janob:** Bugun ertalabdan ko'nglim g'ash. U tomondan holigacha xabar yo'q. Qoradorini ko'pchilik «Qora ajal» deyishayapti. Hozir bundan katta biznesning o'zi yo'q. Va dani buzishmasa, bu galgi bitimdan naq bir milliard qolishi kerak. Ana shunaqa pul to'plab butun dunyoga hokim bo'lish ham qiyin ish emas.

Eshik ochilib yordamchisi kiradi:

**Yordamchi:** (Telefon uskunasi ga ishora qilib). Sizni shtatdan so'rashaypti.

**Amaldor:** (Go'shakni qulog'iga bir pas bosib turadi. Yomon xabar eshitgandek, yuzlari burishib, bezovtalanadi). Hali senmi meni ogohlantiradigan?

Bilasanmi, chumchuqdan qo'rqqan tariq ekmaydi. Tushingni suvga ayt. U joylarga til tegiza ko'rma. Men tegishli kishilar bilan gaplashib qo'rganman. Mening oldimda sen kim bo'libsan? Bor-yo'g'i kechagi milliardermi? Meni qo'rqitma. (Stol galadonini tortadi). Mana, mening ham to'pponcham o'qlog'lik turibdi. Kim kimning boshiga yetadi, ko'ramiz. Qo'rqqoq oldin musht ko'tarar debdilar. gap tamom. (Go'shakni o'rniga qo'yadi. Yana o'z-o'ziga gapiradi). Tirrancha! Men, baribir, yengib chiqaman. Yiqqaning mehnatkashning

oldida urvoh ham bo'lmaydi. Dastlab, yirik-yirik daryolar bo'yidagi yerlarni sotib olaman. Daryo bo'yidagi tuproq unumdor bo'ladi. (Soatiga qarab oladi, stol qirrasidagi tugmani hosadi, hayalamay yordamchisi kiradi, tavoze bilan qulluq qiladi).

**Yordamchi:** Buyuring, janob.

**Amaldor:** «Januhdan nega xabar bo'lmayapti? Avvalgi haqlarini to'liq olishganmi?»

**Yordamchi:** Olishgan. Kelib qolar. Bilasiz, ularda urush borayapti.

**Amaldor:** Darhol shoshilinchnoma yubor. «Devkomat» qayerda bo'lsa, darhol menga ulansin. Shoshilinchnomang shiferlangan bo'lsin. Uchta «2» raqamdan bo'lak hech narsa bo'lmasin. Uqdingmi?

**Yordamchi:** (hoshini egib). Xo'p, bo'ladi, janob. (U shiqmoqchi bo'ldi, Amaldor to'xtatadi).

**Amaldor:** To'xtah tur hozirgina yuqori shtatdan qo'g'iroq bo'ldi. «Yo'lbars»ning odamlariga o'xshaydi. O'yindan chiqmasang, uyingni portlatamiz deb, qo'rqitishayapti. «Ruhoniy»ga qo'ng'iroq qil, ahvolni tushuntir. «Yo'lbars»ni tez tiymasa, keyin qopqonni o'zimiz qo'yamiz. Shunday deb sharma qil.

**Yordamchi:** Tushundim. Chiqsam bo'ladimi?

**Amaldor:** Bor. (Yordamchi chiqadi. Amaldor o'rnidan turib, u yoq-bu yoqqa yura boshlaydi.) Dunyoga hokim bo'lish kerak. Nasib bo'lsa, bunga men erishaman. Buning yo'li bor. Pul-pul! Endi Iskandarday, Doroday, Chingizday emas, boshqacha yo'l tutish kerak. Ularning hali dunyodan axmoq bo'lib o'tishdi. Endi olamni hosqinchilik bilan emas, faqat pul bilan zapt qilish mumkin. Pul bilan!

Yer shari-globusning qoq tepasiga o'rmlab, samimiy iljaygancha Bolakay chiqib keladi. U chap tomondagi xonaga, oynakli amakiga xovotir bilan qarab, yuzidan tabassum o'chadi. Uning gaplariga og'zi ochilib, quloq soladi.

Aslida Bolakay hali hiyron-hiyron gapira olmaydi. Bu uning Olam va Odam haqida endigina uyg'onib kelayotgan tasavvuri, xolos. Shuning uchun Bolakayning ovozi asosan magnitofon orqali beriladi.

**Bolakay:** Nimalar deyapti-a, bu odam? Pastda turib hammasini eshitdim. Lekin, hech narsani anglayolmay turibman. (Zalga qaraydi). Sizlar tushungan bo'lsangiz kerak? Lekin, juda vahimali so'zlar ekan. Turqiyam sovuqmi deyman-a? (Bolakay o'ng tomonga o'g'iriladi. Ketmon chopayotgan Dehqonni ko'rib chehrasi yorishadi. Dehqonning xirgoyisi eshitiladi.)

**Dehqon:** *Bor bo'l. Quyosh, bor bo'l. Yer,*

*Bor bo'lgil, Mehnat*

*Mangu omon bo'lsin Mehr,*

*Bor bo'l, Diyonat*

**Bolakay:** (yuziga tabassum toshib) Tovha, huyoqda butunlay hoshqacha ahvol. Ana bu gaplarni men tushunaman. O'ziyam ko'p yaxshi odamga o'xshaydi-da. Ishlab turib qo'shiq aytadi-ya! Men ishlab turib qo'shiq aytadiganlarni ko'p yaxshi ko'raman. E, qo'shiq yaxshi-da. Bog'cha opamiz ham zap hoblaydilar qo'shiqni. Lekin, bularning bittasiyam oyijonimning allalariga yetmaydi. U kishi alla aytganda mazza qilib uxlayman, yaxshi tushlar ko'raman. Katta bo'lsam, men ham, shunday ishlab turib qo'shiq aytaman. Qani, hir urinib ko'ray-chi, o'rnimdan turib ketamanmi. (U qo'llariga tayanib, turmoqchi bo'ladi.) Eh, bo'lmayapti-ku! Bir oz sabr qilishga to'g'ri keladi, chog'i. Qani, bu yoqqa qaraylik-chi.

**Amaldor janob:** Ha, endi bosqinchilik bilan dunyoga ega bo'lish qiyin. Lekin, pul bilan, nayrang bilan hammasiga erishsa bo'ladi. Mening yo'lim ana shunday. Bugunoq ko'plab hokimlarga, ministr'larga xat va taklifnomalar yo'llayman. Ana, ko'rasiz, men juda ko'p yerlar, butun-butun mintaqalarni pul bilan, nayrang bilan sotib olaman. (Soatiga tashvish bilan qaraydi.) Nima bo'ldi ekan? U tomondan haligacha biron xabar yo'q. Axir, o'sha «qora ajal»dan bugun ko'p miqdorda kelishi kerak. Nahot suv osti kemasi biror falokatga uchragan bo'lsa? Axir, besh milliardlik mol-a! Teng yarmi sof foydaga qoladi.

**Bolakay:** Bu amakining paytavasiga qurt tushgan ko'rinadi-yov. Juda qo'rqinchili odam o'ziyam. Aytishicha, yerni bizlardan tortib olmoqchimi? Yakka o'zi-ya? Xo'sh, nima kerak bo'libdi unga buncha yer? Mana, Dehqon amaki hamon ketmon chopayapti. Qo'shiqniyam rosa boplarikan, lekin o'ziyam naq polvonsifat odam ekan. Dadamlarga ikkita keladi. U o'z yerini bu odamga berib qo'ymasa kerak. Nega bersin, aslida yer uniki-ku! Ana, mehr bilan ishlayapti. Katta bo'lsam men yerda ishlayman. Hamma narsa yerdan olinadi, deganlar dadam. Qarang, oyog'ini yerda mustahkam kerib turishini. E, tuproqni hidlayaptimi?

**Dehqon:** (Hidlangan tuprog'ini dalaga sochib yuboradi). Oh-oh! Tuproqdan naq quyoshning hidi keladi-ya! Tuproqdan bahor hidi keladi-ya! Qani, bir umr dalada bo'lsang. Bir umr mazza qilsang!

**Bolakay:** Qanday yaxshi odam ekan bu amaki. O'zi dalada-yu, yana dalada qolsam deydi.

**Dehqon:** (Qo'shiq kuylagancha ketmon chopadi.)

*Rizqing mo'l-ko'l sochilar.*

*Bahoriy dam g'animat.*

*Gulg'unchalar ochilar. Quyosh to'kib harorat.*

(U peshonasidagi terlarini artadi. Keyin ko'kragini ketmon dastasiga tiragancha ohista so'zlaydi): Onajonim, Yer! Dasturxonim, Yer. Sen meni kechir. Sen hammamizni kechir. O'tinaman, Yer.

**Yer:** (ovoz). Nima uchun bunday deyapsan, o'g'lon? Nimaga uzr so'rayapsan. Axir, men sendan minnatborman-ku!

**Bolakay:** (Ovoz kelgan tomonga alanglab qaraydi, o'ta hayajonlanib ketadi). Qayoqdan ovoz keldi-a. Nahot?...

**Dehqon:** (O'ta hayajonlanib). Gaplarimni eshitdingmi, Onajon. Nahotki? Chindan ham hozirgina o'zing gapirdingmi, Onajon.

**Yer:** Ha, men bilan gaplashyapsan, o'g'lon. Men seni har kuni ko'raman. Qo'shiqlaringni jon qulog'im bilan eshitaman, og'lon. Horma endi? Navro'zlar muborak. Iloyo, ezgu niyatlaring ijobat bo'lg'ay.

**Dehqon:** (Quyoshga tikilgancha qulochini kerib). Oh, qanday mo'jiza bu! Eshitayapsanmi, Bobo Quyosh, men hozirgina ona Yer bilan so'zlashdim. Ha, men ona-Yer bilan tillashdim! Bu qanday baxt, axir! Men Yer bilan so'zlashayapman, Bobo Quyosh! Sen ham eshit.

**Quyosh:** Gapiraver, o'g'lon! Sizlarga xalaqit bermaganim ma'qul.

**Dehqon:** Bahor uchun, Navro'z uchun senga tashakkur, Bobo Quyosh. Bularning bari uchun senga rahmat, ona-Yer!

**Yer:** Gapir, yana gapir, o'g'lon. Men sen bilan so'zlashishni juda-juda sevaman. Xo'sh, boya nega mendan uzr so'ramoqchi bo'lding? Mening oldimda hech qanday aybing yo'q-ku.

**Dehqon:** Onajonim, Yer! Sendan bir umr uzr so'rashga burchliman. Axir, biz sening ko'ksingni doimo toptab, yara-chaqa qilib yuribmiz. Sen bo'lsa bizni beminnat boqasan. Biz seni tepib-tepib o'tamiz. Sen esa, oyog'imiz ostida turib, miq etmaysan. Yana bizni kaftingda tutasan. Biz seni chopamiz, to'p-to'zoningni chiqaramiz. Senga esa, sabr bitgan. Bizni bag'ringga yanayam qattiqroq bosasan. Boshdan oyoq gul-gul kiyintirasan, rizq-ro'z berasan. Bugun bag'ringga urug' socha turib, sendan uzr so'rayman, Onajon. Barcha nasibaxo'rlar nomidan uzr so'rayman. Bizni faqat o'zing kechir. Bizni o'zing asra, ona-Yer. Odamzod farzandi sening oldingda katta gunohkor, axir. Jumladan, men ham.

**Yer:** Ajab fe'ling bor-da, o'g'lon. Iloyo, salomat bo'l. Boshing toshdan bo'lsin. Ishlayver, qolaversa, men ham sendan qarzdorman. Meni gul-gul yshnatayotgan, avvalo, o'zing. Anavi oppoq gullagan daraxtlar haqi, bag'rimda ko'm-ko'k o'sayotgan rizq-ro'zi haqi senga ko'p rahmat.

Avvaldan azal, kimki, yaxshi umid bilan yashagan ekan, u hamisha niyatiga yetgan. Kimki, yaxshi niyat bilan ishlagan ekan, uning murodi hosil bo'lgan. Ishlayver, o'g'lonim. Peshonangdan to'kilgan terlar don bo'lib unsin, non bo'lib unsin. Duru javharlarga aylansin. Ishlagan odamga mening saxovatim cheksiz. Mana, qara! Tepaga qara, yana bir Odam dunyoga kelmoqda. U bir nimalar deb g'ujurlamoqda. Gaplariga quloq sol-chi. Sen tamon talpinib-talpinib kelayapti, o'ziyam.

**Bolakay:** Dadam aytganlariday ko'p qiziq ekan-da bu «Yorug' dunyo». Demak, qorong'u dunyo ham bor. (Dehqon ishlayotgan tomonga

qarab). Bu tomon juda yorug'. Ranglarini... Buncha ko'p! Ajoyibotlar Muncha mo'l. O'-xo'. Qushlarning chug'ur-chug'uri olamni bosib ketibdi. Havo yaxshi bo'lsa, ular baland-baland uchishar ekan-da. Nega odamlar qushlarday uchisholmaydi-ya? Bir kun, albatta men uchaman, men uchaman. Ana o'shanda judayam qiziq bo'ladi. Qushlarga qo'shilib yuksak-yuksak uchaman. O'tobga yaqinlashib, unga salom beraman. Anavi Dehqon amakining yoniga tepadan tushib kelaman. O'shanda u hayron qoladi. Menga qiziqib qaraydi. Keyin birga-birga ishlaymiz. Men ham unga qo'shilib qo'shiq aytaman. Kuylab-kuylab ishlashning zavqi boshqacha ekan-da. Dehqon amaki juda yoqimtoy odam ekan. Lekin ana bu amaki (u chap tomonga qaraydi) butunlay boshqacha. Yuzlari temirday sovuq, qilt etmaydi-ya. Gaplariyam quloqqa yomon eshitiladi. Mayli, o'zicha gapiraversin. Odam bo'lgandan keyin gapiradi-da.

**Amaldor janob:** Orzularim amalga oshishi uchun qo'ldan kelgan hamma ishni qilaman. Lekin, menga juda ko'p pul kerak. Dunyoga hokim bo'lishning o'zi bo'ladimi? Boshni ishlatish kerak, miyani ishlatish kerak. Endi zo'ravonlik bilan hech narsaga erishib bo'lmaydi.

**Bolakay:** E, tinmagurey, hamon osha gap-ku! Dunyoga hokimlik nima degani? Amaki juda xit bo'lib ketdi. Bu yoqda nima gaplar? (U o'ng tomonga qaraydi).

**Dehqon:** (xayolchan, juda vazminlik bilan). Ona-Yer, sening oldingda uyatlimiz, hatto. Biz halol ishlashniyam unutayozdik. Yengil-yelpi yo'llar bilan sening bag'ringdan tobora koproq boylik to'plab olishga o'l deb zo'r berdik. Bo'g'zingni kerak, nokerak zaharu zaqumlarga to'lg'azdik. Bag'ringdan samolarga ko'chgan og'ularni qayta-qayta so'rib, yana qo'yningda kiritmoqdamiz. Sen esa, hamon jimsan, Barcha gunohlarimizni oson kechib, bizni boshingda baland ko'tarib yuribsan. Beminnat boqyapsan. O'ylab qoladi odam: haqiqat qayda? Yurak-siynang poyondoz, bag'ring doimiy manzil. Nega buni hamma bilmaydi? Nimaga andisha qilishmaydi. Bunday ketaversa, oqibat nima bo'ladi? Bahorni xuddi shunday abadiy qarshilash nasib qilarmikan? Navro'z hammaga nasib qilarmikan?...

**Yer:** Ko'p kuyinma, o'g'lonim! Men sen bilan faxrlanaman. Mana, bu gaplarni biladiganlar ham bor ekan-ku! Shukur, ko'p minnatdorman sendan, Lekin, ana shularni hamma joyda aytish kerak, mehribonim. Tobora baland aytish kerak. Toki, hamma eshitsin, hamma tushunsin. Bahorni bilmaganlar eshitsin, Navro'zni bilmaganlar eshitsin. Men ortiqcha maqtovlarga muhtoj emasman. Odamlar o'z qadr-qiymatlarini anglab olishlari uchun bu gaplarni takror va takror aytish kerak.

**Bolakay:** Dadam aytganlaricha bor. Qiziq ekan bu olam. Ana u tomonlar yam-yashil, juda chiroyli. Demak, Navro'z kelgan. Daraxtlar bargida nurlarning o'yini qiziq. Ranglar tovlanar ekan-da. Bog'-rog'lar bahorda juda go'zal bo'larkan. Bog'cha opam mevalar bog'da bitadi demabmidilar?

Bir marta shaftoli yegan edim (tamshanib, so'lg'ini yutadi mazza ekan. Keyin bog'cha opam og'iz-burnimni artib qo'ygandi. Ko'p yema deb urishdi. Nega yemas ekanman? Shaftoli yaxshi-da. Anavu ishlab, qo'siq aytayotgan amakini qayerdadir ko'rgandayman. Mehri issiq, ko'zlari yoqimli. (Chap tomonga qarab) Bu-chi? Savlatidan qo'rqib ketadi-ya, odam. Meni ko'rmayapti chog'i? Ko'rsa nima derkin? Yer meniki, nari ket desa kerak-da. Shunday debam ko'rsin-shi, nega uniki bo'larkan? Hali bir kun u bilan gaplashib qo'yaman. Qani, bir urinib ko'ray-chi, oyoqqa tura olamanmi? E, Bo'lmayapti-ku, mayli. Lekin, men bir kuni anavi qushlardan osmonlarga olis-olis uchaman.

**Amaldor janob:** Dunyoga keldingmi-yashashni o'rgan! Mening falsafam-shu! Birovga xor bo'lmalikning ilojini qil! Oyog'ing ostida yer titrasin. Qadamingdan chaqinlar chaqnasin. Yangi asrda bosqinchilik sira shart emas. Dunyoni egallashni makkorona yo'llarini men yaxshi o'zlashtirdim. Mana hoziroq ko'pchilik davlat boshliqlariga, senat, kongresslariga silliqqina qilib xat, oshig'ichnomalar jo'natdim. Niyatimni xalqaro tashkilotlar bilishadi. Ish yaxshi, ko'chayapti-da. Bir kun kelib men butun dunyo eshitadigan bir ovozda hayqirib deyman: Odamlar qarang, ko'rib qo'ying! Oldingizda Yer sharining yangi asrdagi egasi turibdi. Shunda odam tog'dan oy, yulduz, quyoshdan ham yuksak bo'lib ketsa kerak.

**Yer:** (O'ksinib) Bu gaplarga chidash mumkinmi, axir? Portlab ketmaysan ham yaxshi.

**Amaldor:** Albatta, shunday bo'ladi. Men maqsadimga erishaman, ana, ko'rasiz!

**Yer:** (qaltiroq ovozda) Men uning hamma gaplarini eshitib turipman.

U bo'lsa, mening dardlarim bilan sariqcha hisoblashmaydi. Quloqlari tom hitgan. Ana ko'ring, odamlar orasida kimlar yashayapti.

**Dehqon:** Eshitib, hush boshingdan uchadi-ya! Bu dunyoda axmoqlar ham juda ko'p-da. Yer hammani mehribon onadek boqadi-ku. Uni qayta-qayta parchalashdan nima foyda? Bu bilan nimaga erishish mumkin? Boshingni jinday ishlatsang, mehnat qilishni bilsang kifoya-ku! Bu kaltabinlikning davomi, oqibati nimalarni boshlab kelarkin hali. Tarixda Yerga egalik qilishni birinchi bo'lib kim boshladi ekan? Ehtimol, ana o'sha odamning nomi Ahmoq bo'lgandir? Shundan so'ng bu gap odamlar orasida tarqalib, hamma yomon ishlar o'shanga nisbat berilgandir. Xuddi shunday, dunyoda eng axmoq o'sha kishi bo'lib chiqadi. Yer hammani hoqsa-yu, Ahmoq degani unga hokim bo'lib olsa? Voy, ahmoq-ey!

**Bolakay:** Qiziq. Yer hammani hoqar ekan-da! Shunday bo'lsa u hammamizniki bo'ladi. Yerni sevish kerak. Uni hech kimga bermaslik lozim. Birov ko'p olsa, hoshqaga kam qoladida, bu-aniq. Anavi bog'chada ovqat payti men bilan birga o'tiradigan bolayam ochko'zga o'xshaydi. Gohi mening haqqimniyam yeh qo'yadi. Keyin menga oz qoladi. Bog'cha



opa uni bir marta g'alamis deb urishdi. Demak, yerni g'alamislarga bermaslik kerak. Men ham uni qo'riqlayman. Ana shunday bag'rimga bosib, opichlab qo'riqlayman.

**Amaldor janob:** Ko'nglim bugun nimadandir g'ash. U tomondan xabar bo'lmayapti. Bir tonnaga yaqin «Qora dori» kelishi kerak. Bundan menga naqd 1 milliard qoladi-ya! Pul bo'lsa tamom. Yer yuzidagi haydab kelinayotgan yerlarning barini sotib olish mumkin. Haqni eng yuqori bahoda to'lasang, yerlarni sotishadi. Men esa darhol uni o'z egalriga ijaraga qaytarib beraman. Ana shunday yo'l bilan tog'-tog' daromad kelaveradi. Eng avval, issiq mintaqaga kiruvchi yerlarni sotib olaman. Albatta, oshkora qilib yeringni menga sot deyish ko'pchilikka qattiq botadi. Men buni yumshoqqina qilib tushuntiraman. Yerlaringizni menga oshiqchasiga pullang-u, mazza qilib yashayvering, uni yana o'zingizga qaytaraman. Ijara to'lasangiz bo'lgani. Kerak bo'lsa, ishlab ham beraman. Ana undan keyin...

**Dehqon:** Zap odamlar borda shu ro'yi-zaminda! Yer o'zimizni ki bo'lsa, suv o'zimizniki bo'lsa, boshimizda oftob beminnat charaqlab tursa, bu ne'matlarning qadriga yetish ham kerak. Noshukurlik hamisha turli kasofatlarni boshlab keldi. Afsus, non yeb, hali bug'doyzorni ko'rmaganlar, bo'kkancha go'shtu moy yeb, qo'y-echkning boshini silamaganlar kammi bu dunyoda! Hamma odamni yerga bog'liq qilib qo'yish kerak. Hammani! Traktorni ham hamma chiqarsin, uni dalada ham hamma ishlatсин. Odamlarni bu ishini, bu dehqon deb, bu shaharlik, bu qishloqlik deb, sinflarga, tabaqalarga ajratish xato. Odamzod toki yer bilan yaqindan bog'lanmasa, yerga chuqur tomir otmasa, yomon xayollardan qutilolmaydi. Yerda ishlab, hovuch-hovuch ter to'kkan odamdan hech qachon yomonlik chiqmaydi. Kimki urush, talash, vayronagarchilik niyatida yuribdi unday odam aslida yerdan yiroq.

Unday odam o'taketgan nodon. Dehqon hech qachon urush boshlamaydi. (u qo'shiq aytadi).

*Bor bo'l Quyosh, bosh bo'l Yer,  
Bor bo'lsin mehnat!*

**Bolakay:** (Qand yeb mazza qilganday tamshinadi, so'lagini yutadi.) Gaplari ko'p ma'nili ekan. Dehqon amakining. Hoziroq barini uqib olish kerak. Uning oldiga borsammikin? E, ana, yoniga qo'ltig'iga tugun ko'tarib bir ayol keldi-ku! Ularga xalal bermayin-chi. U yoqda oyoqlarini uzotib olgancha ko'zoynakli amaki nimalar deyapti ekan?

**Amaldor javob:** (Orom kursida yalpayib o'tirgancha telefonda nimanidir surishtiradi). Xat, shoshilinchnomalar yuborildi-mi? Shunday bo'lsin! Avval, Ekvatorga yaqin mamlakatlarga jo'nating, to'g'ri qilibsiz. Ularda qish bo'lmaydi, yerdan besh martagacha hosil olish mumkin. Sizni ham foydaga sherik qilib olaman. G'ayrat qiling. «Janub» dan hali

biron xabar yo'qmi? Nima bo'lyapti o'zi? Doim vaqtida yuborishardi-kul! (Go'shakni qo'yib, kaftlarini bir-biriga ishqaydi) Bu yog'i yomon bo'lmaydi. «Qora dori» degani bugun butun dunyo biznesining haqiqiy ahvolini belgilab turibdi. Faqat shu yo'l bilan pulni ko'paytirish mumkin. Yangi asrda giyohvandlik yanada rivojlanadi. Qora dori-oltin! Bo'lmasa yer sotib olish qiyin. Men avval haydalib turgan yerlarni qo'lga kiritaman. Keyin sersuv daryolar bo'yidagi yerlarga og'iz solaman (globusda serirmoq Amazonka daryosi yaltirab ko'rinadi, sharqirab oqayotgan suvning ovozi eshitiladi). Besh yildayoq bari xarajatlarim birga o'n bo'lib qaytadi.

**Bolakay:** Puldan boshqa gapi yo'q ekan-da bu amakining. Qani, bu yoqqa qaraychi (U o'ngga buriladi. Dehqon tugun ko'tarib kelgan xotiniga peshvoz chiqadi).

**Dehqon:** Eh, kelsang-chi, onasi. Qara, ko'klam nechog'lik go'zal, tabiat qulf uradi-ya! Bahor xuddi senga o'xshaydi, onasi! Behuda noming Gulbahorxon bo'lmagan ekan-da. Havoni bir hidlab ko'r-a?

**Xotin:** (Ko'zini yumib, havoni ishqaydi.) Ha, ko'klam hidi urufyapti. Biram yaxshi! Boshing chir aylanib ketadi-ya. Ko'kda xuddi parday suzib yurganga o'xshaysan. Bu yil hosil rosa bitadiganga o'xshaydi, dadasi.

**Dehqon:** O. tilingdan! Yana hidla, onasi, yana!

**Xotin:** Iliq shamollarning isi kelyapti. Men o'rik gulining bo'yini to'yayapman, juda g'alati, huzurbaxsh...

**Dehqon:** Chuqurroq nafas ol, onasi!

**Xotin:** Qanday yaxshi, dadasi! Anavi ochiq darvoza tomondan sumalak hidi kelyapti. O'zingiz ham bo'y torting, dadasi, sumalak isi kelyapti. (Dehqon ikki qo'lini keng yoyib, boshini orqaga tashlagancha osmonga qaraydi).

**Dehqon:** Ko'kka nazar tashla, onasi. Osmonga qara.

**Xotin:** Osmon tip-tiniq. Oftobning nuri bugun tamom boshqacha. Ana turnalar pastlab uchib o'tayapti, dadasi. Ovozlar qanday yoqimli. (Osmonga qo'l silqib) Qur-ey, Qur-ey. Yer bag'rlab qaldirg'ochlar raqs tushmoqda. Ajib manzara, biram go'zal!

**Dehqon:** Anavi gala-gala bo'lib uchayotgan qushlarga qara.

**Xotin:** Qushlar qanotidan nurlab ham uchaypti. Qarang, har biri bir parcha alanga. Quyoshni olib uchib ketayotganga o'xshaydi, ular.

**Dehqon:** Quloq sol, onasi, yaxshilab eshit.

**Xotin:** Ha, butun olam kuylayapti, dadasi. Oppoq bulutlar bag'ridan suvlar shaldirashi kelmoqda. Yer bag'ridan yoqimli ovozlar yoyilib chiqmoqda.

(biroz tin olib) Ha, xuddi shunday. Hammayoqdan bahorning ovozi, Navro'zi olam ovozi eshitiyapti.

**Dehqon:** (Quvonib). Maysalarning nesh urib chiqayotgan ovozini eshityapsanmi, xotin. Butun tabiatni to'lg'oq tutganga o'xshaydi-ya!

**Xotin:** Shamollar qo'shiq aytyapti, dadasi. Qarang, novdalar

tovlanib-tovlanib chiroyli raqs tushmoqda. Butuqlar quyoshga talpinib, bir narsalar demoqda, dadasi. O'zingiz ham eshityapsizmi?

**Dehqon:** (Xotiniga mehribon boqib) Ko'zlaringda osmon akslanmoqda, onasi. Yuzlaringda bahor ko'rinayotir. Sen bahorga o'xshaysan.

**Xotin:** (Jilmayib, yerga qaraydi). Sizning ham nomingiz behuda Dehqonjon bo'lmagan-da, dedim. Yerni buncha yaxshi ko'rasiz. Qarang, ufqda Yer bilan Osmon qo'shilib ketganday, ikkovi ham bir rangda, yam-yashil!

**Dehqon:** Ko'zingda oftob aksi chaqnaib turibdi: onasi.

**Xotin:** Hozir qalbinga butun olam kirib kelganday.

**Dehqon:** Yasha! Anashu olamning bari bizniki, onasi. Bugun yana ikki tup xurmo ekdim. Boqqa qara, xuddi ulkan guldastaga o'xshaydi-ya. Bahor yaxshi keldi. Yog'in-sochinli, havo iliq, ko'chatlar tez ko'karadi. Hosil bu yil mo'l bo'ladi. Axir, Navro'z juma kuni boshlanib turibdi-da! (nimanidir eslab) E, ha, xotin, bugun bir mo'jiza ro'berdi, Haqiqiy mo'jiza!

**Xotin:** (Erining ko'zlariga tikilib). Qanday mo'jiza ekan? (Nozlanib). Yoki birona atlas koylak kiygan uzoqdan ko'z suzib o'tdimi, dadajonisi?

**Dehqon:** Yo'q-yo'q. Unaqa dema. Men bugun Yer bilan gaplashdim. Yakkama-yakka. Yer menga aniq-tiniq gapirdi-ya!

**Xotin:** (Hayratda) Yer bilan deysizmi? Yo'g'-e! Xayolingizda bo'lgandir?

**Dehqon:** O'lay agar, Yer bilan gaplashdim. Uning juda samimiyat bilan: «Senga ko'pdan-ko'p rahmat, o'g'lon», deganini ana shu quloqlarim bilan eshitdim, onasi Yer menga rahmat aytdi.

**Xotin:** (Erga o'ychan tikilib). Balki, rostdir. Axir, olamdagi hamma narsaning ham tili bor deyдилar-ku. Hayvonlar, hasharotlar... Dov-daraxtlar ham tovush chiqaradi. Yerning ham tili bo'lsa, neajab?! Hozirgina o'zim ham shu hisni to'yganday bo'ldim-ku!

**Dehqon:** (Biroz maqtanib). To'g'ri, lekin, Yer hamma bilan ham gaplashavermaydi, onasi, U faqat o'zi bilan tillasha oladigan odamni xush ko'radi. Hamma odam ham Yerning nazariga tushavermaydi. Bugun Yer men bilan gapirdi. Rahmat senga, deb samimiyat bilan gapirdi. G'ayratim ichimga sig'mayapti, xotin, Yer hammaga ham Rahmat deyavermaydi. Hozir uning qarg'ishini olib yurganlarni kam deysanmi? Bu dunyoni jannatga aylantirsa bo'ladi. Anavilar bor-ku, bizni ko'rolmay yurganlar, yerni yo'qotaman, portlataman deydidiganlar bor-ku, O'shalar menga duch kelguday bo'lsa, mana shu ketmonim bilan qiyma-qiymalab tashlayman-a! Keyin, bilasanmi, ularni tuproqqa ko'rmaslik kerak, aslo qarg'a-qurg'unlarga yem bo'lib ketsin. Satqa-i Yer, satqa-i tuproq ketsin undaylar.

**Xotin:** (Eriga ajablanib qaraydi). Ko'p qizishmang! Sizga bugun bir narsa bo'lgan ko'rinadi, dadasi. Hozirgina quvonchingiz ichingizga

sig'mayotgan edi. Endi achchig'ingiz chiqib turibdi. Xo'p, men boray. Bunyodjonni uyda yolg'iz qoldirgan, edim. Uyg'ongan bo'lsa...

**Bolakay:** E, qiziq bo'ldi-ku bu gaplar. Birdaniga judayam ko'p narsani o'rganib qoldim-a, bugun. (U yoq, bu yoqqa hayron bo'lib qaraydi). Ie-ie, ana xolos! Buni ko'ring men o'rnimdan qachon turib ketdim-a? Mana ikki oyog'imda tikka turibman-ku. Qanday yaxshi! Endi atak-chechak qilib yurar ekanmizda. Qani, bir qadam tashlab ko'raychi. Ho-pa! E, zo'r! Anavi oynakli odam meni ko'rib qolmadi-mi? Ana endi yer bosib, mustaqil yura boshladik: Bir-ikki, bir-ikki, zo'r! Hali bir kun men bu odam bilan yuzlashaman. Gaplari qulog'imga yomon o'rnashib qoldi. Sira yodimdan chiqarmayman. O'shanda uni bir boplaymanki! Undaylardan aslo qo'rqmasa ham bo'ladi. (Dehqon tomonga yuz o'girib) Mana bu tomonda shungay yaxshi odamlar bor ekan, bundaylardan sira-jira qo'rqmaslik kerak. Men ham yaxshi odamlar tomonida bo'laman-da. Yana bir quloq solay-chi, ko'zoynakli amaki nimalar deyaptikim.

**Amaldor janob:** Ammo ko'nglimning g'ashligi sira tarqalmayapti. Bitta bitimdan bir milliardlik bo'laman-a! Qulochni katta olish vaqti keldi. Menda esa yangi g'oyalar ko'p. «Janub» to's-to'palon. Pul ishlasa bo'ladi. Ha, yangi asr Oyni o'zlashtirish asri bo'ladi. Hali u daxlsiz paytdayoq buning chorasini ko'rish kerak. U yerdan kattagina joy olishning ilojini qilish zarur. Oyda baland imoratlar, mehmonxona, qahvaxonalar qurish kerak. «Janub»dan paydar-pay kelib turgan «Qora dori»dan Oyga ham yuborib tursa bo'ladi. U yerda bir misqoli naqd uch misqol tillaga ketadi. Hali bu gap hech kimning kallasiga kelganicha yo'q. Yangi asr mendaylarning asri bo'ladi. (Shu payt shoshilib, rangi bo'zday oqarib, Yerdamchi kiradi).

**Yordamchi:** Janob, u tomondan telefon bo'ldi. «Yo'lbars»ning odamlariga o'xshaydi. Boshlig'ingga ayt, o'yindan chiqsin deb tahdid solib turibdi.

**Amaldor janob:** Bo'lmasa-chi? Yana nima dedi?

**Yordamchi:** Uyini portlatamiz deb qo'rqitishyapti.

**Amaldor janob:** (O'zini dadil ko'rsatib). Qo'rqma, qo'llaridan hech ish kelmaydi. «Ruhoniy»ga qo'ng'iroq qildingmi? Aytib qo'ysin, hozir kimning puli ko'p bo'lsa, dunyo o'shaning qo'lida. «Yo'lbars» hali u tirronchaga, menga yetish uchun yo'l bo'lsin. Ko'rasan, Yer sharining haqiqiy egasi kim ekanligini yaqin yillarda ko'rasan. Kosmodromlar meniki bo'ladi. Maxsus yadro portlatish maydonlarini o'zim belgilab, juda qimmatga sotaman. Kerak bo'lsa, yerning har qarichini qayta-qayta pullayman. Bozorlarni, mozorlarni pullayman. Qani, men bilan hisoblashmay ko'rishsin-chi! «Yo'lbars» hali u qafasdan chiqmagan «Yo'lbars». Meni «Burgut» deydi.

**Bolakay:** Telbaga o'xshaydimi?! Quloq solish shartmi unga? Axir, men bu tomonga qarab yuraman-ku. Endi men Dehqon amaki tomonga bo'laman. Uning gaplari qanday yaxshi, ular Yerni, Quyoshni ko'p yaxshi

ko'rishar ekan. Bu odam bo'lsa faqat pulpul deydi. Butun Yer yuzini sotib olaman deydi. Xullas, niyati buzuq.

**Dehqon:** (Ketib borayotgan xotini tomon qichqiradi). Hoy, kechqurunga osh qil, onasi! Ha, polovxonto'ra! Men bugun naq shomgacha ishlamoqchiman. Kayfiyatim a'lo! Yo'q, to'xta, to'xta, onasi! Yaxshisi oshni shu yerga olib kel. Oy yorug'ida o'tirib yeymiz, Ko'katlar ustida chordana qurib o'tiraylik Bunyodjonni ham ola kel. Shabnam tushgan gullar hididan bir to'sin. Angladingmi?

**Xotin:** (Eriga jilmaygancha qo'l silkiydi) Yana yer bilan gaplashar ekanmiz-da! Xo'p, men ketdim. Ana, shunaqa, Siz yerni tush ko'rasiz, mehnatni tush ko'rasiz, Yer bilan gaplashasiz...

**Dehqon:** Yomon rashkchisan-da, xotin. Axir, ilgari faqat seni tush ko'rardim-ku. Aytganman-a... Xo'p, endi boraqol, oshni shu yerga keltir. Yo'-yo'q, to'xta! Qozonni shu yerga ola kel. Oshni mana shu joyda pishiramiz. Bir maza qilaylik. Navro'z oshi bo'ladi Bunyodjonni ola kel, tuproqlarda dumalab-dumalab yursin, bahorni, navro'zni ko'rsin.

**Bolakay:** (Nimanidir eslab). Mening nomim ham Navro'z-a? Demak, bohorda, Navro'z kunlari tug'ilgan ekanman-da. Ana bularning gapidan joning rohat qiladi, qarang, bir-birlariga biram mehribon. Ana shundaylar bilan bir umr birga bo'lsang, qanday yaxshi! Oshdayam, ishdayam. (Bolakay bitta-bitta bosib, Dehqon tomon yura boshlaydi. Chap tomondan Amaldor janobning ovozi eshitiladi).

**Amaldor janob:** Pul, nayrang bilan hamma narsaga erishsa bo'ladi. Hali zamon kutganim keladi. Yer sotib olishning eng o'ng'ay vaqti hozir. Nafaqat Yer, Oydan ham ko'proq joyni egallab qo'yish kerak. Mana, g'oya: Quyoshli yerlarni sotib olish, Quyoshni sotib olish degan gap-ku! Quyoshni-ya!...

Xuddi shu payt uning oyog'i tagida juda qatiq gumburlash eshitilib, tepaga quyun aralash qip-qizil alanga ko'tariladi. Amaldor janobning jon holatda o'kirigi, yerdan ochilgan o'pqqoqga ikki qo'lini teppaga ko'targancha tushib kotayotgani ko'rinadi. Olov ichida to'pponchadan o'q otilishi eshitiladi. Chang-to'zon tinar-tinmas, televizorda lo'ppi yuzli, jingalak sosh qizning boshi ko'rinadi. Uning ovozi sal mungli: Shahrimizdagi «Burgut» laqabli giyohmand moddalar kontrbandasi bilan ko'p yildan buyon shug'ullanib kelayotgan milliarderning uyida kuchli portlash ro'y berdi. Hatto, qoshni uylarning oynalari ham sindi...

Og'ir musiqa ostida parda yopiladi.

## HAR ZARRADA BIR HIKMAT

Qayta tirilish ro'yi berganida qozonlardan qancha-qancha qo'yuechki, siguru-buzoq chiqib kelardi...

\*\*\*

Qop-qora, yomg'ir-quyuqa yog'ayotgan bo'lsa, ayb bulutda emas.

\*\*\*

Odamzod qancha ichgani bilan dengizni suvi tugamaydi, degan gap yolg'on. Mana, Orolni olib ko'ring, ichib-ichib bitkazdik-a! Endi uni ko'z yoshi bilan to'lg'azib bo'lmaydi albatta.

\*\*\*

Bir muxbirni bilaman, hamma-hammada o'chi bor. Uning uchun butun dunyo qop-qorong'u. Ertaga yana oftob chiqadi, deb ming marta aytib, baribir, shubhalanib qaraydi.

\*\*\*

Ey, munofiq! Ming boshli ilon ham sendan ming marta a'lo. Sening sha ningga boshqacha gap aytish qiyin. Yana Qodir egam biladi...

\*\*\*

Yozuvchini mehmon qilish juda oson. Kitobini uyga qo'ltiqlab borsangiz, bo'lgani. U Sizning mehmoningizga aylanadi. Faqat tunning allamahallida quvib solmasangiz, juda yaxshi.

\*\*\*

Allaqaysi qo'riqxonada ming boshli ilonni asrashar ekan. Nega? Axir, olamda ming boshli ilon mavjudligini odamlar ko'rib qo'yishsinda...

\*\*\*

Bu yorug' olamda ilon bo'lib yetishgan farzandini ko'rib, marhum Onaning ruhi chirqiradi: «Bola tuqqan edim-a!»...

\*\*\*

Ilodlar bir-birini chaqqandayam o'lmaydi-da. Adolatsizlikni ko'ring.

\* \* \*

Men qoshiqparas, sanchqi parastlarga ko'pam havas qilmayman.  
Nahotki, bu narsalar qo'ldan toza bo'lsa...

\* \* \*

«Jon er. jon olov» degan ekan har ikkovigayam yolchimagan bir  
bechora xotin.

\* \* \*

Ustoz o'ksinib dedi: «Shuncha yil eshakning qulog'iga tambur  
chertib kelibman-a»...

\* \* \*

Mendan yaxshilik qidiring: juda kop topiladi.  
Mendan yomonlik qidirmang: undan ham topiladi.

\* \* \*

Yerga tushib qor qorayadi. Qoraygan qorga qarab ko'ngling xira  
tortadi. Holingni sezganday, qoraygan qor qora-qora yig'laydi. Uni bosib-  
bosib o'tayotganda o'z holini bilsaydi, odam...

\* \* \*

Shaxmatdagi ayrim muxorabalarda Shox turgan xonasidan bir  
qadam ham siljimayoq, mot bo'ladi. Bundan nafaqat shaxmatchilar  
balki, Sultonlar ham xulosa chiqarishlari kerak...

\* \* \*

Shaxmatda yakka Piyoda to'dadan ajralib, ancha ilgarilab ketishi  
mumkin. Lekin, ko'pinca manzilga yetolmay, qurbon bo'ladi. Xulosa shuki,  
Piyodani mutlaqo yolg'izlatib qo'ymaslik kerak...

\* \* \*

Olimlarning butun faoliyati chala kashfiyotlarni qisman bo'lmasada  
to'lg'azishga qaratilgan.

**Ta'magirniq falsafasi: «Yashashdan maqsad-yashash!»**

\* \* \*

Odamlar butun umri davomida, hayotning tub mohiyatini to'la anglab olish uchun, yashaydi va faoliyat ko'rsatadi. Shu maqsadda Oллоhdan ko'proq umr ham so'raydi. Lekin, hammasi behuda.

\* \* \*

«Olimlar, bundan ming yil burun nimalar qilishgan?» degan savolga bundan ming yil burungi voqea-hodisalarni o'rganish uchun bosh qotirishgan deb javob qilsa bo'ladi.

\* \* \*

Yozuvchi iste'dodi uning ixlosmandlari soni bilan emas, balki ularning umumiy saviyasi bilan belgilanadi.

\* \* \*

Qushlarning hayoti tamom boshqacha: ular haqiqatda erkin va mudom o'zlarini-o'zlari boshqarishadi. O'zlari uchun in qurishadi, qishlik g'amlashadi. Orada ta'magirlik yo'q, muttahamlik yo'q. Bu haqiqiy ozodlikdir. Balki, shuning uchun ham ularga qanot bitgan.

\* \* \*

Faqat kuchli e'tiqodli odamlargina hayotni juda sevishadi.

\* \* \*

Maqtanchoq odamlarning aksariyati yolg'onchi, ayni chog'da, yolg'onchi odamlarning bari maqtanchoq bo'ladi. Ulardan birini ko'rib, ikkinchisini tanib olish mumkin.

\* \* \*

Birovning haddan oshirib maqtash, olqishlab, ofarinlar aytish, faqat laganbardorlik emas, bu ko'pincha uzoqni ko'zlab, qarzga aytiladigan gap. Shuhratparastlik poydevori shundan qo'yiladi.

\* \* \*

O'zini hammadan ko'ra dono deyish, aslida boshqalarni salkam jinniga chiqarish bilan barobar.

Hayvonlar ham bir-birini o'ldiradi, hatto aza ochishadi. Lekin, faqat odamgina bir-birini qirish uchun qurol yasaydi. Motam kunlarini belgilaydi.



Hayvonga qaraganda odamzod ongi juda shakllangan, alhatta. Axir, haligacha biron hayvon o'z-o zini kuydirgan emas-da...

...

Balki, haqiqatda, shaxsning-tarixda hal qiluvchi roli yo'qdir. Agar, Chingiz, Banopart yoki Gitler qilmishi insoniyat uchun necha so'mga tushganini hisoblab chiqish mumkin bo'lsa, yuqoridagi gapga qo'shilsa bo'ladi.

...

Hayvonlardan farqimiz shuki... Ular yolg'on gapirmaydilar, munofiqlik ham qilmaydilar. Buni hoshqacha aytsa, biroz qo'pol tuyuladi. Yuqoridagi jihatlar bilan hayvonlar nahotki bizdan ustun bo'lishadi...

...

Ayrim odamlar haqida o'ylayman: nahot, ular maymundan tarqalgan bo'lsa? Shunday desak, maymunlarni haqorat qilgan bo'lmaymizmi?...

...

Hayvonlar ham sovuq qotadi, alhatta shu payt yonida gugurt ham, o'tin ham bo'lishi mumkin. Afsus, ular olov yoqisholmaydi. Lekin, ularni ongsiz deyish ham mumkin emas. Axir, jonivorlar olovda tovlanishni, quyoshda yalpayib isinishni xush ko'radilar-ku! Demak, ularda ham oz bo'lsada ong mavjud. Bularni men ongli odamlarga xulosa chiqarish uchun shoshilmaslik kerak degan ma'noda aytdim.

...

Agar, ta'asis qilinsa, «Ahmoq» degan unvon guvohnomasi birinchi bo'lib kimga berilishini men juda yaxshi bilaman. Mayli, hozircha tabriklash uchun shoshmay turaylik...

...

«Tinchlik shartnomasi imzolandi» degan rasmiy gaplarni men hazm qilolmayman. Nahot uni imzolash kerak?...

...

Ona tili darsida o'qituvshi so'radi:

- Dunyoda nechta til bor, Akobir?
- Dunyoda necha odam bo'lsa shuncha til bor-da, muallim.

\* \* \*

Kurortda dam olayotganlar shaxmat o'ynashardi. Siponni surar ekan, ulardan biri dedi:

-Bugun qaysi mulojaalarni oldingiz?

-Faqat ma'danli suvga kirdim. -javob berdi sherigi.

-Unday bo'lsa hushyor bo'ling, -deh ta'kidladi «raqib» tomon.

-Meni uqalab ham qo'yishgan.

\* \* \*

-Shahar o'rtasida bu haykalning nima keragi bor?

-Bo'lmasa, kahutarlar kechqurun qayerda o'tirib, «hojat» chiqarishadi?

\* \* \*

Taniqli o'g'rilar orasida bitta notanish kishi paydo bo'ldi. Polisiyachining ko'ziga o'sha odam shubhaliroq ko'rindi.

\* \* \*

Tirikligida haykallari tiklangan odamlarni ko'pam baxtli deb ho'lmaydi.

\* \* \*

Banklarning paydo bo'lishi kissavurlarning beliga tepdi. Lekin bu tadhir, «qonundagi o'g'rilar»ning ko'payishiga sabab bo'ldi.

\* \* \*

Insof bilan aytganda, bizning sharoitda yorug' dunyo rohatini asosan erkaklar tatib yurishibdi. Haqiqiy jannat asosan ayollarga tegishlidir.

\* \* \*

Urushda qahramonlik ko'rsatish ko'proq odam o'ldirish bilan belgilansa, «yulduz»larini ko'z-ko'z qilib taqib yorganlar ko'pam maqtanmasalar yaxshi edi.

\* \* \*

Birovga qilingan yaxshilik hoshqalarning g'ashiga tegayotgan bo'lsa, demak u tom ma'noda yaxshilik emas.

\* \* \*

Oqila bir ayol ishtirok etgan davradagina erkaklarning haqiqiy basharasi namoyon bo'ladi.

\*\*\*

Har bir tumanda, loqal bitta, faqat Navoiy ijodi o'qiladigan sinflar ochilsa, juda mukammal ish bo'lardidi.

\*\*\*

Men bir gapni ko'p takrorlayman: XXI asr xaritalaridan har bir xonadonda namunalar asrab qo'yish kerak. Axir, ularda Orol dengizining tasviri bor...

\*\*\*

Mendan jannat umidida yurgan bo'lsangiz kerak, degan kishilarga hech ikkilanmay «Onaginam qayerda bo'lsalar, o'sha joyning g'amida yuribman» deb javob beraman.

\*\*\*

Afsuski, O'zbekistonning chet mamlakatlarga chiqadigan o'z dengizi yo'q. Lekin, Kaspiydan kattagina kanal chiqarib, uni Urganch yoki Nukusgacha olib kelsa, bu yerda zamonaviy bandargohlar qursa bo'ladi-ku! Shunda O'zbekiston kemalari Volga daryosi orqali Russeyaga, Kaspiy bo'yidagi hamma davlat va bandargohlarga chiqariladi. Bu hal qilishni kutib turgan XXI asrning dolzarb muammasi emasmi? Albatta, aytishga oson lekin bajarsa bo'ladi. Qolaversa, bundan faqat O'zbekiston manfaatdor bo'lmaydi.

\*\*\*

Afsuski, bizda ko'pchilik dindor mulla, taqvodorlarning bilimi, ularning Qur'oni Karimoyatlarini qanchalik yod bilishi va qiroatiga qarab, belgilanadi. Holbuki, din tubsiz ummondur. Unga «sho'ng'imoqchi» bo'lgan odam, avvalo, o'z holini bilishi kerak.

\*\*\*

XX asr tibbiyoti odamzod ichki a'zolarini boshqalarga ko'chirib o'tkazish muammolarini hal qildi. Afsuski asr ana shu munosabatlar bilan bog'liq fojiali oldi-sottilar boshlanishi bilan tugadi. Alhazar, Buxoroi Yharifda ham bu ishlar ro'y berdi.

Oqibat nima bo'larkin?...

Sizga insof bersin, jarrohlar!

Pichog'ingiz tagida yotgan farzandlarimizni Sizga ishondik-a!...

\* \* \*

Bir kishi, yuz kishi, keling-ki, ming kishi maqtanchoq bo'lsa bo'la qolsin. Lekin, butun millat maqtanchoqlikka berilsa-chi? Go'yoki, hammadan aqlimiz. Bo'lmasa, nega hammadan boy emasmiz?...

\* \* \*

O'ramizda to'rt misra she'rni yod bilmaydigan, yoki bitta musiqani boshdan oyoq xotirjam o'tirib eshitolmaydigan odamlar bor ekan, hali-beri ma'naviyatimizni yuksak deb aytolmaymiz.

\* \* \*

Bir keksa sho'xlik qilib dedi:

-Shuncha yoshga kirib, xotin bilan endi do'stlashdik. Aka-uka tutundik...

\* \* \*

Ko'picha, Shoh yetaklab borgan dagina Piyoda manzilga yetadi va qudratli kuch-farzinga aylanadi.

Shaxmatni bilgan qanday yaxshi...

\* \* \*

Baiki, faylasufdan shaxmatchi chiqmas, lekin har bir shaxmatchi o'ziga xos faylasufdir.

\* \* \*

Suruvdan ajralgan qo'yga cho'pon, alhatta, tayoq otadi.

Goh-goh olomondan ajralib chiqqing, nimalardir qilqing, suron solqing keladi.

Tayoqdan qo'rqmasang, marhamat, birodar...

\* \* \*

Alloh va Subhon taolloning millati bo'lsaydi biz uni o'zhekka chiqararmidik?...

Bu osiy bandangni o'zing mag'firat qil, Qodir egam.

\* \* \*

Toki dilingdagini ro'y-rost ayta olmas ekansan, sen yashayotgan muhit mukammal emas...

\* \* \*

Maddohlikning tirikchilik manbaiga aylannishiga shart-sharoit yaratgan jamiyat tabiiyki, inqirozga mahkumdir.

\* \* \*

Farzandlarimiz juda zo'r-da! Soqol-mo'ylovi chiqqanda ham ota-ona yelkasidan tushgisi kelmaydi, bachag'arlarnig. Ha, ota-ona yelkasi keng emish! Chin gap, ota-ona yelkasi farzandlarini bermalol sig'dira oladi. Lekin, koshkiydi, farzand ham qo'lini ko'ksiga qo'yib: «Otajon yoki Onajon, mening tor yelkamga bir oyog'ingizni, ukamning tor yelkasiga esa ikkinchi oyog'ingizni qo'ying» desa edi. Yo nasib!

\* \* \*

Oltin o'lchaydigan tarozi bor, dori o'lchaydigan tarozi ham mavjud. Siz menga Odam o'lchaydigan tarozi yasab bering.

\* \* \*

Qushlar hayotida ham o'zgarmas bir qonun bor: hammasi o'z tilida so'zlashadi, hech kimga taqlid qilmaydi.

Ana shu qoidani buzgani uchun ham To'tining umri qafasda o'tadi.

\* \* \*

Ibodatdan ko'ra e'tiqod ulug'vordir. Alloh tilda emas, dilda bo'lgani ma'qul.

\* \* \*

Odamzod paydo bo'lgandan beri 5 million yil o'tibdi-ya! Shuncha vaqtdan buyon o'z kamchilik-nuqsonlarini tugatolmay, sarson-sargardon yurgan noraso Inson Yangi asrda ilgarilab ketadi degan gapga qo'shilish qiyin.

\* \* \*

Odamlik qiyofasini allaqachon yo'qotib bo'lgan bir kishi hamon cho'ntagida jajjigina ko'zgu asrab, unga o'zini solib yurganiga hayronsan.

\*\*\*

Insoniyat paydo bo'lgandan buyon to hozirgacha yaratgan ma'naviy boyliklarni bir yerga to'plashning iloji bo'lsa, o'shanda haqiqiy xazinamizni to'la ko'rish imkoniyati ro'y berardi.

\*\*\*

Ko'pgina hayvonlar och qolganda zoriqib ma'rashadi. Ulardan farqli o'laroq faqat eshak xursandchilikda olamga jar solib hangraydi.

\*\*\*

Xo'ja Nasriddinning qudrati shundaki, u asrlar davomida bizning ustimizdan ayovsiz kulib kelayotgan bu foniyl dunyo ustidan masxaraomuz qah-qah urib o'tdi.

\*\*\*

Hamma olimni yozuvchi deyish qiyin, lekin har bir yozuvchi o'ziga xos olimdir.

\*\*\*

Har bir odam o'zini buyukman deyishga haqlidir. Ammo, shuni unutmasligi kerakki, u yorug' olamda yashayotgan 6 milliard odamning bittasi, xolos. Demak, har qanday buyuklikka ham milliardlarning bir ulushi harobarida sherikdir.

\*\*\*

«Men o'zbekni emas, O'zbekistonni sevaman», degan kishilar aslida bu yurtga non izlab kelgan gadolarga o'xshaydi. Chunki millatni sevmagan, mamlakatni ham sevolmaydi.

\*\*\*

Qadr kechasi farishtalar qurshovida qolmagan bo'lsang, ulardan o'kinma, birodar! Bu yorug' olamda bor-yo'g'ingni birov bilmagandan keyin nima ham bo'lardi?...

\*\*\*

Qadr tuni deb ayta ko'rma-Qadr kechasi! Agar senga tun bo'lib tuyulgan bo'lsa, faqat o'zingdan ko'r. Bu kechaning tuni bo'lmaydi. U tun bo'lmasdan, tongga aylanadi.

\* \* \*

Musavvir bo'lganimda «Qadr kechasi» deb nomlangan bir asar yaratardim. Unda o'z sohiblarini topolmay, sarson-sargardon uchib yurgan, oppoq xarir kiyimli, oppoq farishtalar siymosini yaratardim...

\* \* \*

Men chumoliday umr ko'rdim. Chumoliday mehnat qilib, umr guzaronlik o'tkazdim. Ammo, to'g'ri yo'ldan xuddi chumoliday chiqib-chiqib ketgan vaqtlarim ham bo'lgan. Bari bir, sal nari yurib, yana o'z yo'limga tushib olganman.

Ayhlaringni mag'firat qil, Oллоhim! Axir, men izdan chiqqanda ham chumoli edim...

## **XXI ASR QANDAÏ BO'LADI?**

**(Publisistika).**

Darvoqe, XXI asr qanday bo'ladi? Avvalo, XXI asr XX asrning davomi bo'ladi. XX asrda yoqqan qor-yomg'irlar XXI asr bahor yozida ariq va daryolardan bizga obi hayot bo'lib oqadi. XX asrda biz qazgan daryolardan suv o'tib, biz ochgan yerlardan rizq-nasiba o'sadi. XX asrda kimni o'stirib tarbiyalagan bo'lsak, o'sharning qo'ldan non-tuz yeymiz. Qaysi xil dov-daraxtlarni ekan bo'lsak, o'sharning soyasida o'tirib, sharbatini totamiz.

Ko'rinib turibdiki, hech qanday mo'jiza ro'y hermas ekan. Hayot o'z yo'lida davom etadiveradi, biz ham umrguzaronlik qilaveramiz. Boshimizda yana uy-ro'zg'or tashvishlari, dunyo ishlariga munosabat bo'ladi.

XXI asrda ham nimalardandir kulib, nimalardandir kuyunib, zorlanib yuramiz. Qora qozonni qaynatish uchun, ust-bosh, uy-joy uchun hamon mehnat qilamiz. Afsus, do'xtirlarga ham ishimiz tushib turadi. XXI asrda ham qalloblarga, poraxo'rlarga, lo'tibozlarga duch kelamiz, ishimiz tushadi. Kissavurlar, talonchilar, tilanchilar, zo'ravonlar ham bo'ladi. Kuppakunduzi Sizni tunah ketadiganlar, ko'zingizga qarab yolg'on aytadiganlar, firibgar, nayranghozlar, ma'lum, munofiqlar hali heri ko'payadiki, kamaymaydi. Nega? Bu savolga har kimning o'zi tevarakatrofdan javob qidirishi kerak. Chunki, uydagi gap hozorga to'g'ri kelmaydi deganlaridek, mening javobim sizni qoniqtirmasligi tabiiy. Negaki, men boshqa bir sharoitda. Siz esa, boshqa bir sharoitda, men boshqa muhitda-yu, Siz boshqa muhitda yashab, mehnat qilasiz. Ko'pincha, hayotimizni bizdan tashqaridagi muhit va sharoitlar ham belgilab berishini yoddan chiqarmaslik kerak.

Keling, avvalamhbor, nekbin bo'layligu Oллоh taollodan boshimizga tinchlik, omonlik tilaylik. Xotirjamlik, osoyishtalik so'raylik. Tepamizda osmon, oyog'imiz ostida yer xotirjam bo'lsin. Shu yaqin yillarda bo'lgan zilzilalar, bo'ronu to'fonlar, toshqinu ko'chikilarning xalq boshiga keltirgan kulfatlaridan xahardormiz-ku! Ana shunday ofatu kulfatlardan Qodir egamning o'zi asrasin. Hozir dunyoni eng chekkasida ro'y bergan xasday falokat ham bir zumda siz bilan bizning tashvishimizga kelib qo'shiladi. Shu sabab Tangri ko'pchilikning rahmini yesin, qatorida siz bilan bizning ham deb, qo'limiz duoda, tilimiz va dilimiz shukronada bo'lsin.

O'tgan asr qanday bo'ldi? Yangi asr qanday bo'ladi? Ikkinchi savolga javob berishdan oldin birinchi so'roqqa javob izlash kerak. Ma'lumigizki, o'tgan asr fan-texnika juda ilgari lab ketgan davr bo'ldi. Uning so'nggi ellik yili davomida insoniyat paydo bo'lgandan buyon erisha olmagan tezlik va sur'atlarga, mo'ljiza va yutuqlarga erishdi, desak, muholag'a bo'lmaydi. Oyga inson qadami yetdi. Boshqa sayyoralarni izchil tadqiq qilish boshlandi. Odamzod kosmosga chiqdi. Odamlarga o'zgalarning yuragi va boshqa a'zolari ko'chirib o'tqaziladigan bo'ldi. Interned, telekommunikasiylar, kompyuterlar oddiy turmushimizga oddiygina narsalar bo'lib singib ketdi. Bugun temir «odam»lar rasm chizib, shaxmat o'ynamoqda. Bugun oradan masofa degan gapning o'zi, deyarli, ko'tarilib bormoqda. E-ha, bular ozmuncha yutuq emas, albatta. Axir, hozir eng chekkadagi oddiygina bir uyda turib, dunyoning boshqa bir burchidagi mashhur kutubxonadan istalgan bir kitobning, istalgan sahifasini texnika vositasida o'qib undan ko'chirma olish mumkin. Yoki, Jondor kasalxonasida yotgan hemorga Amerikami, Farangistonda turib, aniq tashxiz qo'yish hamda davolash shart-sharoitlar yetarli. Bular, haqiqatda ham, dunyoviy kashfiyotdir. Holbuki, XIX asrda bularni orzu ham qilib bo'lmas edi. Orzumandlarni xayolparast deb, ustidan kulishardi. Mana, hugun esa...

Afsuski, dunyoviy kashfiyotlar insoniyatlar boshiga dunyoviy tashvishu, falokatlarini ham olib keldi. Chunki, ilm-fan yutuqlari faqat tinchlik yo'lida, yaratuvchilik yo'lida foydalanilayotgan emas-da! O'tgan asrda xalq ikki marta jahon urushini boshidan kechirdi. Yana 150 marta katta kichik janglar bo'lib o'tdi. Bizning yurtlarda bu yanada og'irroq kechdi. Buyuk inqilob biz kutgan orzu-havaslar o'rniga boshimizga katta kulfatlarni ham olib keldi. Amirlik «inqirozi» bilan birga qanchadan-qancha aqli, boy-badavlat, ilmiy, ziyoli kishilardan ajraldik. Keyin hosmachilik deb atalgan ozodlik harakatlarida qatnashgan ming-minglab yuragida o't-olovli hamyurtlarimizdan judo bo'ldik. Quloqlashtirish yillarida esa, har bir qishloqdan eng kamida 5-10 ta o'rtahol yoki boy-badavlat oilalar o'zga yurtlarga, uzoq cho'l-biyohonlarga hadarg'a qilinib, badar ketishdi. Qishloqlar, shaharlar egasiz huvullab qoldi. Yurtning ham moddiy, ham ma'naviy boyliklari tashib ketildi. Ilmli odamlar, boy-badavlat odamlar



esa, dunyoning to'rt tomoniga tariqday sochilib ketdilar.

Katta yoshli kishilar yaxshi bilishadi. 30-yillar oxirida esa ziyolilarga hujum boshlandi. Xalq haqiqiy qatag'on yillarini boshidan o'tkazdi. Bizning millat, ayniqsa, uning hamma narsani tushunadigan, bilimdon qatlami bu tuzumda eng katta qurbonliklar berdi. Butun millat goh pinhon, goh oshkora har xil zug'umlarga duch keldi. Boshi omon bo'lgir xalqimiz bularning hariga bardosh berdi, sabr-toqat ko'rsatdi.

Keyingi yillarda yuz bergan sobiq poytaxtimiz Moskva tomonidan uyushtirilgan, O'zbekistonga desantchilar tashlangan. «Paxta ishi» deb chiroyli nomlangan kirdikorlar-chi» sobiq ittifoq miqyosida butun millatga nisbatan ishonchsizlik, hurmatsizlik haddan oshib ketdi. Kelgindilarga esa eshiklar lang ochildi.

O'zbekiston Qahramoni, xassos shoirimiz Abdullo Oripov bularni shunday ifodalaydi.

***Yurtimda beso'roq kezganing yetar,  
O'zingni xoqondek sezganing yetar.  
Bir yuz o'ttiz yil qul bo'ldim senga,  
O'zbekni shuncha yil ezganing yetar.***

Bu gaplarni o'n yil burun aytib ko'r edi!...

Men sho'ro zamonasida butun 70 yil ahmoq bo'lib yashadik, demoqchi emasman. Sho'ro zamonasining siyosati o'zbekdan boshqa xalqlarga ham bunday zug'um va zulumlarni o'tkazib keldi. Hatto o'risning o'zigayam! Faqat 60-yillardan so'ng turmush bir qadar o'zgargani, mahalliy kadrlarga e'tihor oshgani, ayniqsa, ishchi dehqonlar sinfining farzandlarini o'qitishga e'tihor berilgani, qishloqlar qayta qurilgani, elektrlashib, radiolashgani, majburiy o'qitish, hepul davolash yo'lga qo'yilgani haqida ham gapirish, bularni tan olish kerak. Lekin, yurtimizdan hamma narsa tashib ketilgani, biz faqat xom ashyo yetishtiradigan hudud bo'lib qolganimizni, paxtamiz, pillamiz, tilkamiz bu yerda yetishtirilsa, ham, boshqa joylarda qayta «ishlanganidan» ko'z yummasligimiz kerak. Yana sevimli shoirimiz Abdulla Oripovga murojaat qilaylik.

***Necha buyuk zotlar o'tdi bu yurtida,  
Bog'larda quzg'unlar oshiyon qurdi.  
Mana shu asrda, shu mamlakatda,  
Kelgindi kimsalar davrini surdi.***

Bu gaplar sizning ham tilingiz uchida edi. Faqat shoir tilidan olov bo'lib otildi. Ha, sho'ro zamonida bizning mahalliy kadrlarga nisbatan ochiqdan-ochiq ishonchsizlik ruhi hukmron edi. Qayerda asosiy rahbar, masalan, raykomfirqaning birinchi kotibi o'zbekdan bo'lsa, yonboshida ikkinchi bo'lib, boshqa millat kishisi o'tirar edi. Jumladan, Jondor ham bundan mustasno emas. Hatto, bosh hakim, suv xo'jaligi, hisoblash markazlari, mudofaa hamda ichki ishlar bo'limi rahbarlari ham, dastlabki

yillarda hatto rayijrokom raisi ham (Tyorkin degan shaxs) o'rislardan bo'lgan. Bahona bitta: «mahalliy kadr yo'q!» Bunga alohida e'tibor bering, Buxoro viloyatidagi 10 ta raykomfirqa kotibidan 2 nafari armani edi. (Armanida kadr ko'p ekan-da!). Ular o'zbekcha nari tursin, hatto o'rischani ham uncha qoyil qilolmas edilar. Nega shunday? Chunki, Toshkentda firqa markazkomi kotiblaridan biri armani edi. Chunki, Moskvada, Bosh Gruzinning oldida, uning yetakchi safdoshlaridan biri Armani edi. Afsuski, bularning hari baynalminalchilik shiori ostida o'tkazilar, haqiqiy ahvol esa, afkor ommadan sir saqlanardi. Xo'p, deylik, baynalminalchilik haqiqiy maqsadimiz bo'lsa, nega o'zbeklardan biron kishini olib borib, Armanistonmi, Gruziyaga birinchi rahbar qilib quyishmadi. Hatto o'zbeklardan har bir rahbar chiqarmaslik haqida ham yashirin siyosat yurgizilganki, huni faxmlash qiyin emas. Ana shularni o'ylaganda Asrning oxirida yuz bergan voqea Mustaqillikni tom ma'noda haqiqiy inqilob deb baholash mumkin. Chunki, o'zbek o'ziga qaytdi. Qadriyatlarimiz o'zimizga qaytdi. Tilimiz va dinimiz o'zimizga qaytdi. Bular, -buyuk ne'matdir! Tinchlik bo'lsa, xotirjamlik bo'lsa, Yangi asrda O'zbekistonning haqiqiy bo'y-bastini butun dunyo hatto, uzoq-uzoqlardan ham ko'radigan bo'ladi. Bu kunlarning rohat-farog'atiga erishamiz va shunda XX asrning so'nggi yillarida yashagan, XX asrning jabru-jafolarini tortgan jamiki kishilar, haqiqatan ham tarixiy shaxslarga aylanadilar.

Mendan ko'pchilik o'tgan asrdan rozimisiz deb, so'rashadi. Bu savolga bir og'iz bilan javob berish qiyin, albatta. Chunki, biz hali Yangi asrda yashaganimizcha yo'q. Shuning uchun uni avalgisiga taqqoslab bo'lmaydi. Qolaversa, bu xuddi o'tgan umringizdan rozimisiz, deganday gap. Albatta, inson o'tgan umridan rozi bo'lishi kerak. Nima bo'lgandayam Yangi asr poydevorini o'tgan asrda qurdik. O'tgan asr esa, qaytmas daryo!

Yangi yil dasturxonini boshida o'tirganda, qo'limizni fotihaga ochib, Yangi asrdan tinchlik-xotirjamlik kutaylik. Turli halo-qazolardan ollohning o'zi asrasin. Ana shunday deb, chin ko'ngildan yuzimizga fotiha tortaylik, odamlar!

Chunki Yangi asrning qanday bo'lishi asosan siz bilan bizning sa'y-harakatimizga, faolligimizga, ona-yurt taqdiri uchun mas'ulligimizga bog'liq bo'lganidek, bizdan tashqarida, biz bilan bog'liq bo'lmagan ravishda ro'y beradigan voqea, hodisalar, tabiat qaltisliklari bilan ham bevosita va bilvosita bog'liqdir. Shuning uchun Yangi asr qanday bo'ladi degan savolga faqat yaxshiliklardan iborat javoblar izlaylik. Muhimi, farzand va nevaralarimizga umid bilan qarab, ularni to'g'ri yo'lga solib turaylik. Muhimi shundaki, 2001 yilda hatto bir soatgina yashagan inson ham ikki yilning, ikki asrning hatto ikki ming yillikni shohidi bo'ladi. Ha-ha, Yangi yil arafasida tug'ilganiga bir soatgina bo'lgan chaqaloq ham ana shunday saodatman bo'ladi. Ajab emas, shu kecha tug'ilgan bolalarga MINGBOY, YUZBOY, YANGIJON, ORZU, UMID, ASR, BOQIY degan nomlar qo'yishsa?...

Tabiiyki, o'quvchi hamon ushbu maqoladan, yugurik nazar bilan, o'zini qiziqtirgan savolga javob axtarayapti. U bizning ushbu suxandonligimizdan qoniqish hosil qilmayapti. U qayta-qayta xo'sh, Yangi asr qanday bo'ladi deb so'rayapti. Keling, bilganimizcha, hayotiy tajribamiz yetguncha, bu haqda ham bir oz mushohada yuritaylik.

Menimcha, Yangi asrda to'g'ri so'z va samimiy kulgining qadri behad oshadi. Haqiqiy mehnatkash, haqiqiy hunarmand, haqiqiy olim, odamoxun kishilarning qadr-qimmatini ko'tariladi. Ana shunday qilib, har bir odamning o'z o'rnini paydo bo'la boradi.

Bizning sharoitimizda asr boshida tabaqqalanish kuchayadi. Ishbilarmonlardan ko'ra vositachilarning qo'li haland kelib, aravasi ko'proq yuradi. Dastlabki yillarda hamon og'iz bilan ish bitiruvchilarning oshig'i olchi bo'ladi. Asrning taxminan ikkinchi choragi boshlarida odamning tabiiy o'sishi to'xtaydi. Hukumat buni belgilaydimi-yo'qmi, baribir, butun dunyoda oilani rejalashtirishga o'tiladi. Tug'ish yoki tug'maslik o'g'il ko'rish yoki qiz ko'rish masalasini asosan ayollar hal qiladi. Xo'sh qizlar ko'paydimi, o'g'il bolalar? Buni turli joylardagi hayot, yashash tarzi belgilab beradi.

Texnika beqiyos o'sib ketsa ham, ketmon bilan belkurak hali uzoq yillar saqlanib qoladi. Gapning to'g'risi, puldor odamlar uzoq umr ko'radigan bo'ladilar. Buni yashirmaslik kerak. Chunki, o'ta nozik inson a'zolarini tabiiy yoki sun'iy lari bilan almashtirish hammaga ham nasib qilavermaydi. Yoki har kimning ham chontagi dosh beravermaydi. «Sog'ligim kissamda»-degan shior keng tarqalsa, ajab emas.

Dunyoda eng ilg'or, o'ta taraqqiy qilgan bir necha mamlakatlar hududidan Oyga sayohat qilish doimiy yo'nalishlari ochilishi mumkin.. Dengiz, okeanlar sohilidagi mamlakatlar suv ostida kichik shaharlar qura hoshlaydilar. Tabiiyki, bunday shaharlarda hayot kechirishning juda ko'p qulayliklari bo'ladi. Bizning sharoitda esa, sug'oriladigan dehqonchilikning muammolari tohira ortib boradiki, hali-beri tugamaydi. Shuning uchun uzoqni ko'zlab ish qilish qurg'oqchilikka chidamli paxta va boshqa o'simlik navlarini yetishtirish, yer osti suvlarini to'liq chuchuklashtirib beradigan uskunalar orqali oqava va yer osti suvlaridan qayta-qayta foydalanish choralarini asr hoshidanoq ko'rib borish foydadan xoli emas. Baribir biz hali uzoq davr paxtakor bo'lib qolavaramiz.

Bozor iqtisodiyoti bois majlislar kamayib boradi. (Omin!). Ehtimol mansabdorlar ham, to'ralar safi siyraklashib qolar. Bozor iqtisodiyotining qonunlari shunday. Unga bo'ysunmay ilojimiz qancha! Shubhasiz, shu bilan vohasta haybarakallachilar, laganbardor, xushomadgo'y, yaltoqilarning to'ri ham torayib boradi.

Chet tillarni o'rganishga havas ortadi. Chet mamlakatlar bilan oldi-sotdi, hordi-keldilar rosa kuchayadi. Bu ayniqsa, bizning mintaqada yaqqol seziladi va iqtisodiy ahvolumizga ijobiy ta'sir otkazadi. Buyuk Ipak

yo'lining tiklanishi O'zbekistonga bo'lgan qiziqishni nihoyat ortitadi. Buxoro, Samarqand, Xiva kabi shaharlardan sayyohlarning qadami uzilmaydi. Bundan, alhatta, yutamizki, yutqazmaymiz.

Kiyimlar juda xilma-xil bo'lib ketadi. Hatto, eng jiddiy erkaklar ham «ochilib-roq yuradigan» bo'ladilar. Ayollar uzun kiyib, hatto yopinih borishsa, bu uyatdan emas, balki, shu yillarda rasm bo'ladigan kiyim-hoshlarga bog'liq bo'ladi.

Sodda odamlar soni tobora kamayib boradi. Ijtimoiy taraqqiyot tufayli odamlar anday-hunday yolg'onlarda mutlaqo ishonmaydigan bo'lib boradilar. Shuning uchun yolg'onchilik qisman kamaysa-da, ancha takomillashib ham ketadi.

Inshoollo, Islom dinining ohro'si tobora oshadi. Shu bilan birga aksariyat odamlar, hoshqa dinlarga mansub iymonli kishilarga, e'tiqodidan qat'iy nazar, hurmat bilan qaraydigan bo'ladilar.

Hayot taqazosi bilan ichki qo'shinlar saqlanib qolinsa ham, harbiy kuchlar birlashib, borsa kerak. Asta-asta Butun Dunyo Yagona armiyasining mintaqaviy qo'shimchalari shakllanib ketishi mumkin.

Asrning birinchi choragidayoq Quyosh haroratidan maqsadli foydalanish juda kuchayib ketadi. Uylarni quyosh nuri bilan isitish, mashina-traktorlarni yurgizish, yoritish maqsadlarida quyosh nuri asosiy manbaalardan biri bo'lib qoladi. Asr davomida butun dunyo bo'ylab yakka yolg'iz yashashni xohlovchilar soni oshib boradi. (Och qornim, tinch qulog'im!)

Afsuski, hamma narsa pul bilan o'lchanadigan bo'lgach, «Rahmat», «Umringizdan haraka toping» kabi minnatdorchilik so'zlari o'z ahamiyatini yo'qota boradi.

Yhunday qilib, XX asr:

Johon urushlari;

Qirg'inbarot janglar;

Matkuraviy kurashlar;

Ekologik falokat;

Ochlik-qashshoqlik;

Ilm-fan taraqqiyoti;

Fazoni o'zlashtirish;

Mustamlakachilikning tugatilishi;

Tezkor aloqalar;

Kompyuterlar va aholi nufuzining olti milliardga yetish asri bo'ldi.

## XXI ASR:

Olamshumul kosmik taraqqiyot;

Inson o'z imkoniyatlarini to'la-to'kis namoyon qila oladigan;

Odamlarni hayratlantirish o'ta mushkullashadigan;

Fizikultura-sport hayotning uzviy bir qismiga aylanadigan;

Ekologik falokatlarga qarshi kurash ommaviy tus oladigan;  
Odamzod o'zini tiyishni o'rganadigan;  
Tabiiy boyliklarga ehtiyoj behad oshadigan;  
Oziq-ovqat mahsulotlari qisqarib boradigan asr bo'ladi  
Keling, qolganini boshqalarga, juda-juda olisni ko'radiganlarga,  
haqiqiy hashoratgo'ylarga, oz-mozini folbinlarga ham qoldiraylik.  
Fol ko'rsatsma, befol ham qolma degan ekan mashoyixlar.  
Yangi yilingiz, Yangi Asringiz va Yangi Ming yillik qutlug' bo'lsin, azizlar!  
Oyog'ingiz ostida o'ralib yurgan ilonlarning boshi yanchilsin.  
Oллоh ulug' dir!

18-19-dekabr, 2000 yil.



Toki, hayot bor ekan, yaxshilik bilan yomonlik, adolat bilan razolat, poklik bilan qabihlik yonma-yon yashayveradi. Asarimiz «Qahramonlaridan biri» Quyoshli yerlarni sotib olish-Quyoshni sotib olish bilan barobar» deganda yuraging bir qalqib, oyog'ing tagiga uzilib tushganday bo'ladi. Demak yangi asrda ham, insoniyat to'la ma'nodagi kamoloti borasida juda olislab ketolmasak kerak. Chunki, shundoqqina yon-verimizda haligiday odamlar yashab, kerak bo'lsa, davru davron surib yurishibdi...

Aziz o'quvchi! Ushbu mo'jaz kitobdan, zarracha bo'lsin, biron ibrat topsangiz, Muallif o'z niyatiga yetgan umrini behuda sarflamagan hisoblaydi.

Yana koyrishguncha!

## MUNDARIJA

|                                       |    |
|---------------------------------------|----|
| Chashma.....                          | 3  |
| Mitti «To'ra».....                    | 5  |
| Xijolat.....                          | 8  |
| Ulg'ayish.....                        | 10 |
| Rasm chizishni qanday o'rgandim?..... | 15 |
| G'alaba kuni.....                     | 17 |
| Mirshablik sinovi.....                | 20 |
| Gulguna.....                          | 21 |
| Mening yolg'onlarim.....              | 25 |
| Javobsiz qolgan savol.....            | 25 |
| Nozik mehmonlar kelganda.....         | 27 |
| Sudxo'rlik oqibati.....               | 27 |
| Dono javob.....                       | 28 |
| Dehqonlarni asragil, Tangrim!.....    | 29 |
| Jannatdan-jannatga.....               | 29 |
| Tulkisunos.....                       | 30 |
| Yangi yil intervyusi.....             | 35 |
| Quyosh sotilmaydi.....                | 38 |
| Har zarrada bir hikmat.....           | 62 |
| XXI asr qanday bo'ladi?.....          | 71 |

**Muzaffar TURSUN**

## **«QUYOSH SOTILMAYDI»**

*(hikoyalar, p'essa, publisistika.)*

**«Buxoro» nashriyoti**

**Adabiy-badiiy nashr.**

|                |                                    |
|----------------|------------------------------------|
| Muharrir-      | <b>Gulnora SAMIEVA.</b>            |
| Rassom-        | <b>A. MAXMUDOV,<br/>N. SAIDOV.</b> |
| Tex. muharrir- | <b>O. IBODULLAEV.</b>              |
| Musahhih-      | <b>R. TURSUNOVA.</b>               |
| Sahilovchi-    | <b>M. ELOVA.</b>                   |

Terishga berildi. 14.02.2001. Bosishga ruxsat etildi. 14.03. 2001 yil. Bichimi 1-16. Gazeta qog'ozi. Shartli bosma tabog'i 5,0. Adadi 2000 nusxa. Buyurtma N 509. Bahosi kelishilgan narxda.

Buxoro Viloyat bosmaxonasida chop etildi.

